



ALFRAGANUS

xalqaro ilmiy jurnal

Maxsus son | 1 (12) 2025

TURKIYADAGI O'ZBEK TAKYALARI TARIXIDAN

— O'ZBEKLAR

— SULTONTEPA
O'ZBEKLAR TAKYASI



Toshkent-2024

ISSN: 2992-8974

Bosh muharrir:

Egamberdiyev Farmonqul Tursunqulovich

ALFRAGANUS UNIVERSITY rektori maslahatchisi, professor, iqtisodiyot fanlari doktori

Bosh muharrir o'rinbosari:

Muminov Nozim Gaffarovich

ALFRAGANUS UNIVERSITY prorektori, professor, iqtisodiyot fanlari nomzodi

Mas'ul kotib:

Xo'jayev Mo'minjon isaxonovich

Alfraganus Xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi rahbari

Tahririyat kengashi;

Abdurahmonov Qalandar Xodjayevich

O'zbekiston Fanlar akademiyasining akademigi, iqtisodiyot fanari doktori, Toshkent shahridagi

G.V. Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti filiali rektori

Sadullayev Azimboy Sadullayevich

O'zbekiston Fanlar akademiyasining akademigi, fizika-matematika fanlari doktori

Vaxabov Abduraxim Vasikovich

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti professori, iqtisodiyot fanlari doktori

Murtazayeva Raxbar Xamidovna

Mirzo Ulug'bek nomdagi O'zbekiston Milliy universiteti professori, tarix fanlari doktori

Paxrutdinov Shukritdin Ilyosovich.

A.Avloniy nomidagi pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o'rgatish milliy

tadqiqot instituti professori, siyosiy fanlari doktori

Alimbekov Adhambek Kamolovich

Toshkent davlat sharqshunosik universiteti professori, filologiya fanlari doktori

Jabborov Nurboy Abdulhakimovich

Aisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti professori, filologiya fanlari doktori

Saifnazarov Ismoil Saifnazarovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti professori, falsafa fanlari doktori

Muminov Kobiljan Kadirovich

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universiteti professori, fizika-matematika fanlari doktori

Ahmadaliyev Yusupjon Ismoilovich.

Farg'ona davlat universiteti huzuridagi pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini

oshirish mintaqaviy markazi doktori, geografiya fanlari doktori, professor

Rahmonov Rasul Nematovich

Toshkent shahridagi Webster universiteti ijrochi direktori, PhD, dotsent

Mambetjanov Qahramon Qurbandurdiyevich

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Miliy universiteti professori, iqtisodiyot fanlari doktori

Umarov Baxriddin Mengboyevich

Onyental universiteti professori, psixologiya fanlari doktori

Egamberdiyeva Yulduz Xamroqul qizi

O'zbekiston Milliy univerateti dotsenti v.b., PhD

Qaxxorova Matluba Mannofovna

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi professori, falsafa fanlari doktori

Mustafayeva Nodira Abdullayevna

O'zbekiston Farlar akademiyasi ijtimoiy fanlar bo'limi boshlig'i, tarix fanlari doktori, professor

Xalmirzayev Axmadjon Axunovich

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti dotsenti, geografiya fanlari nomzodi

Ismailov Azizbek Ruzimahmatovich

ALFRAGANUS UNIVERSITY ta'sischisi, PhD

Maxmudov Muhammadismoil Muxitdinovich.

ALFRAGANUS UNIVERSITY rektori, PhD, dotsent

Boboxo'jayev Kudrat Umarovich

ALFRAGANUS UNIVERSITY prorektori, PhD

Xamdamov Isakjan Mamasaliyevich

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Fizika-matematika fanlari doktri, professor

Islomov Bozor Islomovich

O'zbekiston milliy universiteti. Fizika-matematika fanlari doktori, professor

Gulyamov Shuxrat Manapovich

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti "IchJA" kafedراسi professori,

texnika fanlar doktri.

Abdullayev Obidjon Xayrullaevich

ALFRAGANUS UNIVERSITY "Matematika va fizika" kafedراسi mudiri, fiizika-matematika fanlari nomzodi,

dotsent

Saydaliyeva Feruza Xayriddinovna,

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent.

Begimov O'ktam Ibrogimovich

ALFRAGANUS UNIVERSITY "Raqamli texnologiyalar" kafedراسi mudiri

texnika fanlar bo'yicha falsafa doktri PhD

Shukurov Yorkin Alijdjanovich.

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi o'qituvchisi

Raximjanov Masrur Nugmanovich.

PhD, ALFRAGANUS UNIVERSITY katta o'qituvchisi

Tahririyatning xalqaro kengashi;

Birol Merkan

Najmiddin Erbokan nomdagi davlat universiteti, Siyosiy fanlar fakulteti, iqtisodiyot nazariyasi

kafedراسi professori, fan doktri (Turkiya Respublikasi)

Altunina Varvara Viktorovna

I.Kant nomidagi Baltika Federal universiteti huzuridagi Oliy biznes va tadbirkorlik maktabi

direktori, iqtisodiyot fanlari nomzodi, pedagogika fanlari doktri professor (Rossiya Federatsiyasi)

Aliyeva inobat Akramovna

I.Kant nomidagi Baltika Federal universiteti huzuridagi Boshqaruv va hududiy rivojlanish institutining talaba salohiyatini rivojlanishi ta'lim imiy klasteri boshlig'ining muovini iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya Federatsiyasi)

Raximshikova Mavluda Karimjanovna

Muxtor Avezov nomidagi Janubiy Qozog'iston universiteti dotsenti, falsafa fanlari nomzodi

(Qozog'iston)

Zenkova Inga Vladimirovna

Yovfrosiniya Polotskaya nomidagi Polotsk davlat universiteti Iqtisodiyot kafedراسi mudiri, PhD,

dotsent (Belarus Respublikasi)

Chief editor

Egamberdiyev Farmonkul Tursunkulovich

ALFRAGANUS UNIVERSITY Rector is adviser, Professor, Doctor of Economics

Deputy of chief editor

Muminov Nozim Gaffarovich

ALFRAGANUS UNIVERSITY vice-rector.professor, candidate of economic sciences

Executive Secretary

Khujaey Muminjon Isokhonovich

Head of Alfraganus Intemational Research Center

Editoral board:

Abdurahmonov Qalandar Khodjaevich

academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan, doctor of economic sciences, G.V. in

Tashkent. Rector of the branch of Plekhanoy Russian University of Economics

Sadullaev Azimboy Sadullaevich

academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan, doctor of physical and mathematical sciences,

professor

Vakhabov Abdurahim Vasikovieh

professor of the National University of Uzbekistan named after Mirzo Uugbek. doctor of economics

Murtazayeva Rakhbar Khamidovna

professor of the National Universi of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek, doctor of history

Pakinrutainov Shuketdin Iyasovich

Professor of the National Resear Insitute for professional development of pedagogues and

training in new methods named after A. Avloni, doctor of political sciences

Alimbekov Adhambek Kamolovich

professor of Tashkent State University of Oriental Studies, doctor of philology

Jabbarov Nurboy Abdulhakimovich

Professor of Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher

Navoi, doctor of philology

Saifnazarov Ismail Saifnazarovich

professor of Tashkent State University of Economics, doctor of philosophy

Muminov Kobiljan Kedirovich]

professor at the National University of Uzbekistan, doctor of physical and mathematical sciences

Anmadaliev Yusupjon Ismoltovich

director of the regional center for retraining and improving the qualifications of pedagogical

personnel at Fergana State University, doctor of geographical sciences, professor

Rakhmonov Rasul Ne'matovieh

Executive director, Webster University in Tashkent, PRD, docent

Mambetjanov Gahramon Qurbandurdievich

professor, doctor of economic sciences, National University of Uzbekistan.

Umarov Bakhrriddin Mengboevich

doctor of psychological sciences, professor of the Oriental University

Egamberdieva Yulduz Khamnroqul gizi

Assistant professor of the National University of Uzbekistan, PhD

Qakhkhorova Matluba Mannofovna

doctor of philosophy (D Se), profesor of the Iterationa Isamic Academy of Uzbekistan

Mustafaeva Nodiva Abdullayevna

professor, doctor of history sciences (DSc), head of the department of social sciences at the

academy of sciences of Uzbekistan

Khalmirzaev Akhmadjon Akhunovich

associate professor ofthe National Univesity of Uzbekistan named after Nirzo Uugbek

tanditate of geography,

Ismallov Azizbek Ruzimahmatovich

founder of ALFRAGANUS UNIVERSITY. PhD

Makhmudov Muhammadismol Mukhitinovieh

Rector of AL FRAGANUS UNIVERSITY, PhD, associate professor

BoboKhajayev Kudrat Umarovich

Doctor of philosophy (PhD), depute rector of ALFRAGANUS UNIVERSITY

Xamdamov Isakjan Mamasaliyevich

Doctor of physical-mathematical Sciences, professor, Public Security University of the Republic of

Uzbekistan

Islomov Bozor

Doctor of physical-mathematical Sciences, professor. National university of Uzbekistan

Gulyamov Shukhrat Manapovich

Tashkent State Technical University, Doctor of Technical Sciences, Professor

Abdullaev Obidjon Khayrullaevich

Head of the department of "Mathematics and physics" ALFRAGANUS UNIVERSITY, associate professor.

PhD

Saydaliyeva Feruza

PhD. Associate professor, Tashkent State Pedagogical University named after Nizami

Begimov Uktam Ibrogimovich

PhD. Alfraganus University. Head of the Department of Digital Technologies

Shukurov Yorkin Alijanovieh

teacher of the Interactional Islamic Academy of Uzbekistan

Rakhimjanov Masrur Nugmanovich

PhD, senior teacher at ALPRAGANUS UNIVERSITY

International Board of Editors:

Brot Merkan,

Professor, Doctor of Science, Faculty of Political Sciences, Department of Economic Theory,

State University named after Nainitein Erbokan (Republic of Turkey)

Altunina Varvara Viktorovna

Director of he Higher School of Business and Entrepreneurship, Immanuel Kant Batic Federal

University, Candidate of Sciences (Economics), Doctor of Sciences (Pedagogy), Professor,

(Russian Federation)

Aleva Inobat Akramovna

Deputy Head of Student Potential Development at the Institute of Management and Regional

Development. Immanuel Kant Bale Federal University, Candidate of Scenes (Economics), Associate

Professor (Russian Federation).

Rakhimshikova Maviuda Karimzhanovna

associate professor of South Kazakhstan University named after Mukhtar Avezov, candidate

of philosophy (Kazakhstan)

Ziankova Inga Viadimirovna.

Head of the Economics Department of the Euptyosyne Polotskaya State University of Poltsk.

Maxsus son tahrir hay'ati

<i>Asror Muhamedov,</i>	falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent, Alfraganus universiteti.
<i>Sevara Po'latova,</i>	tarix fanlari nomzodi, professor, Alfraganus universiteti.
<i>Saidbek Boltaboyev,</i>	filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Karabuk universiteti.
<i>Ulug'bek Yusupov,</i>	"O'zarxiv" agentligi direktori.
<i>Zilola Qosimova,</i>	siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), Alfraganus universiteti.
<i>Bahodir Musametov,</i>	falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Alfraganus universiteti.
<i>Fayzulloh Otaxonov,</i>	tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
<i>Jaloliddin Muhammad,</i>	san'atshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

Özel Sayı Yayın Kurulu

<i>Doç. Dr. Asror Muhamedov,</i>	Alfraganus Üniversitesi.
<i>Prof. Dr. Sevara Pölatova,</i>	Alfraganus Üniversitesi.
<i>Doç. Dr. Saidbek Boltaboyev,</i>	Karabuk Üniversitesi.
<i>Uluğbek Yusupov,</i>	"Özarşiv" Ajansı Başkanı.
<i>Dr. Zilola Qosimova,</i>	Alfraganus Üniversitesi.
<i>Dr. Bahodir Musametov,</i>	Alfraganus Üniversitesi.
<i>Dr. Fayzulloh Otakhonov.</i>	
<i>Dr. Jaloliddin Muhammad.</i>	

Editorial Board of the Special Issue

<i>Assoc. Prof. Asror Muhamedov,</i>	Alfraganus University.
<i>Prof. Sevara Polatova,</i>	Alfraganus University.
<i>Assoc. Prof. Saidbek Boltaboyev,</i>	Karabuk University.
<i>Ulugbek Yusupov,</i>	Head of the Agency "Uzarchive".
<i>Dr. Zilola Qosimova,</i>	Alfraganus University.
<i>Dr. Bahodir Musametov,</i>	Alfraganus University.
<i>Dr. Fayzulloh Otakhonov.</i>	
<i>Dr. Jaloliddin Muhammad.</i>	



MUNDARIJA

Soʻzboshi	6
<i>Sevara Akmalovna Poʻlatova, Jaloliddin Muhammad.</i>	
Oʻzbekistonning tarixshunosligida Turkiyadagi Oʻzbek takyalari (tekkellari) yoritilishi	10
Arxiv hujjatlari	32
<i>Hasan Demirtash.</i>	
Uskudardagi “Oʻzbeklar takyasi”ning taʼsis vaqfnomasi, uning diplomatik va mazmun tahlili	38
Arxiv hujjatlari	53
<i>Erkan Oʻvuch.</i>	
Arxiv hujjatlari asosida “Oʻzbeklar takyasi” shayxlari	56
<i>Serpil Oʻzjan.</i>	
Sayyohlar bekati: Sultontepa Oʻzbeklar takyasi	75
<i>Oʻmer Koʻchyigit.</i>	
Lutf ila maʼmur, nazzorasi masrur: “Sultontepa Oʻzbeklar takyasi”dagi peshtoq bitiklari	97
“Sultontepa Oʻzbeklar takyasi”dagi peshtoq bitiklari katalogi	111
<i>Sulaymon Erguner.</i>	
Oʻzbeklar takyasi va turk musiqasi	120
Arxiv hujjatlari	142
<i>Sulaymon Foruqxon Goʻnjugʻlu.</i>	
Istanbul oʻzbeklari	152
Arxiv hujjatlari	165
Qisqartmalar	169

İÇİNDEKİLER

Önsöz	8
<i>Sevara Akmalovna Pölatova, Jaloliddin Muhammad.</i>	
Özbekistan Tarihyazimında Türkiye'deki Özbek Tekkeleri	10
Arşiv belgeleri	32
<i>Hasan Demirtaş.</i>	
Üsküdar Özbekler Tekkesi Kuruluş Vakfiyesi Diplomatik ve İçerik Analizi	38
Arşiv belgeleri	53
<i>Erkan Övüç.</i>	
Arşiv Belgeleri Işığında Özbekler Tekkesi Şeyhleri	56
<i>Serpil Özcan.</i>	
Bir Seyyahlar Durağı: Sultantepe Özbekler Tekkesi	75
<i>Ömer Koçyiğit.</i>	
Lutfile Mâmur, Nezzâresi Mesrur: Kitabeleriyle Sultantepe Özbekler Tekkesi	97
Sultantepe Özbekler Tekkesi Kitabeler Kataloğu	111
<i>Süleyman Erguner.</i>	
Özbekler Tekkesi ve Türk Musikisi	120
Arşiv belgeleri	142
<i>Süleyman Faruk Han Göncüoğlu.</i>	
İstanbul'un Özbekleri.....	152
Arşiv belgeleri	165
Kisaltmalar	169

SO‘ZBOSHI

Alfraganus universiteti tomonidan 2023 yil 3–4 oktyabr kunlari o‘tkazilgan **“Bir makon – bir yo‘l: imkoniyatlar va muammolar”** xalqaro anjumani doirasida olimlar o‘rtasida Turkiyadagi o‘zbek takyalari faoliyatini o‘rganish bo‘yicha ilk maslahatlashuvlar bo‘lib o‘tdi. Tarix fanlari nomzodi, professor Sevara Po‘latova va Karabuk universiteti professori, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) Saidbek Boltabaevning takliflari universitet rahbariyati tomonidan qo‘llab-quvvatlanib, “Ijtimoiy fanlar” fakulteti dekani, falsafa fanlari doktori (DSc) Asror Muhamedov boshchiligidagi ilmiy guruh shakllantirildi.

O‘zbek takyalari ikki yurt o‘rtasidagi aloqalarda, Turkiyada O‘zbeklar jamoati – diasporasi shakllanishida tarixiy o‘rni katta bo‘lganligi jihatidan hozirgi turkiy tilli mamlakatlarning rivojlangan munosabatlari sharoitida bu muassasalar tarixini alohida o‘rganilishi ahamiyatga ega. Zero, jadid Abdulla Qodiriy aytganidek, *“Moziyga qaytub ish ko‘rish xayrlikdir”*.

Shu maqsadda professor S.Po‘latova 2024 yilning may oyida Turkiyada ilmiy safarda bo‘lib, Uskudarda joylashgan Sultontepa takyasida hamda u yerdagi Istanbul Tadqiqot va Ta’lim Vaqfining (ISAR) Ixtisos markazi faoliyati bilan tanishdi. Shuningdek, ushbu safar davomida tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) Fayzullaxon Otaxonov hamrohlik qilib, kutubxonada adabiyotlarni o‘rganishda yaqindan yordam berdi.

Safar davomida ISAR Ixtisos markazi tomonidan Turkiyada O‘zbeklar takyalari bo‘yicha amalga oshirilgan so‘nggi tadqiqotlardan bo‘lmish “Sultantepe Özbekler Tekkesi”. Osmanlı’dan Cumhuriyet’e Bir Müessesenin Tarihi” (“Sultontepa O‘zbeklar takyasi. Usmonlilardan Respublikagacha bir muassasaning tarixi”) kitobi (Istanbul, muharrirlar Usman Sajid Ari, Melih Sadiq Kuchuker) taqdim etildi.

Kitob bilan tanishgandan keyin mashhur Sultontepa takyasi misolida ushbu turdagi muassasalar shakllanishi va faoliyatini ko‘rib chiqish imkonini berishi bilan nashr ahamiyatli ekanligi ayon bo‘ldi. Zero, nashr bevosita hozir ham ushbu takyada yashovchi shayx avlodlarining va takya bilan bog‘liq boshqa namoyondalarning shaxsiy arxivlarida saqlanayotgan daftarlar va hujjatlarga tayangani bilan e’tiborlidir. Shu maqsadda S.Boltaboev tomonidan kitob tarjimai amalga oshirildi. O‘z o‘rnida ilmiy guruh ISAR Ixtisos markaziga mushtarak tariximizni asrashdagi xizmatlari va tarjimaga rozilik bildirgani uchun minnatdorlik bildiradi.

Alfraganus universitetining xalqaro ilmiy jurnali – “Alfraganus”ni ushbu soni bevosita Turkiyadagi takyalar tarixiga bag‘ishlangan bo‘lib, unda “Sultontepa O‘zbeklar takyasi” kitobidan, O‘zbekistonning tarixshunosligida mavzu o‘rganilishi bo‘yicha va turk olimlari tomonidan jurnal uchun maxsus yozilgan maqolalar, 2022-yili Istanbulda “O‘zarxiv” agentligi Turkiya Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat arxivlari Bosh boshqarmasi bilan hamkorlikda nashr qilgan *“O‘zbekiston–Turkiya*

aloqalari hujjatlarda” kitobida keltirilgan takyalar faoliyati bilan bog‘liq hujjatlardan namunalar va ularning tavsifi o‘rin olgan. Bu boradagi hamkorlik uchun “O‘zarxiv” agentligi direktori Ulug‘bek Yusupovga minnatdorlik izhor etamiz.

Ilmiy guruh bu boshlanayotgan tashabbus ham O‘zbekiston, ham Turkiya olimlari tomonidan qo‘llab-quvvatlanadi, degan umid ila hamkorlikka tayyor ekanligini ma‘lum qiladi. Zero, mushtarak tariximiz tutashgan O‘zbeklar takyalari haqida tadqiqotlar davom etadi.

Tahrir hay’ati

ÖNSÖZ

3-4 Ekim 2023 tarihlerinde Alfraganus Üniversitesi ev sahipliğinde düzenlenen “**Bir Yol Bir Kuşak; Göç, Turizm ve Ekonomi Politik**” başlıklı uluslararası sempozyum kapsamında Özbek tekkelerinin Türkiye’deki faaliyetlerinin incelenmesi konusunda bilim insanları arasında ilk istişareler gerçekleştirildi. Alfraganus Üniversitesi Öğretim Üyesi Prof. Dr. Sevara Pulatova ve Karabük Üniversitesi Öğretim Üyesi Doç. Dr. Saidbek Boltabayev’in önerileri üniversite yönetimi tarafından desteklendi ve Sosyal Bilimler Fakültesi Dekanı Doç. Dr. Asror Muhamedov başkanlığında bir araştırma ekibi oluşturuldu.

Özbek tekkelerinin iki ülke arasındaki ilişkilerde ve Türkiye’de Özbek diasporasının oluşumunda oynadığı önemli tarihi rol göz önüne alındığında, Türk dili konuşan ülkeler arasında günümüzde gelişen ilişkiler bağlamında bu kurumların tarihinin derinlemesine incelenmesi önem taşımaktadır. Zira Ceditçi aydınımız Abdulla Kâdirî’nin de dediği gibi, “*Geçmişe dönüp iş görmek hayırlıdır.*”

Bu amaçla, Profesör Sevara Pulatova, Mayıs 2024’te Türkiye’de bilimsel araştırmalarda bulundu ve Üsküdar ilçesinin Sultantepe mahallesindeki İstanbul Araştırma ve Eğitim Merkezi (İSAR) İhtisas Merkezi’nin faaliyetleri hakkında bilgi edindi. Ayrıca bu seyahat sırasında Dr. Fayzullakhon Otakhonov da hocamıza eşlik etti ve kütüphanedeki eserleri inceleme konusunda yakından yardımcı oldu.

Araştırma gezisi sırasında İSAR İhtisas Merkezi tarafından Türkiye’deki Özbek Tekkeleri konusunda yapılan son çalışmalardan biri olan “Sultantepe Özbekler Tekkesi: Osmanlı’dan Cumhuriyet’e Bir Müessesenin Tarihi” (İstanbul, editörler: Osman Sacid Arı, Melih Sâdık Küçükler) adlı kitap takdim edildi.

Kitap incelendikten sonra, bu tür kurumların oluşum ve faaliyetlerinin meşhur Sultantepe Tekkesi örneği üzerinden araştırılmasına imkân vermesi bakımından eserin önemli olduğu anlaşılmıştır. Eserin, tekkede yaşayan şeyhin torunları ile tekkeyle ilişkisi olan diğer şahısların özel arşivlerinde saklanan defter ve belgelere dayanması dikkati çekmektedir. Bu amaçla kitabın çevirisi Saidbek Boltaboyev tarafından yapılmıştır. Araştırma ekibi, ortak tarihimizin korunması konusunda yaptığı hizmetlerden ve çeviriyi kabul etmesinden dolayı İSAR İhtisas Merkezi’ne şükranlarını sunar.

Alfraganus Üniversitesi’nin uluslararası akademik dergisi “Alfraganus”’un bu sayısı özel olarak Türkiye’deki tekkelerin tarihine adanmış olup, “Sultantepe Özbekler Tekkesi” kitabından, Özbekistan tarih yazımında konunun incelenmesine ilişkin yazılar, Türk bilim insanları tarafından dergi için özel olarak yazılmış makaleler içermektedir. Ayrıca derginin bu özel sayısında 2022’de İstanbul’da yayımlanan Türkiye Cumhurbaşkanlığı Devlet Arşivleri Başkanlığı ile “Özarşiv” Ajansı işbirliği içinde yayımlanan *Belgelerle Türkiye-Özbekistan İlişkileri* kitabındaki Türkiye’deki tekkelerin faaliyetlerine ilişkin belge örnekleri ve bunların açıklamaları da yer

almaktadır. Bu konuda gösterdiği işbirliğinden dolayı “Özarşiv” Ajansı Başkanı Uluğbek Yusupov’a içten şükranlarımızı sunmak isteriz.

Araştırma ekibi, bu yeni girişimin hem Özbekistan hem de Türkiye’den bilim insanları tarafından desteklenmesi umuduyla işbirliğine hazır olduklarını ifade etmek ister. Çünkü ortak tarihimizi paylaştığımız Özbek tekkeleri üzerine araştırmalarımız devam edecektir.

Yayın Kurulu

O‘ZBEKISTON TARIXSHUNOSLIGIDA TURKIYADAGI O‘ZBEK TAKYALARI (TEKKELARI) YORITILISHI

Sevara Akmalovna Po‘latova,

tarix fanlari nomzodi,

Alfraganus universiteti,

ORCID: 0009-0000-4816-1696,

E-mail: sevaraakmalovna@mail.ru;

Jaloliddin Muhammad,

san’atshunoslik fanlari bo’yicha

falsafa doktori (PhD),

E-mail: mirzokozimxon@gmail.com

ANNOTATSIYA: Maqolada O‘zbekistonda Turkiyadagi O‘zbeklar takyalari – tekkelari asosan haj yo‘lidagi vaqtincha yashash joyi sifatida qargani, uning sotsiomadaniy institut sifatidagi faoliyati ko‘pincha chetda qolgani qayd etiladi. Bu O‘zbek tilida to‘laonli tadqiqotlar hali mavjud emasligi bilan ham izohlanadi. Hatto mavzu yangiligidan maqolalarda “takya” atamasi turlicha qo‘llanilayotganligi ta’kidlanib, bu haqda alohida fikr bildirilgan.

Umuman, Turkiyadagi O‘zbeklar takyalariga oid ma’lumotlar haj ziyorati, tasavvuf, sharq me’morligi, taniqli shaxsiyatlar faoliyatiga oid tadqiqotlar va maqolalarda o‘rin olganligi, shuningdek, aynan bu mavzudagi ilmiy ishlar asosan turk va g‘arb olimlarining tadqiqotlariga tayanib qolayotgani kuzatildi. Ko‘p hollarda mavzu ma’lumot va mualliflarning bevosita safar taassuroti tarzida yoritilayotganligi ham namoyon bo‘ldi. Albatta, ba’zi tadqiqotlarda birlamchi manbalar – arxiv hujjatlari e’lon qilingan to‘plamlardagi ma’lumotlardan birmuncha foydalanish borligini ham qayd etish kerak. Bu borada 2022 yili “Turkiya – O‘zbekiston aloqalari hujjatlarda” kitobi chop etilishi belgili voqea bo‘ldi.

Turkiy tilli mamlakatlarning munosabatlari rivojlanayotgan hozirgi sharoitda Turkiyadagi O‘zbeklar takyalari bo’yicha chiqishlar birmuncha jonlanganligi olimlarning O‘zida ham bu mavzuga qiziqish ortib borayotganligini namoyon etadi. Bu borada O‘zbekistonlik olimlar tomonidan Turkiyadagi arxivlar hamda O‘zbeklar takyalari shayxlarini va ular bilan bog‘liq shaxslar avlodlarida saqlanayotgan hujjatlarni, takyalar bilan hayoti to‘liq yoki qisman bog‘liq bo‘lgan insonlarning xotiralarini o‘rganish zarur. Qolaversa, boshqa o‘lkalardagi O‘zbeklar takyalari Usmonli turk davlati orqali boshqarilganligini ham nazarda tutmoq o‘rinli. Bu jihatdan o‘rta asrlarda O‘zbeklar takyalari tarmog‘i yuzaga kelgani hamda ular musulmon o‘lkalarida O‘zbek jamoatlari qaror topishida muhim o‘rin egallaganligini ta’kidlash zarur.

KALIT SO‘ZLAR: O‘zbeklar takyasi, Naqshbandiya tariqati, Turkiya, haj, tarixshunoslik.

ÖZBEKİSTAN TARİHYAZIMINDA TÜRKİYE’DEKİ ÖZBEK TEKKELERİ

Prof. Dr. Sevara Akmalovna Pölatova

Alfraganus Üniversitesi;

Dr. Jaloliddin Muhammad.

ÖZET: Makalede Özbekistan’da yapılan araştırmalarda Türkiye’deki Özbek tekkelerinin çoğunlukla hac güzergahı üzerinde geçici konaklama yerleri olarak değerlendirilmesinin ve sosyo-kültürel bir kurum olarak işlevlerinin çoğu zaman göz ardı edilmesinin nedenleri araştırılacaktır. Bu durum, Özbekçede henüz tam teşekküllü bir çalışmanın olmamasıyla da açıklanabilir. Konu yeni olması sebebiyle makalelerde “tekke” kelimesinin farklı kullanıldığına dikkat çekilmiş ve bu konuda ayrı bir görüş ortaya atılmıştır.

Türkiye’deki Özbek tekkelerine ilişkin bilgilerin ağırlıklı olarak hac, tasavvuf, İslam mimarisi ve ünlü şahsiyetlerin faaliyetleri üzerine yapılan çalışmalarda yer aldığı, bu konudaki bilimsel araştırmaların ise ağırlıklı olarak Türk ve Batılı bilim insanlarının araştırmalarına dayandığı kaydedilmiştir. Ayrıca konunun çoğunlukla bilgi ve yazarların doğrudan seyahat izlenimleri şeklinde ele alındığı da görülmektedir. Elbette bazı çalışmalarda birincil kaynaklardan, yani yayınlanmış arşiv belgelerinden alınan verilerden yararlanıldığı da belirtilmelidir. Bu bağlamda 2022 yılında *Belgelerle Türkiye-Özbekistan İlişkileri* kitabının yayınlanması önemli bir gelişme olmuştur.

Türkçe konuşan ülkeler arasındaki ilişkilerin geliştiği günümüzde, Türkiye’deki Özbek tekkeleri üzerine araştırmaların yeniden canlanması, bilim insanlarının da bu konuya ilgi duyduğunu göstermektedir. Bu bağlamda Özbek bilim adamlarının Türkiye arşivlerini, ayrıca Özbek tekkelerinin şeyhlerinin torunlarının ve yakınlarının belgelerini, hayatları kısmen veya tamamen tekkeyle bağlantılı olan kişilerin anılarını incelemeleri gerekmektedir. Ayrıca diğer ülkelerdeki Özbek tekkelerinin Osmanlı Devleti’nin denetimi altında olduğu da belirtilmelidir. Böylelikle Ortaçağ’da ortaya çıkan Özbek tekkeleri ağı, Özbek topluluklarının Müslüman ülkelere yerleştirilmesinde önemli rol oynamıştır.

ANAHTAR KELİMELE: Özbekler Tekkesi, Nakşibendîye tarikati, Türkiye, Hac, Tarihyazımı.

IN THE HISTORIOGRAPHY OF UZBEKISTAN, THE COVERAGE OF UZBEK TEKES (LODGES) IN TURKEY

Sevara Akmalovna Pulatova

Doctor of Philosophy (PhD) in
Historical Sciences, Professor,
The Alfraganus University;

Jaloliddin Muhammad,

Doctor of Philosophy (PhD)
in Art Sciences.

ABSTRACT: The article notes that in Uzbekistan, Uzbek takyas - tekkes in Turkey are mainly considered as temporary residences on the pilgrimage route, and their function as a socio-cultural institution is often overlooked. This is also explained by the fact that there are still no full-fledged studies in the Uzbek language. Despite the novelty of the topic, it was noted that the term "takyas" is used differently in the articles, and a separate opinion was expressed on this matter.

In general, it was noted that information about Uzbek takyas in Turkey is included in studies and articles devoted to pilgrimage, Sufism, oriental architecture, the activities of famous personalities, and that scientific works on this topic are mainly based on the research of Turkish and Western scholars. In many cases, it was also obvious that the topic was revealed in the form of information and direct impressions of the authors from travels. Of course, it should also be noted that some studies use primary sources – data from published collections of archival documents. In this regard, the publication of the book "Turkish-Uzbek Relations in Documents" in 2022 was a significant event.

The fact that in the current conditions of development of relations between Turkic-speaking countries, discussions about Uzbek takyas in Turkey have somewhat revived, testifies to the growing interest in this topic among the scholars themselves. In this regard, Uzbek scholars need to study the archives of Turkey, documents preserved in the generations of Uzbek takya sheikhs and persons associated with them, as well as the memoirs of people whose lives are fully or partially connected with takya. In addition, it is reasonable to assume that Uzbek takyas in other countries were managed through the Ottoman Turkish state. In this regard, it is important to note that the network of Uzbek takyas arose in the Middle Ages and played an important role in the settlement of Uzbek communities in Muslim countries.

KEY WORDS: Uzbeks Takya (The Uzbeks Lodge), Naqshbandi order, Turkey, Hajj, Historiography.

Kirish

O'zbekistonda Turkiyadagi O'zbek takyalari – tekkellarini o'rganish bo'yicha hali to'laqonli tadqiqot amalga oshirilmagan. Albatta, o'rta Osiyo tarixidagi hajnomalar, safarnomalarda takyalar haqida ma'lumotlar bor. Ammo, ularda asosan takyalar haj safari davomidagi vaqtincha yashash joylaridan biri sifatida qayd etiladi.

Aynan takyalar joylashgan shahar yoki mamlakatning sotsiomadaniy hayotiga ta'siri haqida ma'lumotlar berilgan bo'lsa-da, uning aynan institut sifatida ko'p qirrali faoliyatini ko'rib chiqish ahamiyatlidir. Shu ma'noda O'zbekistonda amalga oshirilgan tadqiqotlarda Turkiyadagi O'zbek takyalari qay darajada yoritilishini o'rganish dolzarblik kasb etadi. Albatta, bu turkiy tilli mamlakatlarning munosabatlari rivojlanayotgan hozirgi sharoitida tadqiqotning istiqboldagi yo'nalishlarini belgilab olishga ham imkon beradi.

Tadqiqotlar va maqolalar

O'zbekistonda takyalar, xonaqohlar bo'yicha tadqiqotlar tarix bilan birga adabiyot, falsafa, san'atshunoslik fanlarida ham olib boriladi. Qolaversa, XX asrning 80-yillari oxiri va 90-yillari boshida O'zbekiston hayotida sodir bo'lgan O'zgarishlar e'tiqod masalalarini ham qamrab olib, islom dini qadriyatlari tiklanishiga ta'sir o'tkazdi. Jumladan, O'zbekiston hududida yashagan muhaddislar, allomalar, shayxlarning merosiga bo'lgan qiziqish ortib bordi. Tasavvufga oid tadqiqotlar e'lon qilinib, ko'plab adabiyotlar nashr qilindi.

Tarixchi olim Elyor Karimovning "XII–XV asrlarda Markaziy Osiyoda so'fiylik tariqatlari" mavzusidagi, faylasuf olim Rustam Shodievning "o'rta Osiyo xalqi hayotida so'fiylik" mavzusidagi doktorlik dissertatsiyalarini alohida qayd etish kerak¹. Xususan, R.Shodiev dissertatsiyasida o'rta Osiyodan Kichik Osiyoga, jumladan, turk zaminiga so'fiy jamoatlarining ko'chishiga mo'g'ullar istilosi sabab bo'lgani ko'rsatib o'tilgan². Garchi, asli Urganchdan bo'lgan va keyinroq Balxda yashagan shayx Bahouddin Valad mo'g'ullar bosqinidan bir muddat oldin oilasi hamda muridlari bilan Haj ziyoratiga yo'l olgan bo'lsa-da, uning bunday qaror qabul qilishida Muhammad Xorazmshoh tazyiqlaridan bezor bo'lish qatorida muqarrar urushning ham ta'siri borligini anglash qiyin emas³. Shayx Najmiddin Kubro muridlaridan Bahouddin Valad Jaloliddin Rumiyning otasi bo'lib, "Sulton ul-ulamo" unvoniga musharraf edi. Bahouddin Valad Qo'niyoda vafot etganidan keyin termizlik muridlaridan biri Sayyid Husayn Burhoniddin Muhaqqiq ham Qo'niyoga keladi va Jaloliddin Rumiya ustozlik qiladi⁴.

¹ Каримов Э.Э. Суфийские тарикаты в Центральной Азии XII – XV вв. Диссертация на соискание ученой степени доктора исторических наук. – Ташкент, 1998. – 288 с.; Шадиев Р. Т. Суфизм в народной жизни Средней Азии (IX – XIII вв.). Диссертация на соискание ученой степени доктора философских наук. – Самарканд, 1993. – 259 с.

² Шадиев Р. Т. Суфизм в народной жизни Средней Азии (IX – XIII вв.). Диссертация на соискание ученой степени доктора философских наук. – Самарканд, 1993. – С. 213–214.

³ Чўлиева В. Э. Баҳоуддин Валаднинг ҳаёти, фалсафий таълимоти ва илмий мероси // Имом Бухорий сабоқлари. – Самарканд, 2021. – 3-сон. – Б. 16–17.

⁴ Турсунов Ш. Бурхониддин Мухаккиқ Термизий ҳаёти ва фалсафий мероси (тарихий ва адабий манбалар асосида) // Academic Research in Educational Sciences. – 2024. – Volume 5. Issue 1. – Б. 81–89.

Jaloliddin Rumi va mavlaviylikka oid bu dalillar misolida XIII asrda o'rta Osiyodan borgan shayxlar zamonaviy Turkiya hududida O'z jamoatlari bilan mamlakatning sotsiomadaniy hayotiga ta'sir o'tkazganidan darak beradi.

Zumrad Rahmonqulovning tadqiqoti XVI–XX asr boshlarida o'rta Osiyo va Usmonli davlatlari o'rtasidagi ijtimoiy-siyosiy va madaniy munosabatlariga bag'ishlangan bo'lib, unda Usmonlilarning o'rta Osiyo xonliklari bilan aloqalarida chor Rossiyasining ta'siri masalalari ham qamrab olingan. Ushbu nomzodlik dissertatsiyasida madaniy-ma'rifiy aloqalar yoritilgan, haj safarlariga oid ma'lumotlar keltirilgan. Shu bilan birga tadqiqotda takyalar alohida ko'rib chiqilmaganligini qayd etish kerak¹.

Shuningdek, O'zbekistonda turkiyalik ulamolarni, tasavvufshunoslarni ham asarlari tarjima qilindi. Ular orasida keyinchalik filologiya fanlari doktori ilmiy darajasini olgan Nodirxon Hasan tarjimasida 1999 yili chop etilgan Turar Usmonning "Tasavvuf tarixi", Sayfuddin Sayfulloh tarjimasida 2000 yili nashr qilingan ajdodlari asli Buxoro sayyidlaridan bo'lgan shayx Mahmud As'ad Jo'shonning "Islom, Tasavvuf va Axloq" asarlari bor².

N.Hasan turk yassaviyshunoslari bilan o'tkazgan suhbatlarini ham jamlab, 1999 yili "Turkiyada yassaviyshunoslik" nomi bilan chop etgan³. Kitobda taqdim etilgan savollarga o'sha vaqtda Marmara universitetida professor bo'lgan Hasan Komil Yilmaz javob berar ekan, *"tariqatlarda maqsad: bir model, o'rnak shaxsning atrofida insonlarning to'planib, uning ma'naviy shaxsiyati orqali tarbiyalanmog'idir"* – deb ta'kidlaydi. Keyin u buning ahamiyatiga ham to'xtaladi:

*"Madrasa maktablarimiz ziyolilarimizga ilmiy ta'limot bersa, tariqat va xonaqohlarimiz ularning ma'naviy komilligi va ijtimoiy hayotdagi bilim, tajriba kamolotini ta'minlagandir"*⁴.

Turar Usmon "Tasavvuf tarixi" asarida har bir tariqatni Turkiya jamiyatidagi o'rni haqida ma'lumot bergan. U kitobda Usmonlilar davlatiga Naqshbandiylikning kirib kelishi va *"eng faol harakatga aylan"* ishi bo'yicha muhim dalillarni keltiradi:

"Fotih Sulton Muhammadxon davrida Xoja Ubaydulloh Ahrorning xalifasi Mulla Ilohiy vositasida Istanbulga ham yetib bordi. XVIII asrda Mavlono Xolid Bag'dodiyning g'ayrati bilan usmonli davlatida keng tarqalib, eng faol harakatga aylandi. Hatto usmonli podshohlaridan Sulton Vahdiddinning ham xolidiya tariqatiga mansub bo'lganligi rivoyat qilinadi. Istanbulning O'zidayoq 65 ta naqshbandiya dargohlarining mavjudligi, bu tariqatning Istanbul va Onado'li zaminida qay darajada keng tarqalganini ko'rsatmoqda. XIX asrda

¹ Раҳмонқулова З.Б. XVI – XX аср бошларида Ўрта Осиё ва Усмонийлар давлатлари ўртасидаги ижтимоий-сиёсий ва маданий муносабатлар тарихи. Тарих фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация. – Тошкент, 2002.

² Турар Усмон. Тасаввуф тарихи. – Тошкент: Истиқлол, 1999. – 180 б.; Махмуд Асад Жўшон. Ислом, Тасаввуф ва Ахлоқ / тарж. ва сўнг сўз муаллифи Хожа Сайфуддин Сайфуллох. – Тошкент: Истиқлол, 2000.

³ Туркияда яссавийшунослик: Кул Хожа Аҳмад Яссавийнинг ҳаёти, ижоди ва тариқати мавзусида турк яссавийшуносликлари билан ўтказилган суҳбатлар тўплами. Суҳбат қилувчи ва нашрга тайёрловчи Нодирхон Ҳасан. – Тошкент: Истиқлол, 1999. – 56 б.

⁴ Туркияда яссавийшунослик. – Тошкент: Истиқлол, 1999. – Б. 21.

*Naqshbandiyaning Onado'lida yana ham keng tarqalishiga mashhur olim va mutasavvif Ahmad Ziyovuddin Kumushxonaviy (1893 m.y. v.e.) ulkan hissa qo'shdi"*¹.

Tarixchi olim Gulzona Tanieva Algar Ahmad tadqiqotiga tayangan holda mulla Ilohiy, ya'ni mulla Abdulloh Ilohiydan (vafoti 1490 yil) tashqari Xoja Ahrorning yana bir muridi shayx Amir Ahmad Buxoriy (vafoti 1516 yil) ham Istanbulga kelganligi hamda aynan u Turkiyada Naqshbandiya tariqatining takyalari yuzaga kelishiga hissa qo'shganligini qayd etadi².

Shuningdek, tarixchi yana Algar Ahmad tadqiqotiga murojaat qilib, Istanbuldagi Buxoriy takyasi shayxi Makkada qolganligi bo'yicha ma'lumotlarni keltiradi:

*"Istanbuldagi Buxoriy takkasi postnishin³ shayx Abdulatif 1531 yilda Makka ziyoratiga borib, u yerda ziyoratchilar orasida naqshbandiylik g'oyalarini tarqatish maqsadida shu yerda mujovir⁴ sifatida qoladi. Uning muridi Abdurahmon g'uboriy ham 1537 yilda hajga borib, Makkada to'qqiz yil mujovir sifatida muqim yashagan va 1562 yilda Sulton Sulaymon Qonuni tomonidan Makkada unga atab bunyod etilgan naqshbandiylik takkasiga postnishin etib tayinlangan"*⁵.

Filologiya fanlari doktori, professor Hamidulla Boltaboevning "Fitrat va Jadidchilik" to'plamidan o'rin olgan "Fitratning Istanbul davrini tavsiflovchi manbalar" maqolasida "Fitrat va uning maslakdoshlari dastlab O'zbeklar tekkesiga qo'ngani" haqidagi dalilni keltirib, bu takya noma'lumligini qayd etadi. Shu ma'noda olim Turkiyaga qilgan safari davomida bu – Sultontepadagi O'zbeklar takyasi ekanligini aniqlashga muvaffaq bo'ldi. Shu munosabat bilan H.Boltaboev "Sultontepadagi O'zbeklar tekkesi"ning barpo etilishi, nega aynan bu joy Sultontepa deb nomlanishi, ayni shu yerda Fitrat Turkiya Respublikasi davlat madhiyasining muallifi Mehmed Akif bilan tanishganlik ehtimoli yuqoriligi yuzasidan ma'lumotlarni beradi⁶.

2010 yili "XV–XVII asrlar Movarounnahr san'atida so'fiylik an'analari (Me'morlik, miniatyura, musiqa)" monografiyasi nashr qilindi⁷. Unda me'morlik doktori, professor Mavluda Yusupovaning xonaqohlarni shakllanishi va tuzilishidan kelib chiqqan holda davrlashtirib tavsiflagan tadqiqoti, san'atshunoslik nomzodi, professor Zuhra Rahimovaning miniatyura bilan birgalikda so'fiylar liboslariga ham to'xtalgan ishi, san'atshunoslik doktori, professor Oqilxon Ibrohimovning maqomlarni sayyoralar, koinot bilan bog'liqligi haqidagi tadqiqoti o'rin olgan. 2020 yili himoya qilingan Ilhom Mahmatqulovning arxitektura bo'yicha falsafa doktori (PhD)

¹ Турар Усмон. Тасаввуф тарихи. – Тошкент: Истиқлол, 1999. – Б. 108.

² Таниева Г. XVI – XIX аср биринчи ярмида Ўрта Осиё халқларининг ҳаж зиёрати тарихи. – Тошкент, 2021. – Б. 254.

³ *po'stnishin* – bir tariqat takyasining shayxi bo'lgan shaxs.

⁴ *mujovir* – Haramda muqim yashovchi, qo'shni.

⁵ Таниева Г. XVI – XIX аср биринчи ярмида Ўрта Осиё халқларининг ҳаж зиёрати тарихи. – Тошкент, 2021. – Б. 256.

⁶ Болтабоев Х. Фитрат ва Жадидчилик. Илмий-тадқиқий мақолалар. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2007. – Б. 20–25.

⁷ Юсупова М., Рахимова З., Ибрагимов О. Суфийские традиции в искусстве Мавераннахр XV–XVII вв. (Архитектура, миниатюра, музыка). – Ташкент: издательство журнала "San'at", 2010. – 208 с.

dissertasiyasi M.Yusupova va L.Mankovskayaning¹ tadqiqotlariga ham tayanganligini qayd etish kerak².

Sotsiologiya fanlari nomzodi Xatira Kamalova Turkiyada chop etilgan “Orta Asya'dan Istanbul'a Tarihi ve Kültürel Bir Mekan: Özbekler Tekkesi” maqolasida turkiyalik olimlarning tadqiqotlari asosida o'rta Osiyo va Turkiyaning ma'naviy hayotida O'zbeklar takyasini tarixiy-madaniy makon sifatidagi ahamiyati (ilm olishni kengaytirish va hunarmandlikni rivojlantirish), Turkiya Milliy Ozodlik kurashidagi o'rnini bayon etgan³.

Tarix fanlari doktori, professor Shamsiddin Kamoliddinning “Istanbuldagi O'zbek tekkelari” maqolasi Istanbuldagi uchta dargoh – Sultontepa, Sulton Ahmet maydonidagi Buxoro, Ayyub tekkelari haqida boshqa ishlarga nisbatan batafsil ma'lumot berilganligi bilan e'tiborlidir. Shuningdek, olim bu ma'lumotlarni turk va Yevropa ilmiy adabiyotlaridan olganligini qayd etib, mavzu O'zbekistonda deyarli o'rganilmaganligini ta'kidlaydi va mavzu bo'yicha adabiyotlar ro'yxatini to'liq beradi⁴. Sh.Kamoliddin Quddusdagi “al-O'zbekiyya xonaqohi” haqida ham maqola e'lon qilgan⁵.

Tarixchi Sh.Mustafaev maqolasida “Bahr al-ulum” nomi bilan mashhur bo'lgan 4 jildlik Qur'on tafsirining muallifi, shayx Sayid Ala ad-Din Ali ibn Yahyo as-Samarqandiy (vafoti taxminan 1455/1456 y.) hamda bu shayx Turkiyadagi Zayni shaharchasida dafn etilganidan keyin uning maqbarasi yonida zoviya qaror topgani haqida ma'lumot beriladi. Yana shayxni Zaynalobiddin ismli o'g'lining avlodi “Zayn o'g'illari” deb nom qozongani va ular shu hududning O'zida ko'plab masjidlar, madrasalarni bunyod qilganliklari qayd etiladi⁶.

Shodmon Hayitov, Kamol Rahmonov, Olimjon Ahmadovning “Buxoro va buxoriylarning jahoniy shuhrati” monografiyasida “Buxoro Naqshbandiya shayxlarining Turkiyadagi O'zbek (takya) tekkelari tarixidan”, “Buxoro (Turkiston) tekkelari tarixi haqidagi kitob” degan maqolalar o'rin olgan⁷.

¹ Маньковская Л.Ю. Типологические основы зодчества Средней Азии (IX – начало XX в.) – Ташкент: Фан, 1980. – 184 с.

² Махматкулов И. Т. Ўзбекистоннинг ўтмишдаги тасаввуф масканлари – хонақоҳлар архитектурасини ўрганиш ва улардан самарали фойдаланиш асосларини ишлаб чиқиш. архитектура бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2020. – 50 б.

³ Kamalova H. Orta Asya'dan Istanbul'a Tarihi ve Kültürel Bir Mekan: Özbekler Tekkesi / 7. Uluslararası Türk Kültürü kongresi: Türk ve dünya kültüründe Istanbul= 7th International Turkish Culture Congress: In Turkish and world culture Istanbul: Bildiriler/yayına hazırlayan: Sııan Gür, Şebnem Ereebeci Çmar. - Ankara: Atatürk Kültür Merkezi, 2011. – S. 171–188.

⁴ Камолиддин Ш. С. Истанбулдаги Ўзбек теккелари // Хорижий шарқ мамлакатлари тарихий жараёнлари ва уларни ўрганишнинг долзарб муаммолари. Илмий-амалий конференция материаллари тўплами. – Тошкент, 2017. – Б. 28–36.; Камолиддин Ш. С. Истанбулдаги Ўзбек теккелари // Хорижий шарқ мамлакатларидаги тарихий жараёнлар ва уларни ўрганишнинг долзарб муаммолари. Республика миқёсидаги илмий-амалий конференция материаллари тўплами. – Тошкент, 2024. – Б. 54–64.; Камолиддин Ш.С. Истанбулдаги Ўзбек такиялари. – <https://telegra.ph/Istanbuldagi-%D1%9Ezbek-takiyalari-11-11>. Maqola joylashtirilgan sana: 11.11.2020.

⁵ Камолиддин Ш.С. Ал-Қуддусдаги ал-Ўзбекиёйа хонақоҳи / Обитель ал-Узбекиёйа в Иерусалиме / Cloister of Uzbek Sufies in Jerusalem // *Moziydan sado*. – Тошкент, 2013. – 4 (60)-сон. – Б. 29–34.

⁶ Мустафаев Ш. Шейх Али Самаркандий – проводник духовно-культурного трансфера между Мавераннахром и Анатолией (по данным Османских источников) // О'zbekiston tarixi. – Тошкент, 2018. – 2-сон. – Б. 83.

⁷ Хайитов Ш., Раҳмонов К., Аҳмадов А. Бухоро ва Бухорийларнинг жаҳоний шухрати. – Тошкент: Наврўз, 2020. – Б. 30–39.

Monografiyada keltirilgan 1898 yilda turk sultoni yorlig'i va "mo'yi muborak" Madali eshon – Dukchi eshonga aslida turk sultoni emas, takya shayxi Ziyovuddin Muhammad (Qoshg'ariy) tomonidan yuborilgani, takyada Buxoro Xalq Sovet Respublikasi hukumati rahbarlaridan Usmonxo'ja Po'latxo'jaevning qabri borligi, 1925 yilda barcha takyalar faoliyati ta'qiqlanganida, milliy ozodlik harakatidagi xizmatlari nazarda tutilib, Uskudardagi takyaning faoliyatini davom ettirish bo'yicha alohida farmon qabul qilinganligi, hozirgi Turkiya Respublikasida Naqshbandiya tariqatiga ixlosmandlar va vakillari 8–10 million kishi, ba'zi ma'lumotlarga ko'ra undan ko'proq bo'lib, aholining 19 foizini tashkil etishi bo'yicha ma'lumotlar e'tiborlidir.

Shuningdek, monografiyada Sulaymon Afandi (1821–1883) haqida ham o'qish mumkin:

“Buxoro amirligi bilan Usmoniylar saltanati o'rtasidagi munosabatlarni yo'lga qo'yish uchun usmoniy podshoh tekke shayxlaridan biri Sulaymon Afandini (1821–1883) o'rta Osiyoga yuborgan. Sulaymon Afandi asli Buxoro amirligining Qorako'l tumanidagi Qunduz qishlog'idan bo'lib, 1846 yilda Amir Nasrulloxon (1826–1860) tomonidan turk sultoniga elchi qilib yuborilgandi. U turk sultoni ishonchiga kirib, Istanbulda yashab qolgan, naqshbandiylik ta'limotini targ'ib qilgan. Hatto usmoniy hukmdorining Hindiston, Afg'oniston, Qoshg'ardagi vakili ham bo'lgan”¹.

Monografiyada 2017 yilda Istanbulda chop etilgan “Istanbuldagi Turkiston tekkeleri. Ota yurt va ona yurt o'rtasidagi ma'naviy ko'priklar” kitobi² haqida alohida ma'lumot berilar ekan, Turkiya zaminiga XI asrdanoq yassaviya ta'limotini yoyish uchun Yassaviy shayxlari tashrif buyurgani, Bahouddin shayxlari XIV asrdan, asosan XVI asrdan ko'plab kela boshlaganligi ta'kidlanadi.

Shu bilan birga og'zaki tarix metodiga asosan bo'lsa-da monografiyada Ibrohim Adham afandi takyaning birinchi shayxi sifatida ko'rsatilishi kabi kamchilikka yo'l qo'yilgani ham muallif(lar) uchun mavzu hali yangiligini ko'rsatadi. Qolaversa, muallif(lar)ning O'zi ham takyalar tarixi haqida alohida ilmiy tadqiqotlar olib borish kerak, degan xulosaga kel(ish)gan³.

Shuningdek, Maqsud Bebitovning “Turkiya Antakiyadagi O'zbeklar takiyasi tarixi” maqolasini alohida qayd etish kerak. Unda takya shayxlari, takyaning doimiy a'zolari va musofirlari (mehmonlari) alohida ko'rib chiqilganligi, bevosita Usmonlilar davlatiga oid arxiv hujjatlariga havola berilganligi bilan e'tiborga loyiq⁴.

Ma'lumki, O'zbek takyalari Haj ziyorati bilan bog'liq holda yuzaga kelgan. Bu borada Gulzona Tanievaning “XVI–XIX asr o'rtalarida haj ziyoratining o'rta Osiyo xalqlari ma'naviy, mafkuraviy va ijtimoiy hayotida tutgan o'rni” mavzusidagi doktorlik

¹ Хайитов Ш., Рахмонов К., Ахмадов А. Бухоро ва Бухорийларнинг жаҳоний шухрати. – Тошкент: Наврўз, 2020. – Б. 34.

² Istanbuldagi Türkistan Tekkeleri (Ata yurt ile Ana yurt arasindaki manavi köprüler). – Istanbul, 2017. –294 s.

³ Хайитов Ш., Рахмонов К., Ахмадов А. Бухоро ва Бухорийларнинг жаҳоний шухрати. – Тошкент: Наврўз, 2020. – Б. 39.

⁴ Bebitov M.A. Turkiya Antakiyadagi O'zbeklar takiyalari // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2021. – Volume 1, Issue 11. – B. 1233–1241.

dissertatsiyasi va ushbu tadqiqot asosidagi “XVI–XIX asr birinchi yarmida o‘rta Osiyo xalqlarining haj ziyorati tarixi” nomli monografiyasini qayd etish kerak¹.

Ushbu monografiyada shu davrda o‘rta Osiyo shaharlari bilan Makka va Madina shaharlarini bog‘lagan asosiy tarixiy haj yo‘llari, safar qiyinchiliklari va ularni bartaraf etish, jumladan, yo‘llar xavfsizligini ta‘minlash masalalari o‘rta Osiyo hukmdorlari bilan Usmonli turk sultonlari va Rossiya imperatorlari o‘rtasidagi tashqi aloqalarda aks etishi, haj safarlariga doir ma‘lumotlar tahlil qilingan.

G.Tanieva o‘rta Osiyodan haj ziyorati tarixini – haj yo‘llarining yo‘nalishlari kesimida ko‘rib chiqib, ular XVI–XIX asrlarda uchta bo‘lganligini belgilaydi: shimoliy – Rossiya imperiyasi hududi va Qora dengiz orqali, janubiy – Hindiston va arab dengizi orqali, markaziy – Safaviylar davlati sarhadlari bilan harakatlanishni tashkil etgan. Garchi, o‘rta Osiyodan ziyoratchilar Usmonlilar saltanati hududiga Safaviylar davlati (markaziy) orqali ham kirib kelgan² bo‘lsa-da, Rossiya (shimoliy) orqali yo‘nalish asosiy hisoblangan. Tadqiqotda buning bir qancha sabablari qayd etiladi:

– XVI asr boshida Eronda Safaviylar davlatining, Yettisuvda esa Qozoq xonligining tashkil topishi o‘rta Osiyoning nisbatan qurshovda qolishiga sabab bo‘lib, bu yerdagi xalqlarning xalqaro savdo aloqalarini, hajga safar qilish imkoniyatlarini biroz cheklab qo‘ygan;

– bu davrda Eronda islomdagi shia, Movarounnahrda esa sunniy yo‘nalishlarning davlat darajasida qo‘llab-quvvatlanishi ikki davlat o‘rtasida qarama-qarshi mafkuraviy qarashlarning vujudga kelishiga sabab bo‘lgan;

– 1498 yilda Vasko da Gama tomonidan Portugaliyadan Hindistonga tomon suv yo‘lining ochilishi bilan portugallar butun XVI asr davomida (aniqrog‘i 1622 yilda inglizlar tomonidan bu suv yo‘lining ulardan tortib olinguniga qadar) Hindiston yarim orolidan to Eron portlari va Makkagacha bo‘lgan suv yo‘llarini O‘z qo‘llarida ushlab, savdo va haj ziyoratchilari tushgan kemalarning qatnoviga jiddiy to‘siq bo‘lgan.

Bu esa, “shimoliy yo‘ldan harakatlanishga ehtiyoj”ni oshishiga olib kelgan³. Keyinroq, “Sibirning Rossiya tomonidan qo‘shib olinishi, yangi shahar – qal‘alarning barpo etilishi natijasida” “toshkentlik, qo‘qonlik yo‘lovchilar” – “ziyoratchilarning Rossiya imperiyasi orqali haj safarini amalga oshirishi jadallashdi”⁴.

Shu bilan birga shimoliy yo‘nalishda harakatlanish faollashuvi Usmonlilar davlatining kuchayishi hamda sulton – islom dunyosida xalifa deb hisoblana boshlanishi bilan ham bog‘liqdir. Sulton – musulmonlar rahnamosi sifatida haj safari

¹ Таниева Г. XVI – XIX аср биринчи ярмида Ўрта Осиё халқларининг ҳаж зиёрати тарихи. – Тошкент, 2021. – 328 б.; Таниева Г.М. XVI–XIX аср ўрталарида ҳаж зиёратининг Ўрта Осиё халқлари маънавий, мафкурaviy ва ижтимоий ҳаётида тутган ўрни. Тарих фанлари доктори (DSc) диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2022. – 79 б.

² Таниева Г. XVI – XIX аср биринчи ярмида Ўрта Осиё халқларининг ҳаж зиёрати тарихи. – Тошкент, 2021. – Б. 131.

³ Таниева Г. XVI – XIX аср биринчи ярмида Ўрта Осиё халқларининг ҳаж зиёрати тарихи. – Тошкент, 2021. – Б. 122, 212. Байкова Н.Б. Роль Средней Азии в Русско-индийский торговых связях (вторая половина XVI – первая половина XVIII в.) – Ташкент, 1964. – С. 4.

⁴ Б. 125 – 126.

bo'yicha tegishli tadbirlarni amalga oshirgan. Bu borada *"M.Miropiev asarida o'rta asrlarda butun dunyo musulmon ziyoratchilari turli yo'llar bilan Bag'dod, Damashq, Qohira, Sano shaharlariga oqib kelishi, Damashqda turk sultonlari tashkillashtiradigan har yilgi rasmiy haj karvoni dastlab poytaxt Istanbulda to'plangan, keyin Uskudar – Eskişehir – Aksheher – Koniya – Adana – Damashq yo'li bilan harakatlanishi haqida bayon qilingan"*¹.

o'rta Osiyoda ba'zan maxsus haj karvonlari shakllantirilgan bo'lsa-da, ziyoratchilar asosan savdo karvonlari tarkibida borishgan. Shu ma'noda G.Tanieva haj ziyorati tarixi savdo yo'llari tarixi bilan bog'liqligi, shimoliy haj yo'nalishlarini, ulardagi qatnov mavsumlarini aniqlashda G.A. Mixaleva, G.A. Agzamova tadqiqotlari² ahamiyatli bo'lganligini qayd etadi³.

Shu bilan birga monografiyada XVIII–XIX asrlarda o'rta Osiyo ziyoratchilarining shimoliy haj yo'lida erkin harakatlanishi vaqti-vaqti bilan taqiqlanganligi ham ta'kidlanadi. Bunga 1717 yilda buxoroliklar tatarlar, qashg'arliklar bilan birga turk shaharlarida bo'lib, davlat vaziri bilan maxfiy uchrashgani Rossiyada ular Usmonlilar davlati uchun ayg'oqchilik qilishda gumon qilingani, qolaversa, 1768–1774, 1789–1791 va 1828–1829 yillardagi Rossiya – Turkiya urushlari ta'sir o'tkazgan⁴.

Turkiyadagi O'zbek takyalari haqida ma'lumotlar monografiyaning "Haj yo'llaridagi sharoit va xavfsizlik", "Muqaddas shaharlarga qilingan safarlarning xalqlar madaniy-ma'rifiy hayotiga ta'siri" nomli paragraflarida o'rin olgan. Xususan, G.Tanieva turkiyalik tarixchi Nurten xonimning tadqiqoti asosida XVI asrda xorazmlik shayx Husayn Xorazmiy ikki yillik haj safari davomida ko'plab amaldorlar qatorida Usmonli turk sultonining eng ishonchli vaziri Ahmad posho ham unga murid tushganini qayd etadi. Yoki akademik Bo'riboy Ahmedov asaridan ashtarxoniylar sulolasi vakillaridan biri hoji Mir Muhammad Salim haqidagi ma'lumotni keltiradi:

*"Mir Muhammad Salim 1712 yilda Bag'dod, Halab, Damashq, Istanbul orqali haj safarini amalga oshirib, Istanbulda Sulton Ahmad III (1703 – 1730/1731) tomonidan qabul qilinadi, to'rt yil shu yerda yashab qolib, 1776 yil Makkaga ziyoratga boradi"*⁵.

¹ Таниева Г. XVI – XIX аср биринчи ярмида Ўрта Осиё халқларининг ҳаж зиёрати тарихи. – Тошкент, 2021. – Б. 130.; Миропієв М. Релігійозне і політичне значення хаджа или священного путешествія мухаммеданъ въ Мекку для совершенія релігійознаго праздняства. Сочиненіє студента Казанской духовной академії XIX учебнаго курса (1874–1878 гг.) Михаила Миропієва. – Казань, 1877. – С. 121.

² Михалева Г.А. Торговые и посольские связи России со среднеазиатскими ханствами через Оренбург. – Ташкент, 1982. – 96 с.; Агзамова Г.А. Среднеазиатские центры торговли и пути, связывавшие их с Россией (вторая половина XVI – первая половина XIX в.): автореферат дисс. на соиск. уч. степ. канд. ист. наук. – Ташкент, 1990. – 21 с.

³ Таниева Г. XVI – XIX аср биринчи ярмида Ўрта Осиё халқларининг ҳаж зиёрати тарихи. – Тошкент, 2021. – Б. 28 – 30.

⁴ Таниева Г. XVI – XIX аср биринчи ярмида Ўрта Осиё халқларининг ҳаж зиёрати тарихи. – Тошкент, 2021. – Б. 170–171.

⁵ Ахмедов Б. Историко-географическая литература Средней Азии XVI–XVIII веков (Письменные памятники). – Ташкент: Фан, 1985. – С. 103.; Таниева Г. XVI – XIX аср биринчи ярмида Ўрта Осиё халқларининг ҳаж зиёрати тарихи. – Тошкент, 2021. – Б. 257–258.; Kılıç-Schubel, Nurten. 2006. Rethinking the Ties Between Central Asia and the Ottoman Empire: Travels of a Central Asian Shaykh in Ottoman Empire in the 16th Century. In Papers of VIIIth International Congress of the Economic and Social History of Turkey. June 18–21, 1998. – Bursa, 1998. – PP. 4–5, 17–19.

Monografiyada takyalarga borgan buxoriylarning turk madaniyatida ijobiy ta'sirga ega bo'lganligi haqida ham dalillar keltirilgan. Xususan, XVI asrda yashagan mashhur xattot Sayyid Abdulloh Buxoriy Istanbulga borib, u yerda nasta'liq xatida badiiy ko'chirish usulining keng tarqalishiga sababchi bo'lgani, vatani o'rta Osiyo bo'lgan ebru (abru) san'ati bilan dastlab buxorolik Naqshbandiya tariqati namoyandalari shug'ullangani va bunda aynan takyaning o'rni borligi qayd etiladi¹.

Mavlon Shukurzodaning O'zbekiston va Turkiya munosabatlariga bag'ishlangan kitobida Istanbuldagi Uskudar o'zbeklar takyasi bo'yicha yozar ekan, Shayx Ibrohim Adham avlodlari haqida ma'lumot beradi. Xususan, uning nevarasi Munir Ertegun Kamol Otaturkning Lozana Kelishuvi Turk qo'mitasining huquqiy masalalari bo'yicha maslahatchisi, Turkiyaning Shveysariya, Fransiya, Buyuk Britaniya qirolligida, undan keyin AQSHdagi elchisi bo'lganligi, vafotidan keyin takyadagi qabristonga, buvasi Shayx Ibrohim Adham afandi yoniga dafn etilganligi, keyinchalik uning ikki o'g'li – milliarder aka-ukalar Nesuhi va Ahmet Ertegunlar ham shu qabristonga dafn etilganligi qayd etiladi².

Bundan tashqari ziyolilar Turkiyaga safarlarida davomida takyalarga tashriflari haqida ma'lumotlarni e'lon qilishmoqda. Ular orasida jurnalist va yozuvchi Karimberdi To'ramurodning "O'zbeklar tekkesi nima?" nomli maqolasini, O'zbekistonning mashhur Ziyoz elektron kutubxonasi asoschisi, jurnalist Davronbek Tojialievning "Turkiyadagi O'zbek xonaqohlariga nazar" nomli xabarini keltirish mumkin³.

Shunday qilib, ko'rib chiqilgan tadqiqotlar va maqolalar asosida O'zbekistonda Turkiyadagi takyalar o'rganilishi holati bo'yicha quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

ko'p hollarda takyalarga oid ma'lumotlar haj ziyorati, tasavvuf, sharq me'morligi, taniqli shaxsiyatlar faoliyati doirasidagi tadqiqotlar va maqolalar tarkibidan o'rin olgan;

ayrim maqolalarda takyalarning ko'p qirrali faoliyati qisqa holda bayon etilgan bo'lib, mualliflarning tanlangan ob'ektlari birligidan ma'lumotlar deyarli bir xil taqdim etilgan;

O'zbekistonda takyalar deyarli o'rganilmaganligidan ba'zan yanglish ma'lumotlar berilgan, shuningdek, atamani aniqlashtirish masalasi mavjudligi kuzatilgan;

O'zbek takyalari yoritilishi umumiy holda turk va boshqa, jumladan, g'arb mamlakatlari olimlarining tadqiqotlariga, og'zaki tarix metodiga tayangan suhbatlar, takya ko'rinishi va tuzilishi esa, mualliflarning (H.Boltaboev, G.Tanieva, K.To'ramurod, D.Tojialiev) safarlari davomidagi tasvir bayonlariga asoslangan bo'lib, birlamchi manbalar hisoblanadigan Turkiya arxivlari hamda takyalar, Naqshbandiya

¹ Таниева Г. XVI – XIX аср биринчи ярмида Ўрта Осиё халқларининг ҳаж зиёрати тарихи. – Тошкент, 2021. – Б. 260–261.

² Shukurzoda M. Qardosh va qondoshlar hamkorligining keng qamrovli strategik sheriklik ufoqlari – Toshkent: «NI SO POLIGRAF», 2023. – B. 348–349.

³ Тожиалиев Д. Туркиядаги ўзбек хонақоҳларига назар. – <https://kun.uz/kr/03778684?q=%2F03778684>. Joylashtirilgan sanasi: 21.11.2016; Тўрамурад К. Ўзбеклар теккеси нима? – <https://zarnews.uz/post/ozbeklar-tekkesi-nima>. Joylashtirilgan sanasi: 06.01.2021.

tariqati shayxlari avlodlarida saqlanayotgan hujjatlar deyarli jalb etilmagan (M.Bebitovdan tashqari);

G.Tanieva “XVI–XIX asr birinchi yarmida oʻrta Osiyo xalqlarining haj ziyorati tarixi” nomli monografiyasida boshqa manbalar bilan bir qatorda Samarqandda chop qilingan 3 jildlik “Usmonlilar hujjatlarida Markaziy Osiyo tarixi” toʻplamidan oʻrin olgan arxiv hujjatlaridagi maʼlumotlardan foydalangan;

soʻnggi yillarda Turkiyadagi Oʻzbek takyalariga oid chiqishlar birmuncha jonlanganligi kuzatilganligi olimlarning Oʻzida qiziqish ortib borayotganligini namoyon etadi, deb belgilash mumkin.

Takya atamasi

Oʻzbekistondagi tadqiqot va maqolalarda Turkiyadagi Oʻzbek takyalariga nisbatan takiya, takʼya, taʼqiya, takya, teke, xonaqoh, dargoh, Oʻz holicha tekke tarzida qoʻllanilayotganligi ulardan qay birini ishlatish oʻrinli ekanligini aniqlashtirishni taqozo etadi.

Professor Mustafa Karaning Turkiyada chop qilingan Islom entsiklopediyasidagi “tekke”ga bagʻishlangan maqolasida Qohirada nashr qilingan “al-Muʼjam al-vasit” lugʻatida takya izohsiz turkiy soʻz sifatida qayd etilganligi keltiriladi¹. Shuningdek, maqolada fors manbalarida “xonaqoh”, “dargoh” ishlatilishi taʼkidlanadi. Biron tariqat namoyondalari – shayxlar faoliyat yuritgan bu maskanlar oʻrta Osiyoda ham shu nomlar bilan yuritilgan. Shu bilan birga arxiv hujjatlariga tayangan holda Turkiyadagi takyalar baʼzan dargoh deb nomlanganligini ham koʻrish mumkin. Balki shu jihat professor Shamsiddin Kamoliddinni Oʻz maqolasida tekke bilan bir qatorda dargoh soʻzini ham qoʻllashga asos boʻlgandir.

“Oʻzbekiston–Turkiya aloqalari hujjatlarda” kitobidagi bir necha hujjatlarda tekke Oʻzbek tiliga “jamoat”, “jamiyat” tarzida tarjima etilgan². Albatta, bu tashkilotlarda shayx atrofida jamoat shakllanishi nuqtai nazaridan mantiqan toʻgʻri deyish mumkindir. Lekin, Oʻz tilimizda takyaxona, takya kabi atamalar ayni shu maʼnoni anglatishini nazarda tutish kerak. Oʻzbekiston Milliy entsiklopediyasida “takyaxona” soʻziga quyidagicha taʼrif berilgan:

“asosan karvonlar yoʻli ustida, turli ziyoratlar maqsadida tez-tez mehmonlar kelib turadigan joylarda qurilgan” boʻlib, “musofir, kambagʻal, uysiz shaxslarga vaqtincha yotoq, boshpana sifatida bepul xizmat koʻrsatadigan mehmonxona”³.

Turar Usmonning “Tasavvuf tarixi” asarida ham “takya” soʻzi qoʻllaniladi. Shuningdek, bu maskan “ribot, zoviya, xonaqoh, dargoh, ostona kabi nomlar bilan ham” atalishi, ularning katta-kichikligi va faoliyati jihatidan baʼzi farqlar mavjudligi qayd etiladi. Xususan, “bir tariqatning barcha takyalari oʻsha tariqat shayxi

¹ TDV İslâm Ansiklopedisi 40-Cilt. – İstanbul: TDV Yayınları, 2011. – S. 368.

² Belgelerle Türkiye–Özbekistan ilişkileri. Oʻzbekiston–Turkiya aloqalari hujjatlarda. – İstanbul, 2022. – B. 127, 166, 299.

³ Такяхона – <https://qomus.info/encyclopedia/cat-t/takyaxona-uz/>.

joylashgan ostona yo xonaqoh degan takyaga qarashli bo'ladi. Bu takyaga "pir uyi" ham deyiladi". Shuningdek, "kichikroq takyaga esa zoviya deyiladi"¹.

Muallif tariqat ahlini birlashtirish qatorida xalq orasida ham ta'lim, tarbiya va madaniyat muassasasi sifatida ta'sir kuchiga ega bo'lgan takya haqida ma'lumot berar ekan, uning mukammal ko'rinishini mavlaviy takyasi misolida tushuntiradi:

"takya – o'n bo'limdan iborat bo'lib, samo'xona, maqbara, chillaxona, hujralar, darvishxonalar, salomlashuv xonasi, haram, ombor va oshxona, qahvaxona o'chog'i, qafas (muborak kechalarda takyaga kelgan ayollar o'tiradigan joy), matrab (samo' vaqtida na't va ilohiy qo'shiq aytadigan kuylovchilar o'tiradigan joy). Salomlashuv xonasi shayxning joyi, haram esa uyidir.

*Saljuqiyy va usmonli davriga oid takyalar atrofida ko'pincha qabrison, hammom, masjid, molxona, ba'zan tegirmon joylashgan. Takyadagi vazifador shaxslar va ularning yaqinlari vafot etganida takya ichkarisiga yoki oldidagi qabrisonga dafn etilgan"*².

Shunday qilib, odatda takya, xonaqoh, dargoh so'zlari ma'nodosh sifatida qo'llanilmoqda. Ostona (Mustafa Kara maqolasida "ositona"), zoviya esa uning turlari hisoblanadi.

Ushbu maqolaning mualliflari fikricha ilmiy muomalada "ta'qiya"³ tarzida qo'llanilishi to'g'ri deb bo'lmaydi. Sababi, muxoliflar oldida e'tiqodni maxfiy tutish – "taqiya" yoki bosh kiyim – "taqiyah" (turkchada takke) ekanligidan kelib chiqqan holda atamalarni ishlatishdagi chalkashliklarga zamin bo'ladi.

Mazkur mulohazalar asosida qayd etish kerakki, Turkiyadagi O'zbek tekkellarini "takya" yoki O'z holida, ya'ni "tekke" sifatida ishlatilsa to'g'ri bo'ladi, degan xulosa qilish mumkin.

Arxivlar hujjatlari to'plamlari

O'zbek takyalari tarixi, ular bilan bog'liq shaxslar faoliyati, haj safarlarini o'rganishda birlamchi manba vazifasini o'taydigan arxiv hujjatlarining o'rni katta. Bu borada 2011 va 2012 yillar davomida Samarqandda joylashgan Xalqaro Markaziy Osiyo tadqiqotlari instituti va Turk arxivchilari jamiyati hamkorligida 3 jildlik "Usmonlilar hujjatlarida Markaziy Osiyo tarixi" to'plami chop qilinganligi e'tiborlidir⁴.

Birinchi jildda o'rta Osiyodan haj ziyoratiga borganlarning ikki davlat diplomatik aloqalarida ishtirokiga oid bir necha hujjatlar o'rin olgan. Xususan, Buxoro amirining maktubini yetkazgan va hajdan qaytayotgan elchi Muhammad Fozilning Vataniga yetib

olishi uchun yo'l xarajatlariga 7500 qurush ajratish haqida xatt (farmon) qabul qilingan.

¹ Турар Усмон. Тасаввуф тарихи. – Тошкент: Истиқлол, 1999. – Б. 99.

² O'sha joyda.

³ Махматкулов И. Т. Ўзбекистоннинг ўтмишдаги тасаввуф масканлари – хонақоҳлар архитектурасини ўрганиш ва улардан самарали фойдаланиш асосларини ишлаб чиқиш. архитектура бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2020. – Б. 9.

⁴ История Центральной Азии в османских документах. – Том I. Политические и дипломатические отношения. – Самарканд, 2011. – 310 с.; Том II. Духовные и религиозные связи. – Самарканд, 2011. – 222 с.; Том III. Общественная и повседневная жизнь. – Самарканд, 2012. – 313 с.

Bu hujjat hijriy 1235 yil 29 zulhijjaga (milodiy 1820 yil 7 oktyabr) taalluqli bo'lib, to'plamdagi tartibga ko'ra 24-hujjat – (24) sifatida berilgan¹. Shuningdek, to'plamda u bilan bog'liq bir necha hujjatlar o'rin olgan². Aytish kerakki, Mirzo Muhammad Fozil hijriy 1239 yil 29 zulhijjada (milodiy 1824 yil), 1242 yil 29 zulhijjada (milodiy 1827 yil) ham haj niyatida kelganligi hamda uning Buxorodan maktub va Qur'on keltirgani qayd etilgan holda podshoh – turk sultoni huzurida qabul qilinishi haqidagi xatlar (26), (31) o'rin olgan³. Uni 1827 yili pul ko'rinishida bir martalik rag'batlantirish haqida ham xatt (34) qabul qilingan⁴. Shuningdek, to'plamda tafsir va fiqh bo'yicha so'ralgan kitoblarni olish uchun 5453 qurush ajratish, savdoda yo'q kitoblarni esa saroy kutubxonasidan olish hamda ularni elchiga taqdim etish haqida xatt (30) ham bor⁵.

E'tibor berilsa Mirzo Muhammad Fozil bilan bog'liq hujjatlar turli yillarga taalluqli bo'lsa-da har safar tashrifi hijriy taqvim bo'yicha zulhijja oyining 29-kuniga to'g'ri kelgan.

To'plamning bu jildiga Turkiyadagi O'zbeklar takyalariga oid bir hujjat kiritilgan bo'lib, unda hijriy 1284 yil 6 sha'bon (milodiy 1867 yil 3 dekabr) kuni Hukumat tomonidan Moliya nazoratiga "O'zbeklar xonaqohi postninishini" shayx Sulaymon Afandining murojaatiga asosan xonaqohda 8 kun davomida bo'lgan Buxoro elchisi Muhammad Paris afandiga ishlatilgan 4000 qurush, shuningdek 33 kun davomida bo'lgan elchi yordamchisi va uni 4 hamrohining har biri uchun kuniga 50 qurush hisobida xarajatlarni qoplashga topshiriq berilgan (91)⁶.

To'plamning 2-jildiga din va ma'naviyatga oid 79 hujjat jamlangan bo'lib, unda takyalar, Naqshbandiya tariqati shayxlari, hojilarning xavfsizligini ta'minlash, ularga mablag' ajratish, hududlarning voliylari tomonidan yordam ko'rsatilishi, hojilar vositasida hukmdorlar o'rtasida maktublar almashinuviga oid qator masalalar bo'yicha ma'lumotlar o'rin olgan.

Jumladan, Jidda voliysiga Madinaga ketayotgan buxorolik Hoji Said afandiga doimiy yashashga Haramdan yer va munosib miqdorda maosh tayin etishi (5), Makka amiri va Jidda voliysiga Makkaga ketayotgan buxorolik Hoji Abdurazzoqni madrasalardan biriga joylashtirish va sharoitlarini ta'minlashga oid yazilarni (xatlarni – (49)) keltirish mumkin⁷. Hoji Abdurazzoqqa berilgan xat – hijriy 1278 yil 29 zulhijjaga (milodiy 1862 yil 27 iyun) taalluqli bo'lib, unga bundan 9 oy oldin ham (ya'ni, 1728 yil 13 rabi-ul-ayval (1861 yil 18 sentyabr)) ayni shu mazmunda xat (3-jild (27)) taqdim

¹ История Центральной Азии в османских документах. – Том I. Политические и дипломатические отношения. – Самарканд, 2011. – С. 72–74.

² To'plamdagi tartibga ko'ra 1-jild (22), (25), (26), (27), (29), (31), (34), 3-jild (3), (4)-raqamli hujjatlar.

³ История Центральной Азии в османских документах. – Том I. Политические и дипломатические отношения. – Самарканд, 2011. – С. 77–80; 92–93.

⁴ История Центральной Азии в османских документах. – Том I. Политические и дипломатические отношения. – Самарканд, 2011. – С. 99–102.

⁵ История Центральной Азии в османских документах. – Том I. Политические и дипломатические отношения. – Самарканд, 2011. – С. 89–91.

⁶ История Центральной Азии в османских документах. – Том I. Политические и дипломатические отношения. – Самарканд, 2011. – С. 235–236. Bu hujjat 2-jild (51) raqam ostida keltirilgan: История Центральной Азии в османских документах. – Том II. Духовные и религиозные связи. – Самарканд, 2011. – С. 139–141.

⁷ История Центральной Азии в османских документах. – Том II. Духовные и религиозные связи. – Самарканд, 2011. – С. 26–27, 135–136.

etilgan¹. Demak, u niyatini 9 oydan keyin amalga oshirishga muvaffaq bo'lar ekan, xatini yangilab olgan. Shuningdek, to'plamda haj va hojilar bilan bog'liq boshqa hujjatlar ham o'rin olgan².

Bundan tashqari to'plamda Naqshbandiya tariqati shayxlariga, darvishlariga doir hujjatlar ham berilgan. Ular orasida Istanbulning Kabatosh degan joyida yashagan va Madinaga doimiy yashashga ketayotgan buxorolik Xoji Sharif afandi va uning oilasiga oyiga 150 qurush maosh hamda bir miqdor bug'doy tayin etish (2), Moliya nazoratiga Qo'niyoda yashovchi masnaviyxon, buxorolik shayx Abdulhamid afandining maoshiga ustama tayinlash (36), (43), Shom voliysi Sayyid Mahmud Amin afandining Buxoroda dafn etilgan Amir Kulol hazratlari avlodi va Naqshbandiya tariqati shayxi Abdulvohid afandi hamda uning muridlariga yordam ko'rsatish (37), shayx Abdulvohid afandi va uning muridlariga ovqatlanishi uchun kuniga 120 qurushdan 2 oylik nafaqa tayinlash (41), Buxorodan shayx Hoji Ahmad afandi "Istiob" nomli kitobini sultonga topshirish uchun olib kelgani va u 1000 qurush bilan taqdirlangani haqidagi hujjatlar (40), (42), shuningdek, Xorijiya (Tashqi ishlar) nazoratining Bag'dod voliysiga Istanbuldagi Qalandarxona dargohi darvishlaridan Hoji Abdulloh afandini Buxoroga qaytishi munosabati bilan hurmat ko'rsatish va ko'mak berish haqidagi topshirig'i (1) bor³.

2-jildda Istanbuldagi 3 takyaga oid hujjatlarga o'rin berilgan. Jumladan, Mehmed Posho Yokushi (tepaligi) takyasi bir necha hujjatda (7), (11), (39), (52) ko'rsatilgan bo'lib, birida Buxoro hokimining (ya'ni amirining) aqrabosi Ahmadxon va uning 10 hamrohiga bir oy hisobida pul berish belgilangan bo'lsa, ikkinchisida Mehmed Posho takyasi shayxining istagiga (hujjatda talabiga) ko'ra Xorijiya nazorati Tehrondagi elchixonaga Buxoroga qaytayotgan shayx Yusuf afandiga hurmat va yordam ko'rsatishga amr bergan⁴. Uchinchi hujjatda Moliya nazorati tomonidan 1278-yili (1861-yili) vafot etgan postninishin Hoji Muhammad afandini qiziga otasining ishlatilmay qolgan maoshidan hissa ajratishga topshiriq berilgan⁵. To'rtinchi hujjat esa O'zbeklar takyasiga zarur ba'zi narsalarni olish haqida bo'lib, takyaga aynan nimalar yetkazilganligi ko'rsatilmagan, balki bu og'zaki shaklda amalga oshirilganligi qayd etilgan⁶.

Yana Sultonahmeddagi O'zbeklar takyasiga oid hujjatlarda shayx Hoji Muhammad afandiga yig'ilib qolgan maoshini berilishi (18), uning vafotidan keyin

¹ История Центральной Азии в османских документах. – Том III. Общественная и повседневная жизнь. – Самарканд, 2012. – С. 80–81.

² 1-jildda (1), (14), (15), (35), (66), (69), (70), (111); 2-jildda (4), (6), (15), (21), (22), (23), (25), (26), (27), (28), (29), (30), (31), (45), (47), (57), (59), (60), (61), (62), (65), (69), (70), (71), (72), (73), (74), (75), (77), (78); 3-jildda (6), (13), (22), (58), (63), (64)-raqamli hujjatlar.

³ История Центральной Азии в османских документах. – Том II. Духовные и религиозные связи. – Самарканд, 2011. – С. 14–19, 100–104, 110–119. Yana shayxlar haqida 2-jildda (12), (13), (16), (17), (20), (24), (35), (50), (54); darveshlar bo'yicha 2-jildda – (10), 3-jildda – (8)-raqamli hujjatlar.

⁴ История Центральной Азии в османских документах. – Том II. Духовные и религиозные связи. – Самарканд, 2011. – С. 30–31, 40–41.

⁵ История Центральной Азии в османских документах. – Том II. Духовные и религиозные связи. – Самарканд, 2011. – С. 108–109.

⁶ История Центральной Азии в османских документах. – Том II. Духовные и религиозные связи. – Самарканд, 2011. – С. 142–143.

o'rniga o'g'li Abdulloh afandi tayinlanishi (19), dargohga joylashmoqchi bo'lgan uch kishini kafillikka olinishi yoki vataniga majburan jo'natilishi (32), Erzurum voliysiga dargohda yashagan va vataniga qaytayotgan buxorolik olim, shayx Sayyid Abdulhafiz afandi va uning 4 hamrohiga yordam ko'rsatilishi so'ralishi (48), hijriy 1336 (milodiy 1920) yilda O'zbeklar dargohida muqim yashovchi buxorolik Hoji Abdullohni va uning olti kishidan iborat oilasini Qo'niyoga chiqib ketishi uchun izn berilishi (79) bo'yicha ma'lumotlar aks etgan¹.

Sulton Ayyubdagi O'zbeklar takyasi bo'yicha hujjatlarda postnishin shayx Muhammad afandiga 500 qurush miqdorida maosh tayinlash (55), Istanbul politsiya mudirligining taklifnomalarni tarqatishga izn olinmaganligi sababli O'zbeklar dargohida Buxoroning Hisor voliysi tomonidan bunyod etilgan jome' masjidini ochilishini qoldirish haqida 1318-yil 9 shavvoldagi (1901-yil 30-yanvar) tushuntirishi (58), Hijozdan Istanbulga kelib, takyaga qo'ngan va kelib chiqishi Qoshg'arning Xo'tan shahridan bo'lgan Abidin ibni Xudoverdi, jami 7 kishini (ba'zilar oilalari bilan kelgan) vataniga qaytish xarajatlarini qoplash bo'yicha so'rovi (hujjatda talablari, (68)) kabi masalalar qamrab olingan².

Shuningdek, to'plamning 2-jildida Madinadagi ((9), (56)), Makkadagi ((14), (44), (46)) Misrdagi (53) O'zbeklar takyalari bilan bog'liq hujjatlar ham berilgan.

To'plamning 3-jildida (17) va (18) raqamlari bilan berilgan 2 hujjat bo'lib, ularda hijriy 1273-yili o'zbek shayxi Muhammad afandiga Usmonlilar saltanatida vafot etgan o'zbeklarning meroslari bilan bog'liq masalalarni o'rganish va hal etish vazifasi topshirilgan. Unga Istanbulda vafot etgan o'zbeklarning mulkini sotish va olingan pulni davlat g'aznasida saqlash yuklatilgan. Shu bilan birga vafot etganlarning avlodi murojaat qilganida shayx Muhammad afandi ularga mulkni berishi ham belgilangan³.

Shuningdek, 3-jilddan 1857-yili Silistr muhorabasida qatnashgan buxorolik shayx Fathullohni 5 darajali Majidiy nishoni (ordeni) bilan taqdirlash (20), 1901-yili Buxorodan Istanbulga oilasi bilan birga kelgan me'mor Mo'min afandini qurilish ishlariga jalb etish (62), 1915-yili tekshiruvlar natijasida Uskudardagi Selmanog'a degan joyda yashayotgan buxorolik Murod afandiga tabaalik (fuqarolik) berishni rad etishga jiddiy sabablar yo'qligi (79) bo'yicha hujjatlar ham o'rin olgan⁴.

2022-yili Istanbulda "O'zarxiv" agentligini Turkiya Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat arxivlari Bosh boshqarmasi bilan hamkorlikda nashr qilingan "O'zbekiston–Turkiya aloqalari hujjatlarda" kitobini alohida ta'kid etish kerak⁵. Bu

¹ История Центральной Азии в османских документах. – Том II. Духовные и религиозные связи. – Самарканд, 2011. – С. 56–59, 91–92, 131 – 134, 214–216.

² История Центральной Азии в османских документах. – Том II. Духовные и религиозные связи. – Самарканд, 2011. – С. 150–151, 157–158, 185 – 186. Qoshg'arning Xo'tan shahridan kelgan hojilarning xarajatlarini qoplash bo'yicha talabi (76) 3-jildda ham keltirilgan: Том III. Общественная и повседневная жизнь. – Самарканд, 2012. – С. 234–235.

³ История Центральной Азии в османских документах. – Том III. Общественная и повседневная жизнь. – Самарканд, 2012. – С. 56–62.

⁴ История Центральной Азии в османских документах. – Том III. Общественная и повседневная жизнь. – Самарканд, 2012. – С. 65–66, 182–183, 240–242. Shuningdek, Belgelerle Türkiye–Özbekistan ilişkileri. O'zbekiston–Turkiya aloqalari hujjatlarda (Istanbul, 2022) kitobining 186–187 betlarida ham bu hujjat berilgan.

⁵ Belgelerle Türkiye–Özbekistan ilişkileri. O'zbekiston–Turkiya aloqalari hujjatlarda. – Istanbul, 2022. – 368 b.

kitobda ilk bor ham O‘zbekiston, ham Turkiya arxiv hujjatlari jamlangani, usmonli turk tilidagi hujjatlar matnlari hozirgi turk va o‘zbek tillarida berilganligi bilan diqqatga sazovor. Qolaversa, Samarqandda chop etilgan 3 jildlik to‘plamdagi hujjatlar asosan XVIII asr oxiridan boshlangan bo‘lsa, bu kitobdagi hujjatlar XVI asrdan boshlangan.

“O‘zbekiston–Turkiya aloqalari hujjatlarda” kitobida haj masalalariga oid ham bir qancha hujjatlar berilgan bo‘lib, ular orasida milodiy 1568-yil 22-yanvari sanasiga oid buxorolik shayx Ahmad Yassaviy naslidan bo‘lmish va haj safariga otlangan shayx Zangiy hamda darveshlarining Shomga sog‘-salomat yetkazilishlariga doir buyrug‘i, 1583-yil 30-may sanasida imzolangan Hazrati Umar naslidan bo‘lgan haj ziyorati uchun otlangan movarounnahrlik shayx Ahmad Sodiqlik va hamrohlariga (matnda 60 darveshi) tuya, ozuqa va haj bilan bog‘liq boshqa ehtiyojlarining davlat tomonidan ta‘minlanishiga doir buyrug‘i bor¹.

Kitobda O‘zbeklar takyasi qayd etilgan hujjatlar ham bo‘lib, ulardan biri – Usmonli davlatidan panoh so‘ragan va Bag‘dod atrofida joylashtiriladigan Movarounnahr ulamolari – shayx Abdurahim, shayx Hamza, shayx Muhammad Salim, shayx Abdulkarim va ularning hamrohlariga yo‘l xarji berilishiga doir 1797-yilga taalluqli buyruqdir. Unda ular Uskudardagi O‘zbek takyasida mehmon bo‘lgani keltirilgan².

Shuningdek, Istanbulda yashagan Toshkent xonlari naslidan bo‘lgan Sayyid Sultonxon Muhammad Pahlaviyning Movarounnahr xoni huzurida xizmat qilishi xususida 1866-yilga oid xonga bir maktub yozilishi istagiga doir arizasida³ O‘zbeklar takyasi shayxining nomi keltirilgan:

“O‘zbeklar dargohi shayxi Sulaymon afandi ham kamina duogo‘yingizning fikr va maqsadlari ila iztirobini huzuringizda zoti oliylariga og‘zaki atroflicha ifoda etib iltimos qildi”⁴.

Arizalarda O‘zbeklar takyasi shayxining qo‘llab-quvvatlashi alohida qayd etilishi ham shayxning Usmonli davlatida nufuzi katta bo‘lganligini ko‘rsatadi.

Bundan tashqari kitobda bevosita takyalar bilan bog‘liq hujjatlar ham mavjud. Xususan, Sultonahmed atrofida Mehmed Posho tepaligida joylashgan O‘zbeklar takyasiga tayinlangan guruch miqdorining orttirilganligiga doir 1852-yildagi nishon, O‘zbeklar dargohining shayxi Sulaymon afandining matbaa ta‘limi berilishi uchun harf teruvchi va boshqa kerakli dastgohlar, materiallarni so‘ragan arizasiga doir 1872-yildagi buyruq, uning Balx, Buxoro, Qo‘qon va Qoshg‘ar hojilari foydalanishi uchun Jiddada qurdirgan zoviyaning (turk tilidagi matnda ba‘zi o‘rinlarda “tekke” ham ishlatilgan) suvoq ishlarini tugallash hamda bir quduq qazdirilishi uchun davlat tomonidan yordam ko‘rsatish talabiga doir 1878-yildagi arizasi va boshqa hujjatlar berilgan⁵. Aytish kerakki, 1295-yilning 18 zulqa‘da kunida Davlat Sho‘ro

¹ Belgelerle Türkiye–Özbekistan ilişkileri. O‘zbekiston–Turkiya aloqalari hujjatlarda. – Istanbul, 2022. – B. 50–51, 70–71.

² Belgelerle Türkiye–Özbekistan ilişkileri. O‘zbekiston–Turkiya aloqalari hujjatlarda. – Istanbul, 2022. – B. 126–129.

³ Belgelerle Türkiye–Özbekistan ilişkileri. O‘zbekiston–Turkiya aloqalari hujjatlarda. – Istanbul, 2022. – B. 204–206.

⁴ Belgelerle Türkiye–Özbekistan ilişkileri. O‘zbekiston–Turkiya aloqalari hujjatlarda. – Istanbul, 2022. – B. 205.

⁵ Belgelerle Türkiye–Özbekistan ilişkileri. O‘zbekiston–Turkiya aloqalari hujjatlarda. – Istanbul, 2022. – B. 166–169, 220–221, 238–242. Kitobning 243-betida shayx Sulaymon afandining surati ham berilgan.

boshqarmasidan Hijoz voliyligiga xat yo'llangan bo'lib, unda zoviya tugallanishi uchun kerak bo'lgan sarf-xarajat Moliya idorasi tomonidan ifoda etilishi bildirilib, himmat qilinishi buyurilgan¹. Shuningdek, Sulaymon afandi chig'atoycha va usmonlilar tili bo'yicha tuzgan lug'at kitobi uchun 1883-yili to'rtinchi darajali Usmonlilar nishoni bilan mukofotlangan².

Ushbu takyaning boshqa bir shayxi Abdulmajidning Sadri a'zamga 1901-yil 23-fevralda yo'llagan xatida u Buxoro hukmdori Sayyid amir Abdulahadxon va Buxoro shayxulislomi Sayyid Badriddin afandini Hijoz temiryo'liga yordam berishga yo'naltirilishi ko'rsatilgan va o'zining sa'y-harakatlari natijasida 200 ming rublga yaqin pul yig'ilganini ma'lum qiladi. Shuningdek, shayx Abdulmajid bu pulni Rossiya davlatining Buxorodagi konsuli Buxoro amiriga odam yuborib, podshohga o'zi taqdim qilish uchun unga berishni bildirganini xabardor etadi³.

Kitobda Qo'qon xonining elchisi Mengliboy Eshik Og'aboshi, Mehmed Posho tepaligidagi O'zbeklar dargohining shayxi Al-Haj as-Sayyid ash-shayx Sulaymon, Ayyub atrofidagi Qalandarxona dargohining shayxi Al-Haj ash-shayx Muhammad muhlari qo'yilgan 1866-yilgi ariza ham berilgan. Unda Buxoro ulamozodasi Eshon Xo'ja va bir o'g'li bilan ikki xizmatkori, yana ulamodan Madinai Munavvarada yashovchi Payg'ambarimiz (s.a.v.) haramining va O'zbek madrasasining mudarrisi as-Sayyid Muhammad Amin afandiga, yana Madinada yashovchi Imom Rabboniy avlodidan, mashhur xalifalardan Xalifa Shirin afandi va Qo'qon ulamosidan shayx Amin afandi ismli yetti kishi, duolari olinadigan zotlardan bo'lganliklari bois, ularning ikki oy davomida kerakli xarajatlarini qoplanishiga ruxsat so'ralgan⁴.

Shuningdek, O'zbeklar dargohi shayxi Muhammad an-Naqshbandiy va boshqa sakkiz kishining yangidan qurilgan dargoh ochilishi asnosida podshoh uchun qilingan duolarni qayd etgan 1891-yilgi minnatdorlik arznomasi ham kitobdan o'rin olgan⁵.

Arxiv hujjatlarini ko'rish asnosida buxorolik nisbasida Turkistondan kelganlarga nisbatan umumiy tarzda qo'llanilganligini qayd etib o'tish zarur. Hujjatlarda buxorolik deb ko'rsatilayotgan namoyondalar boshqa hududlarga taalluqli bo'lishi ham mumkin.

Arxiv hujjatlari takyalar – hojilar uchun qo'noq, ayni damda buxoroliklarni birlashtiruvchi maskan bo'lib, Turkiyada o'zbeklar jamoati shakllanishida hamda mamlakat sotsiomadaniy hayotida ahamiyati katta bo'lganligini belgilaydi. Shu bilan birga bu muassasalar davlatlar o'rtasida diplomatik aloqalar rivojida ham o'rni borligini qayd etish kerak.

¹ Belgelerle Türkiye-Özbekistan ilişkileri. O'zbekiston-Turkiya aloqalari hujjatlarda. – Istanbul, 2022. – B. 242.

² Belgelerle Türkiye-Özbekistan ilişkileri. O'zbekiston-Turkiya aloqalari hujjatlarda. – Istanbul, 2022. – B. 250–251.

³ Belgelerle Türkiye-Özbekistan ilişkileri. O'zbekiston-Turkiya aloqalari hujjatlarda. – Istanbul, 2022. – B. 298–299.

⁴ Belgelerle Türkiye-Özbekistan ilişkileri. O'zbekiston-Turkiya aloqalari hujjatlarda. – Istanbul, 2022. – B. 202–203.

⁵ Belgelerle Türkiye-Özbekistan ilişkileri. O'zbekiston-Turkiya aloqalari hujjatlarda. – Istanbul, 2022. – B. 258–259.

Xulosa

Turkiyadagi O‘zbeklar takyalari faoliyatini o‘rganish O‘zbekiston olimlari uchun yangi yo‘nalish hisoblanadi. Buni ilmiy adabiyotlar va maqolalarni o‘zi ham ko‘rsatib turibdi. Ayniqsa, birlamchi manbalar bo‘lmish arxivlardagi hamda takya shayxlari va u bilan bog‘liq shaxslarning avlodlarida saqlanayotgan hujjatlarni tadqiqotlarga jalb etish zarur. Bu borada Turkiyadagi O‘zbeklar takyalariga oid hujjatlarni alohida to‘plam tarzida chop etish mumkin.

Umuman, Istanbul bilan bir qatorda Makka, Madina, Adana, Antakya, Bag‘dod, Bursa, Halab, Qohira, Shom va boshqa shaharlarda ham O‘zbeklar takyalari mavjud bo‘lib, ular Usmonli turk davlati orqali boshqarilgan. Bu ma’lumot O‘zbeklar takyalariga tarmoq sifatida qarash hamda ularning o‘zaro va Turkiston – Movarounnahrda takyalar, xonaqohlar bilan aloqalarini o‘rganish istiqboldagi tadqiqot yo‘nalishini belgilaydi.

Xalqaro “Alfraganus” jurnalining ushbu maxsus sonida e’lon qilinayotgan maqolalar asosan Uskudardagi Sultontepa O‘zbeklar takyasi faoliyatiga oid bo‘lib, birlamchi manbalarga tayanib yozilganligi bilan O‘zbekistonda mavzu tarixshunosligini boyitishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar va manbalar ro'yxati

Dissertatsiyalar va avtoreferatlar:

Агзамова Г.А. Среднеазиатские центры торговли и пути, связывавшие их с Россией (вторая половина XVI – первая половина XIX в.): автореферат дисс. на соиск. уч. степ. канд. ист. наук. – Ташкент, 1990. – 21 с.;

Каримов Э.Э. Суфийские тарикаты в Центральной Азии XII – XV вв. Диссертация на соискание ученой степени доктора исторических наук. – Ташкент, 1998. – 288 с.;

Махматкулов И. Т. Ўзбекистоннинг ўтмишдаги тасаввуф масканлари – хонақоҳлар архитектурасини ўрганиш ва улардан самарали фойдаланиш асосларини ишлаб чиқиш. архитектура бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2020. – 50 б.;

Раҳмонкулова З.Б. XVI – XX аср бошларида Ўрта Осиё ва Усмонийлар давлатлари ўртасидаги ижтимоий-сиёсий ва маданий муносабатлар тарихи. Тарих фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация. – Тошкент, 2002. – иловаларсиз 139 б., иловалар билан 147 б.;

Таниева Г.М. XVI–XIX аср ўрталарида ҳаж зиёратининг Ўрта Осиё халқлари маънавий, мафкуравий ва ижтимоий ҳаётида тутган ўрни. Тарих фанлари доктори (DSc) диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2022. – 79 б.;

Шадиев Р. Т. Суфизм в народной жизни Средней Азии (IX – XIII вв.). Диссертация на соискание ученой степени доктора философских наук. – Самарканд, 1993. – 259 с.

Arxiv hujjatlari to'plamlari

Belgelerle Türkiye–Özbekistan ilişkileri. O'zbekiston–Türkiye aloqalari hujjatlarda. Proje yönetecisi/Loyiha rahbari: U. Ünal, U. Yusupov; Sorumlular/Mas'ullar: M. Tokdemir, C. Ekici, A. Özkilinc, D. Zakirova, A. Aliyev, N. Mirzayev. – Istanbul, 2022. – 368 b.;

История Центральной Азии в османских документах (Научные редакторы: Ш. Мустафаев, М. Серин; Обработка и транслитерация документов: К. Гурулкан, М. Билгин, Н. Пакирдаг):

Том I. Политические и дипломатические отношения. – Самарканд, 2011. – 310 с.;

Том II. Духовные и религиозные связи. – Самарканд, 2011. – 222 с.;

Том III. Общественная и повседневная жизнь. – Самарканд, 2012. – 313 с.

Adabiyotlar va maqolalar:

Ахмедов Б. Историко-географическая литература Средней Азии XVI–XVIII веков (Письменные памятники). – Ташкент: Фан, 1985. – 260 с.;

Байкова Н.Б. Роль Средней Азии в Русско-индийский торговых связях (вторая половина XVI – первая половина XVIII в.) – Ташкент, 1964. – 192 с.;

Bebitov M.A. Turkiya Antakiyadagi O'zbeklar takiyalari // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2021. – Volume 1, Issue 11. – B. 1233–1241.;

Болтабоев Ҳ. Фитрат ва Жади́дчилик. Илмий-тадқиқий мақолалар. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2007. – 286 б.;

Istanbuldaki Türkistan Tekkeleri (Ata yurt ile Ana yurt arasındaki manavi köprüler). – Istanbul, 2017. – 294 s.;

Kamalova H. Orta Asya'dan istanbul'a Tarihi ve Kültürel Bir Mekan: Özbekler Tekkesi / 7. Uluslararası Türk Kültürü kongresi: Türk ve dünya kültüründe Istanbul= 7th International Turkish

Culture Congress: In Turkish and world culture Istanbul: Bildiriler/yayına hazırlayan: Sııan Gür, Şebnem Ereebeci Çmar. – Ankara: Atatürk Kültür Merkezi, 2011. – S. 171–188.;

Камолиддин Ш.С. Ал-Қуддусдаги ал-Ўзбекиййа хонақоҳи / Обитель ал-Ўзбекиййа в Иерусалиме / Cloister of Uzbek Sufies in Jerusalem // Moziydan sado. – Тошкент, 2013. – 4 (60)-сон. – Б. 29–34.;

Камолиддин Ш. С. Истанбулдаги Ўзбек теккелари // Хорижий шарқ мамлакатлари тарихий жараёнлари ва уларни ўрганишнинг долзарб муаммолари. Илмий-амалий конференция материаллари тўплами. – Тошкент, 2017. – Б. 28–36.;

Камолиддин Ш. Истанбулдаги Ўзбек теккелари // Хорижий шарқ мамлакатларидаги тарихий жараёнлар ва уларни ўрганишнинг долзарб муаммолари. Республика миқёсидаги илмий-амалий конференция материаллари тўплами. – Тошкент, 2024. – Б. 54–64.;

Kılıç-Schubel, Nurten. 2006. Rethinking the Ties Between Central Asia and the Ottoman Empire: Travels of a Central Asian Shaykh in Ottoman Empire in the 16th Century. In Papers of VIIIth International Congress of the Economic and Social History of Turkey. June 18–21, 1998. – Bursa, 1998. – PP. 4–26.;

Маньковская Л.Ю. Типологические основы зодчества Средней Азии (IX – начало XX в.) – Ташкент: Фан, 1980. – 184 с.;

Маҳмуд Асад Жўшон. Ислом, Тасаввуф ва Ахлоқ / тарж. ва сўнг сўз муаллифи Хожа Сайфуддин Сайфуллох. – Тошкент: Истиклол, 2000.;

Маҳмуд Асад Жўшон. Ислом ва Ахлоқ / тарж. ва сўнгсўз муаллифи Сайфуддин Сайфуллох. – Самарқанд: Имом Бухорий халқаро маркази нашриёти, 2019. – 356 б.;

Маҳмуд Ассад Жўшон. Сиддиклар йўли. Тасаввуф ва нафс тарбияси. – Тошкент: «Matbaachi» нашриёт-матбааси, 2022. – 200 б.;

Мироппев М. Религиозное и политическое значение хаджа или священного путешествия мухаммеданъ въ Мекку для совершения религиозного праздника. Сочинение студента Казанской духовной академии XIX учебного курса (1874–1878 гг.) Михаила Мироппева. – Казань, 1877. – 250 с.;

Михалева Г.А. Торговые и посольские связи России со среднеазиатскими ханствами через Оренбург. – Ташкент, 1982. – 96 с.;

Мустафаев Ш. Шейх Али Самаркандий – проводник духовно-культурного трансфера между Мавераннахром и Анатолией (по данным Османских источников) // O'zbekiston tarixi. – Тошкент, 2018. – 2-сон. – Б. 80–85.;

Таниева Г. XVI – XIX аср биринчи ярмида Ўрта Осиё халқларининг ҳаж зиёрати тарихи. – Тошкент, 2021. – 328 б.;

TDV İslâm Ansiklopedisi 40-Cilt. – Istanbul, 2011.;

Турар Усмон. Тасаввуф тарихи. – Тошкент: Истиклол, 1999. – 180 б.;

Туркияда яссавийшунослик: Қул Хожа Аҳмад Яссавийнинг ҳаёти, ижоди ва тариқати мавзусида турк яссавийшуносликлари билан ўтказилган суҳбатлар тўплами. Суҳбат қилувчи ва нашрга тайёрловчи Нодирхон Ҳасан. – Тошкент: Истиклол, 1999. – 56 б.;

Турсунов Ш. Бурҳониддин Муҳаққиқ Термизий ҳаёти ва фалсафий мероси (тарихий ва адабий манбалар асосида) // Academic Research in Educational Sciences. – 2024. – Volume 5. Issue 1. – Б. 81–89.;

Чўлиева В. Э. Баҳоуддин Валаднинг ҳаёти, фалсафий таълимоти ва илмий мероси // Имом Бухорий сабоқлари. – Самарқанд, 2021. – 3-сон. – Б. 16–17.;

Shukurzoda M. Qardosh va qondoshlar hamkorligining keng qamrovli strategik sheriklik uqlari (O'zbekiston va Turkiya pespublikalari o'rtasidagi diplomatik munosabatlar va qardosh ikki

mamlakatlar o'rtasida keng qamrovli strategik sheriklik munosabatlariga bag'ishlanadi). – Toshkent: «NI SO POLIGRAF», 2023. – 376 b.;

Юсупова М., Рахимова З., Ибрагимов О. Суфийские традиции в искусстве Мавераннахра XV–XVII вв. (Архитектура, миниатюра, музыка). – Ташкент: издательство журнала “San’at”, 2010. – 208 с.;


Ҳайитов Ш., Раҳмонов К., Аҳмадов А. Бухоро ва Бухорийларнинг жаҳоний шухрати. – Тошкент: Наврӯз, 2020. – 208 б.;

Internet materiallari:

Камолиддин Ш.С. Истанбулдаги Ўзбек такиялари. – <https://telegra.ph/Istanbuldagi-%D1%9Ezbek-takiyalari-11-11>. Maqola joylashtirilgan sana: 11.11.2020.;

Тожиалиев Д. Туркиядаги ўзбек хонақоҳларига назар. – <https://kun.uz/kr/03778684?q=%2F03778684>. Joylashtirilgan sanasi: 21.11.2016.;

Тўрамурод К. Ўзбеклар теккеси нима? – <https://zarnews.uz/post/ozbeklar-tekkesi-nima>. Joylashtirilgan sanasi: 06.01.2021.



BUHARALI ŞEYH AHMED YESEVÎ'NİN SOYUNDAN GELEN VE HACCA GİDECEK OLANŞEYH ZENGÎ VE DERVİŞLERİNİN SAĞ SALİM ŞAM'A ULAŞTIRILMASINA DAİR EMİR

22 Ocak 1568

[İstanbul'dan] Şam'a varıncaya kadar yol üzerinde bulunan [kazaların] kadılarına emir

Buharalı Şeyh Ahmed Yesevî'nin soyundan gelen ve bu fermanı elinde bulunduran Şeyh Zengî, yanındaki dervişleriyle birlikte Allah'ın Evi'ni (Kâbe'yi) tavaf ve yaratılmışların efendisi olan Hz. Peygamber'in (s.a.v.) Türbesi'ni ziyaret etmeye niyetlenmiş ve bu esnada kimsenin yollarda ve konak yerlerinde kendilerine karışıp sataşmaması için eline bir ferman verilmesini istemiştir.

Buyurdum ki:

Adı geçen Şeyh ve dervişleri ile yanlarındaki eşya ve gereçlerine hukuk ve kanuna aykırı olarak kimsenin müdahale etmesine ve sataşmasına izin vermeyesiniz; kendi paralarıyla yiyecek ihtiyaçlarını temin ettiresiniz ve gerekli olan yerlerde yanlarına kılavuz vererek emniyetli bir şekilde Şam'a ulaşmalarını sağlayasınız.


BUXOROLIK SHAYX AHMAD YASSAVIY NASLIDAN BO'LMISH VA HAJ SAFARIGA OTLANGAN SHAYX ZANGIY HAMDA DAR-VESHLARINING SHOMGA SOG'-SALOMAT YETKAZILISHLARIGA DOIR BUYRUQ

22-yanvar 1568-yil

[İstanbuldan] Shomga borgunga qadar yo'l bo'yidagi [nohiyalarning] qozilariga buyruq

Buxorolik Shayh Ahmad Yassaviy naslidan bo'lgan va qo'lida ushbu farmonni tutgan Shayh Zangiy hamda uning hamrohligidagi darveshlar Allohning uyi (Ka'bani) tavof qilish va yaratilganlarning eng afzali Hazrat Payg'ambar (s.a.v)ning maqbaralarini ziyorat qilishga niyat qilibdilar. Shu maqsadda biror-bir kishining yo'l davomida va qo'nalg'alarda ularga noqulaylik tug'dirmasligi uchun qo'llariga bir farmon berilishi istalgan. **Buyuramanki:**

Shayx, uning hamrohligidagi darveshlar va tegishli jihoz, mol-mulkulariga biror kishining qonunga xilof ravishda daxl qilishiga hamda noqulaylik tug'dirishiga yo'l qo'yilmaydi. O'z pullariga oziq-ovqat ehtiyojlarini qondirasiz va kerakli joylarda yonlariga yo'l ko'rsatuvchi berib, Shomga qadar xavfsiz bir shaklda yetib borishlarini ta'minlaysiz.



HZ. ÖMER'İN NESLİNDEN OLUP HAC İÇİN YOLA ÇIKAN MAVERAÜNNEHİRLİ ŞEYH AHMED SADIK VE BERABERİNDEKİLERİN DEVE, AZIK VS. HACLA İLGİLİ İHTİYAÇLARININ DEVLET TARAFINDAN KARŞILANMASI-NA DAİR EMİR

30 Mayıs 1583

Şam Beylerbeyi'ne ve Defterdarı'na emir

Halife Hz. Ömer'in (r.a.) soyundan olup haccelemek, Allah'ın Evi'ni (Kâbe'yi) tavaf ve yaratılmışların efendisi olan Hz. Peygamber'in (s.a.v.) Türbesi'ni ziyaret etmek niyetiyle Maverâünnahir'den İstanbul'a gelen Şeyh Ahmed es-Sâdık ve ailesiyle altmış dervişine ve ailelerine deve, azık vs. hac için gerekli bütün hususlarda devlet tarafından ne yapılması gerekiyorsa hazırlanıp yerine getirilmesini emredip **buyurdum ki:**

Bu emrim size ulaştığında; bu gibi fakir fukaraya devlet tarafından deve, zahire vs. lazım gelen şeylerden her ne tayin olunu gelmiş ise adı geçen ve ailesiyle altmış dervişine ve ailelerine de yeterli miktarda verip asla herhangi bir hususta eksiklik bırakmaksızın olması gerektiği şekilde yardımda bulunasınız ki, onlar da mutlu bir şekilde ve huzur içerisinde hacın gereklerini yerine getirsinler ve devletimin devamı için dua etsinler.


HAZRATI UMAR NASLIDAN BO'LGAN HAJ ZİYORATI UCHUN OTLANGAN MOVAROUN-NAHRLIK SHAYX AHMAD SODIQ VA HAM-ROHLARIGA TUYA, OZUQA VA HAJ BILAN BOG'LIQ BOSHQA EHTIYOJLARINING DAVLAT TOMONIDAN TA'MINLANISHIGA DOIR BUYRUQ

30-may 1583-yil

Shom Beklarbegiga va Daftardoriga buyruq

Xalifa Hazrati Umar (r.a.) naslidan bo'lgan, (Ka'ba)ni tavof va sayyid ul-anom Hazrati Payg'ambarimiz (s.a.v.)ning maqbaralarini ziyorat qilish niyatida Movarounnahr'dan Istanbulga kelgan Shayx Ahmad as- Sodiq, uning oilasi, oltmish darveshi hamda ularga tuya, oziq va haj uchun boshqa kerakli barcha masalalarda davlat tomonidan qanday yordam qilinishi lozim bo'lsa, tadorigi ko'rilishini amr qilib **buyurdimki:**

Mazkur buyrug'im sizga etib borganida, bunday faqir-fuqaroga davlat tomonidan tuya, zaxira va boshqa belgilangan zaruriy narsalar nomi zikr qilingan (shaxs), oilasi hamda oltmish darveshi, ularning oilalariga ham yetarlicha miqdorda berilsin. Hech bir masalada kamchilikka yo'l qo'yilmasdan kerakli tarzda yordam ko'rsatingki, ular xursandchilik va halovat ichida hajlarini ado etsinlar va davlatimning davomiyligi uchun duo qilsinlar.



HOKAND HANI'NIN ELÇISI İLE
İSTANBUL'DAKİ ÖZBEKLER VE
KALENDERHANE DERGÂHLARI
ŞEYHLERİNİN, BUHARA VE HOKAND ULEMA
VE ŞEYHLERİNDEN YEDİ KİŞİYE İKİ AY
BOYUNCA UYGUN MİKTARDA YEVMİYELER
TAHSİS EDİLMESİ İSTEKLERİNE DAİR
ARZUHAL

QO'QON XONINING ELCHISI BILAN ISTAN-
BULDAGI O'ZBEKLAR VA QALANDARXONA
DARGOHLARI SHAYXLARINING, BUXORO VA
QO'QON ULAMO VA SHAYXLARIDAN YETTI
KISHIGA IKKI OY DAVOMIDA KERAKLI
MIQDORDA KUNDALIK HAQ QOPLANISHI
BO-RASIDAGI ISTAKLARI (TALABLARI)GA
DOIR ARIZA

19 Şubat 1866

19-fevral 1866-yil

Bu deęersiz duacınız řunu arz eder ki:

Buhara ulemazadesi İřan Hoca ve bir oęlu ile iki hizmetçisi, yine ulemadan Medine-i Münevvere'de ikamet eden ve Peygamber efendimizin (s.a.v.) Haremi'nin ve Özbek Medresesi'nin Müderrisi olan es-Seyyid Muhammed Emin Efendi, yine Medine'de ikamet eden İmam Rabbanî evladından ve meřur halifelerinden Halife řirin Efendi ve Hokand ulemasından řeyh Emin Efendi isimli yedi duaları alınacak zatlardan olduklarından, řimdiye kadar bu gibi kıymetli misafirler hakkında esirgenmemiř olan Zati-alinin gün gibi ařıkâr merhametinin bu duacınızın isteęi olarak aynı řekilde bunlar hakkında da uygulanıp iki ay müddetle uygun yevmiyeler tahsis edilmek suretiyle sevindirilmeleri hususuna izin verilmesi konusunda emir ve ferman, lütuf ve ihsan Siz Nazır hazretlerindir.

Bu notavon duogo'yingiz shuni arz qiladiki

Buxoro ulamozodasi Eshon Xo'ja va bir o'g'li bilan ikki xizmatkori, yana ulamodan Madinai unavvarada yashovchi Payg'ambarimiz (s.a.v.) haramining va O'zbek madrasasining mudarrisi as-Sayid Muhammad Amin Afandiga, yana Madinada yashovchi Imom Rabboniy avlodidan, mashhur xalifalardan Xalifa Shirin Afandi va Qo'qon ulamosidan Shayx Amin Afandi ismli yetti kishi, duolari olinadigan zotlardan bo'lganliklari bois, shu kunga qadar bunday qiymatli mehmonlarga, siz, zoti Oliylarining ko'rsatgan marhamatlari kunday ravshandir. Kamina duogo'yingizning istagi ham xuddi shu tarzda ismi zikr qilingan zotlarga ham ikki oy muddatga kerakli kunlik xarajatlari qoplanib, ularni suyuntirish borasida ruxsat berishingizdir. Bu boradagi buyruq va farmon, lutf va ehson Siz, Nozir hazratlariga oiddir.

Hokand Hani'nin Elçisi Minglibay Eřik Aęabařı (Mühür)	Mehmedpařa Yokuřu'ndaki Özbekler Dergâhı'nın řeyhi El-hâc es- Seyyid eř řeyh Süleyman (Mühür)	Eyüp civarındaki Kalenderhane Dergâhı'nın řeyhi El-hâc eř- řeyh Muhammed (Mühür)
--	--	---

Qo'qon Xonining elchisi Mengliboy Eshik Og'aboshi (Mühr)	Mehmedposho Tepaligidagi O'zbeklar dargohining Shayxi Al-Haj as- Sayid ash-Shayx Sulaymon (Mühr)	Ayyub atrofidagi Qalandarxona dargohining Shayxi Al-Haj ash- Shayx Muhammad (Mühr)
---	---	---

USKUDARDAGI “O‘ZBEKLAR TAKYASI”NING TA’SIS VAQFNOMASI, UNING DIPLOMATIK VA MAZMUN TAHLILI

Hasan Demirtash

doktor, Turkiya vaqflar

bosh boshqarmasi, tadqiqotchi,

ORCID: 0000-0002-4223-5786,

E-mail: hassandemirtas@gmail.com

ANNOTATSIYA: Tadqiqot doirasida “O‘zbeklar takyasi”ning tarixida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan vaqfnomaning diplomatik elementlari o‘rganilib, mazmuni tahlil qilingan. Mavjud manbalardagi ma’lumotlarga ko‘ra, zarbxona emini va Marash hokimi vazifasida ishlagan Abdulloh Posho tomonidan 1752–1753 yillarda barpo etilgan “O‘zbeklar takyasi”ning birinchi shayxi – Shayx Abdulloh tomonidan vaqf tashkil etilgani haqidagi ma’lumotlar so‘rovi tashkil etildi va huquqiy jihatdan bunday vaqf mavjud emasligi arxiv hujjatlari asosida aniqlandi.

Shu bilan birga, “O‘zbeklar takyasi”ning birinchi shayxi – Shayx Abdulloh haqida Ayvansaroyiy bergan ma’lumotlar to‘ldirildi. Jumladan, uning to‘liq ismi-nasabi aniqlashtirildi: Sayyid ash-Shayx Abdulloh Akbar Afandi ibn Asadulloh al-O‘zbekiy. Shuningdek, “O‘zbeklar takyasi” uchun mustaqil vaqf ta’sis etilmagani va bu davrda institutsional tarzda qayd etilmagani ham ko‘rsatib o‘tildi.

“O‘zbeklar takyasi” uchun 1788-yilda al-Hoj Xalil Og‘a ibn Ahmad Afandi tomonidan vaqf tashkil etilgani va shu tariqa takyaga huquqiy maqom berilgani qayd etilgan.

Vaqfnoma shartlariga ko‘ra, “O‘zbeklar takyasi” Naqshbandiya dargohi bo‘lib, avvaliga, Samarqand shahrining Qalandarxona mahallasidagi darveshlarga xizmat ko‘rsatganligi, keyinchalik vaqf ta’sischisi Xalil Og‘a vaqf shartlarini o‘zgartirib, boshqa naqshbandiy darveshlariga ham takyada qolish huquqini berganligi qayd etiladi.

Vaqfnomada faqat xayriya binolari ajratilganligi va ularni ta’mirlash, darveshxona shayxlari va darveshlarining xarajatlari kabi vaqf moddiy ehtiyojlarini qoplash uchun hech qanday daromad keltiruvchi narsa vaqf qilinmaganligi, al-Hoj Xalil Og‘a tomonidan tashkil etilgan vaqfning haqiqatda mavjud bo‘lgani – rasmiy hujjatlarda uchramagan biror vaqf manbai bor bo‘lishi mumkinligiga ishora qiladi.

KALIT SO‘ZLAR: O‘zbeklar takyasi, vaqf, Shayx Abdulloh, al-Hoj Xalil Og‘a, Naqshbandiya tariqati

ÜSKÜDAR ÖZBEKLER TEKKESİ KURULUŞ VAKFIYESİ DIPLOMATİK VE İÇERİK ANALİZİ

Hasan Demirtaş

Dr., Araştırmacı,

Vakıflar Genel Müdürlüğü

ÖZET: Araştırma kapsamında Üsküdar Özbekler Tekkesi tarihinde önemli bir yere sahip olan vakfiyenin diplomatik unsurları incelenerek içeriği analiz edilmiştir. Mevcut kaynaklara göre, 1752–1753 yıllarında darphane emini ve Maraş valiliği görevini yürüten Abdullah Paşa tarafından inşa ettirilen Özbekler Tekkesinin ilk şeyhi Hacı Hacı Abdullah’a temlik edildiği, onun ise bu mülkü vakfetteği bilgisi aktarılmış, ancak vakıf kuruluşuyla ilgili bir vakfiye veya bir hüccete ulaşılamadığı kaydedilmiştir.

Aynı zamanda Ayvansarâyî'nin Özbekler Tekkesinin ilk şeyhi Abdullah Efendi hakkında verdiği bilgilere yer verilmiştir. Özellikle şeyhin tam adı bu sayede açıklığa kavuşmuş olmaktadır: *Eş-Şeyh Es-Seyyid Abdullah Ekber bin Es-Seyyid Esedullah el-Özbekî*. Bununla birlikte yazıda o dönemde Özbekler Tekkesi için bağımsız bir vakfın kurulmadığı ve kurumsal olarak tescil belgesine ulaşılamadığına dikkat çekilmiştir.

1788 yılında El-Hac Halil Ağa ibn Ahmed Vakfiyesi ile Özbekler Tekkesi için bir vakıf kurulduğu ve böylece tekke kurumsal kimliğine kavuştuğu belirtilmektedir.

Vakıf şartlarına göre Üsküdar Özbekler Tekkesi bir Nakşibendi dergâhı olup, önceleri Mâverâünnehir’de Semerkand’ın Kalenderhâne Mahallesi’nden olan Özbek dervişlere hizmet etmiş, daha sonra vakfın kurucusu Halil Ağa, vakfın şartlarını değiştirerek tekkede konaklama hakkını diğer Nakşibendî dervişlerine de tanımıştır.

Vakfiye metninde sadece hayrat binaların vakfedilmiş olması ve bu hayrat binaların bakım ve onarım masrafları, tekke şeyhlerinin ve dervişlerinin giderleri gibi, vakfın masraflarını karşılayacak hiçbir gelir kaleminin vakfedilmemiş olması, el-Hâc Halil Ağa tarafından kurulan vakfın fiilen var olan fakat resmî kayıtlarda görünmeyen Özbekler Tekkesinin kurumsal varlığının temini için bir vakıf kurulmuş olabileceği düşüncesini akla getirmektedir.

ANAHTAR KELİMELE: Özbekler Tekkesi, vakıf, şeyhi Abdullah Efendi, el-Hâc Halil Ağa, Nakşibendîye tarikatı

THE FOUNDING WAQF OF THE “UZBEKLAR TEKKE” IN USKUDAR, ITS DIPLOMATIC AND SEMANTIC ANALYSIS

Hasan Demirtaş

Dr., Researcher,

Directorate General of Foundations

ABSTRACT: Within the framework of the study, diplomatic elements of the waqfnoma that are important in the history of "Uzbeklar Tekkesi" (The Uzbeks Lodge) were studied and their content was analyzed. According to the available data, a request for information about the establishment of the waqf was organized by Sheikh Abdullah – the first sheikh of "Uzbeklar Tekkesi", which was built in 1752–1753 by Abdullah Pasha, who held the post of emin of the mint and governor of Marash and on the basis of archival documents it was established that legally, such a waqf does not exist.

At the same time, the information provided by Ayvansarai about the first sheikh of “Uzbeklar Tekkesi” – Sheikh Abdullah was supplemented. In particular, his full name and genealogy were clarified: Sayyid ash-Sheikh Abdullah Akbar Efendi ibn Asadullah Al-Uzbeki. It was also indicated that “Uzbeklar Tekkesi” was not established as an independent waqf during this period and was not institutionally registered.

It was recorded for the “Uzbeklar Tekkesi” that in 1788, Al-Hajji Khalil Agha ibn Ahmad Efendi established the waqf and thus granted the tekke (takya) legal status.

According to the terms of the Waqfnoma, “Uzbeklar Tekkesi” is a Naqshbandi dargah (lodge) that first served the dervishes from the Qalandarhan mahalla of the city of Samarkand, and then the founder of the waqf, Khalil Agha, changed the terms of the waqf and granted the right to stay in the tekke to other Naqshbandi dervishes.

The fact that only charitable buildings were allocated to the waqf and that nothing was donated that would generate income to cover the material needs of the waqf, such as their repairs, the expenses of the sheikhs and dervishes, indicates that the waqf created by Al-Hajj Khalil Agha actually existed – perhaps indicating the existence of some source of the waqf that is not indicated in the official documents.

KEY WORDS: "Uzbeklar Tekkesi" (The Uzbeks Lodge), waqf, Sheikh Abdullah, al-Haji Khalil Ogha, Naqshbandi order

Kirish

Uskudarda joylashgan “O‘zbeklar takyasi” haqidagi muhim ma’lumot beruvchi manbalardan biri XVIII asrning ikkinchi yarmida Hofiz Huseyn Ayvansaroyiy (vafoti 1201/1787) tomonidan yozilgan “Hadiqatu’l-javomi” asaridir. Ayvansaroyiy Istanbulning barcha jome masjidlari va namozxonalarini birma-bir kezib chiqib yozgan asarida “O‘zbeklar takyasi”ning asoschisi, uning qurilishi va kengaytirilishi, takyaning

birinchi shayxi va u qaysi tariqatga mansubligi, binoning XVIII asr ikkinchi yarmidagi holati haqida qisqa, ammo muhim ma'lumotlarni beradi:

Sulton tepaligidagi Hoji Xo'ja takyasi masjidi: Uning asoschisi Zarbxona emini¹ bo'lgan va 1168 yilning zulhijja oyida bosh vazirlik kadxudolididan² Mar'ash viloyati hokimi lavozimiga tayinlangan Abdulloh Poshodir. Bu dargohni u 1166yilda qayta qurib va tiklab, Naqshbandiya tariqatida Hoji Xo'ja nomi bilan mashhur bo'lgan Ma'ruf ash-Shayx as-Sayyid Abdulloh Afandiga topshirganlar. 1171-yilda Chaprastli Hasan Ag'a nomli bir kishi butun xarajatlarini o'z zimmasiga olgan holda, nomi zikr etilgan shayx esa moddiy manfaat emas, Alloh taolo yo'lida takyani vaqf qilib, Naqshbandiya tariqatida imomat va xitobatni o'z bo'yinlariga oldi. Keyinchalik bino atrofida qo'shimchalar va kengaytirishlar amalga oshirilib, zoviyayi oliya (takya) holatiga keltirildi. Ushbu takya Sulton tepaligi deb nomlangan mahallada, Mirzo-zoda bog'iga tutashgan joyda, tepalikda dengizga qaragan holda joylashgan bo'lib, Naqshbandiyadan bir kishi hozirgacha po'stnishinlik³ vazifasini bajaradi va xatmi xojagon⁴ davom ettiriladi. Go'zal takyadir⁵.

Ayvansaroyiy bergan ma'lumotlarga ko'ra, "O'zbeklar takyasi" qurilgan vaqtda uning birinchi shayxi Shayx as-Sayyid Abdulloh Afandi xalq orasida "Hoji Xo'ja / Hoji Xoja"⁶ nomi bilan mashhur bo'lgan. Takya binosi 1166 (1752–1753) yilda dastavval zarbxona emini vazifasida, keyinroq Marash viloyati hokimi vazifasida bo'lgan Abdulloh Posho tomonidan qurilgan va takyaning birinchi shayxi Hoji Xoja Abdulloh Afandiga topshirilgan.

Yana Ayvansaroyiydan aniqlaymizki, faoliyatga kirishgan takyaning xarajatlarini 1171 (1757–1758) yilda Chaprastli Hasan Ag'a ismli shaxs o'z zimmasiga olgan. Ayni paytda takyaning birinchi shayxi Hoji Xoja Abdulloh Afandi o'ziga mulk sifatida topshirilgan takya binosi va hovlisini, qo'shimcha imoratlarini Naqshbandiya tariqati uchun vaqf qilgan, takya ichidagi namozxona ichiga minbar o'rnatib masjidga aylantirgan va uning o'zi bu masjidda imom va voizlik vazifalarini bajargan. Vaqt o'tishi bilan qo'shimcha imoratlar bilan kengayib borgan, dengizga qaragan Sulton tepaligida joylashgan ushbu Naqshbandiya maskanida xatmi xojagon muntazam ravishda o'tkazilgan. Ayvansaroyiy bergan bu ma'lumotlar "O'zbeklar takyasi" haqida yozilgan ilmiy va madaniy tadqiqotlarda bir necha bor takrorlangan⁷.

¹ Zarbxona emini – davlat pullari zarb qilinuvchi zarbxonaing mas'ul amaldori.

² kadxudo – Usmonli davlatidagi amaldorlar va savdogarlar tashkilotlarining ba'zi boshqaruvchilari uchun ishlatiladigan unvon.

³ po'stnishinlik – bir tariqat xonaqohining shayxlik vazifasi; po'stnishin – bir tariqat xonaqohining shayxi bo'lgan shaxs.

⁴ xatmi xojagon – Naqshbandiya tariqatidagi zikrlarning nomi.

⁵ Hofiz Huseyin Ayvosaroyiy. *Hadīqatu'l-javomi*. 2-jild. – Istanbul: Matbaa-i Âmire, 1281. – S. 240.

⁶ "O'zbeklar takyasi" bo'yicha tadqiqotlarda takya uchun "Hoji Xo'ja takyasi" nomi qo'llanilsa-da, bu tadqiqotda "O'zbeklar takyasi" Naqshbandiya tariqatiga mansubligi, bu tariqat tashkil topganidan beri "xojagon" nomi bilan yuritilgani, shuningdek, tariqatga mansub shayx va xalifalar o'zlari uchun "xoja" sifatini qo'llaganliklari hisobga olingan holda "Hoji Xoja takyasi" nomi afzal ko'rildi.

⁷ Salim Yorganjo'g'lu. *Üsküdar Dergâhları*. Nashrga tayyorlovchi Ahmet Yuksel O'zemre. – Istanbul: Uskudar hokimligi, 2004. – S. 108; M. Baha Tanman. *Kalenderhâne. Turkiya Diyonat Vaqfi Islom Ensiklopediyasi*. 24-jild. – Istanbul: TDV nashriyoti, 2001. – S. 249–250; M. Baha Tanman. "O'zbekler Tekkesi". *Turkiya Diyonat Vaqfi Islom Ensiklopediyasi*. 34-jild. – Istanbul: TDV nashriyoti, 2007. – S. 123; Suleyman Beyo'g'lu. *Millî Mücadele ve Özbekler Tekkesi / Uskudar Simpoziumu 1: 23-25 may 2003 – ma'ruza materiallari*, muharrir: Zakeriya Kurshun va b. 1-jild. – Istanbul: Uskudar hokimligi, 2004. – S. 201; Erkan O'vuch. 1341 Defterine Göre 1925'te Üsküdar Tekkeleri // *Tasavvuf: İlmî ve Akademik Araştırma Dergisi*. – № 17 / 38. – 2016. – S. 95; Erkan O'vuch. *Üsküdar Tekkeleri Örneğinde Devlet Tekke İlişkileri*. Doktorlik dissertatsiyasi. – Chanakkale: Chanakkale O'n sakkizinchi mart universiteti, 2022. – 192 s.; Abdullah Qilich.

Ma'lumki, saljuqiylar, bekliklar va usmonlilar davrida ijtimoiy, iqtisodiy va diniy vazifalari bilan bir qatorda muhim madaniyat markazlari hisoblangan takyalar va dargohlar uchun ba'zan davlat resurslaridan ajratilgan holda, ba'zan esa kishilarning shaxsiy boyluklarini berishi orqali bir qancha vaqflar tashkil etilgan. Ayvansaroyiyning yozishicha, "O'zbeklar takyasi" Abdulloh Posho tomonidan barpo etilganidan so'ng bino, u joylashgan yer bilan birga takyaning birinchi shayxi bo'lgan Hoji Xoja Abdulloh Afandining mulki sifatida berilgan, keyin esa Hoji Xoja tomonidan Naqshbandiya tariqati a'zolariga vaqf qilingan. Usmonli davlatida bir vaqf qonuniy ravishda tashkil etilishi va uning korporativ ma'noda shakllanishi uchun vaqfnomasi (vaqf nizomi) tuzilib, mahkama ro'yxatidan o'tkazilishi kerak edi. Shu ma'noda, Abdulloh Poshoning mulkiga aylantirilgan "O'zbeklar takyasi" uchun Hoji Xoja Abdulloh Afandi tomonidan vaqf tashkil qilingan bo'lsa, vaqf hujjati o'rnida vaqfnoma yoki birorta qonuniy hujjat bo'lishi kerak. Tadqiqot doirasida, Usmonli davlat arxivlari boshqarmasi (BOA) va Vaqflar bosh boshqarmasi arxivi (VGMA) fondlarida Hoji Xoja Abdulloh Afandining vaqf qurganligini ko'rsatadigan hech qanday vaqfnoma yoki hujjat topilmadi. Qolaversa "O'zbeklar takyasi"ga bag'ishlangan tadqiqotlarda ham bunday hujjat ko'rilmagan.

Boshqa tomondan, "O'zbeklar takyasi" asoschisi Abdulloh Poshoga tegishli hijriy 1168-yil jumod-ul-avval oyining 14-kuni (milodiy 1755-yil 27-fevral) sanali vaqf hujjati mavjud¹. Abdulloh Posho, Uskudarning Mayors dahasida joylashgan Sulton IV Mehmed davrida (1648–1686) miriy² maqomida bo'lgan, keyinchalik shaxsiy mulk holiga keltirilgan bir fermani sotib olib, bu fermani va uning yaqinida Uskudardagi Nalchaji Xalil Afandi takyasi uchun qurilgan boshqa binolarni naqd ming qurush (tanga) bilan birga vaqf qilgan. Abdulloh Poshoning ushbu vaqfnomasida "O'zbeklar takyasi" haqida hech qanday so'z yuritilmagan va takyaga birorta mablag' ajratilmagan.

Takyaning qurilgan paytidagi jonli guvohlaridan biri bo'lgan Ayvonsaroyiyning takya 1166 (1752–1753) yilda qurilgani va vaqt o'tishi bilan kengayib katta dargohga aylangani haqidagi qaydlar bo'lishiga qaramay, shuningdek "O'zbeklar takyasi"ning O'zbekistondan kelgan hojilar vaqtinchalik istiqomat qilgan joy sifatida tanilganiga qaramay vaqf aloqasi o'rnatilmagani, boshqacha aytganda vaqfnomasi yo'qligi takya faoliyatining qanday moliyalashtirilgani haqida jiddiy savol tug'diradi. "O'zbeklar takyasi" Ayvansaroyiy aytganidek, 1171 (1757–1758) yilda Chaprastli Hasan Ag'aning takya xarajatlarini o'z zimmasiga olgani singari xayrsevarlar yoki Naqshbandiya tariqati a'zolari tomonidan moliyalashtiriladi edi. Yoki bu holat takya uchun vaqfnoma (vaqf nizomi) tashkil etilgan bo'lsa ham arxiv hujjatlarida aks etmagan norasmiylik bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi. Uskudar qozisi Sharifzoda Mehmed Sharifning hijriy

Tarihi Eserleriyle Üsküdar. – Istanbul: Uskudar hokimligi, 2017. – 236 s.; Mustafa Alkan. Osmanlı Devleti'nde Özbek Tekkeleri. *Yitik Hafızanın Peşinde Buhara Konuşmaları*. muharrir: Mehmet Dursun Erdem v.b. – Istanbul: Pruva nashriyoti, 2019. – S. 264–265; Hur Mahmut Yufer. Üsküdar "Özbekler Tekkesi" / *Antik Çağ'dan XXI. Yüzyıla Büyük İstanbul Tarihi*. 5-jild. – Istanbul: İBB Kültür A.Ş.-TDV İSAM, 2015. – S. 277.

¹ Vaqflar bosh boshqarmasi arxivi (VGMA). Daftar raqami: 627, 57-sahifa, 25-tartib raqami.

² Usmonli davlatida davlat mulki bo'lgan, biroq ishlatish huquqi foydalanuvchilarga berilgan yer.

1199-yil 27-zulqa'da kunida (1785-yil 1-oktabr) chiqargan farmoni "O'zbeklar takyasi"ning bu institutsional noaniqlik holatiga usmonli turkchasi bilan oydinlik kiritadi:

Qudratli davlatga kaminaning arzi shunday-ki, Uskudar shahri (tumani)dagi Xoja Hasno Xotun mahallasidagi Sulton tepasi nomli bir yerda joylashgan naqshbandiy shayxlaridan bo'lgan va Hoji Xoja nomi bilan tanilgan shayx Sayyid Abdulloh Akbar o'z tasarrufidagi 13 do'num yerda bir dargoh, besh vaqt, juma hamda ikki hayit namozlarini o'qish uchun bir jome' masjid hamda Naqshbandiya tariqati vakillari, shoirlar uchun bir uy qurib, ichida tariqat vakillari va kambag'al musulmonlarga yegulik ulashar edi. Nomi tilga olingan shayx farzand ko'rmay bu dunyoni tark etdi va uch nafar ayoli beva qoldi. Takyasiga shoirlar joylashdi, aslida esa vaqf sifatida ularga tegishli emasdi. [Shu bois,] ahli ayoli va boshqa yaqin insonlari yo'qligi uchun nomlari yuqorida tilga olingan shayxning ma'naviy farzandi shayx Mahmedni mazkur takyada Naqshbandiya tariqati marosimlarini o'tkazish va marhum shayxning ahli ayoliga nafaqa tayinlash orqali bu takyaga shayx etib tayinlashni so'raymiz.

1199-yil zulqa'da oyining 27-kuni qog'ozga tushirildi.

Sharifzoda Muhammad Sharif

Uskudar qozisi¹.

Uskudar qozisi tomonidan tayyorlangan "O'zbeklar takyasi" shayxining vafotidan keyin yangi shayxning tayinlanishi bilan bog'liq ushbu hujjat "O'zbeklar takyasi"ning korporativ tuzilmasi haqida muhim ma'lumotlarni olish imkonini beradi. Hujjatda "O'zbeklar takyasi"ning Naqshbandiya tariqatiga mansubligi ta'kidlanganidan so'ng, Hoji Xoja nomi bilan mashhur bo'lgan birinchi shayxi ash-Shayx as-Sayyid Abdulloh Akbar bo'lganligi haqida ma'lumot kiritilgan. Ko'rib chiqilayotgan hujjatning hoshiyasida takyaning birinchi shayxining ismi ota ismi bilan birga "ash-Shayx as-Sayyid Abdulloh Akbar bin as-Sayyid Asadulloh al-O'zbekiy" deb to'liq qayd etilgan. Hujjatdan aniqlanayotgan yana bir muhim ma'lumot shuki, "O'zbeklar takyasi" o'n uch *dönüm* (13 *dönüm* = 130 sotix) yerda besh vaqt namoz bilan birga juma va hayit namozlari o'qiladigan masjid hamda naqshbandiy darveshlar² istiqomat qiladigan binolardan iborat bo'lgan.

Hujjatda Uskudar qozisi tomonidan "O'zbek takyasi"ga hech qanday vaqfdan ajratilgan mablag' yo'qligi, takyaning birinchi shayxi Shayx as-Sayyid Abdulloh Akbarning farzandsiz vafot etgani, ortda uch xotini qolganligi qayd etilgan. Shuningdek hujjatda bo'sh qolgan takya po'stnishinligiga Shayx Mehmed ismli shaxsni tayinlash taklif qilingan. Uskudar qozisining taklifi avvaliga Shayxul-islom Durrizoda as-Sayyid Mehmed Orifga bildirilgani, uning "qaroriga ko'ra tayinlanishi joizdir" degan ishorasi bilan ma'qullangani, so'ngra 1199-yilning 1-zulhijja (1785-yil 5-oktabr) kuni shayx sifatida tayinlangani qayd etiladi. Hujjatda "O'zbeklar takyasi"ning vaqf qaydi yo'qligi haqidagi ma'lumot berilgan, ayni ma'lumot shu hujjatning hoshiyasida "Anadolu muhasabasida (buxgalteriya) mazkur takyaning qaydi topilmadi" deb takrorlangan. Shu

¹ Usmonli arxivi (BOA), *Cevdet Evkaf [C.EV]*, № 472/23887; bu va bundan keyingi usmonli turk tilidagi matnlarni Bahodir Musametov tarjima qilgan.

² darvesh – biror shayxga bay'at qilgan va sayru sulukini davom ettirayotgan kishi, aynan murid, solik bilan ma'nodosh. Qarang: Turar Usmon. Tasavvuf tarixi. – Toshkent: Istiqloq, 1999. – B. 69.

bilan bir qatorda “O‘zbeklar takyasi”ning birinchi shayxi Abdulloh Akbar takyaning shayxi, imom-xatibi bo‘lganligi, u 1171-yil 11-jumod-ul-avval (1758-yil 21-yanvar) kuni tayinlangani, bu vazifalari evaziga Uskudarda tashkil etilgan Sobiq Zarbxona Emini Abdulloh Afandi masjidi fondidan unga har kuni 7 aqcha ajratilgani haqida ma’lumot aks etgan¹.

Bu ma’lumotlardan kelib chiqib aytish mumkinki, “O‘zbeklar takyasi” 1166 (1752–1753) yilda qurilganidan keyin birinchi shayx Abdulloh Akbar Afandi vafot etgan 1785-yilga qadar vaqf yozuvi bo‘lmagan. Bu davrda takya shayxi Abdulloh Akbar Afandi o‘z vazifalari evaziga Sobiq Zarbxona Emini Abdulloh Afandi masjidi fondidan unga ajratilgan kunlik 7 aqcha maosh bilan shayx, voiz va imomlik faoliyatini amalga oshirgan. Bu jihatdan olib qaraganda “O‘zbeklar takyasi” – birinchi shayx Abdulloh Akbar Afandi vafot etishiga qadar (o‘ttiz yildan ortiq faoliyat yuritgan bo‘lsa-da) davlat ro‘yxatidan o‘tmagan bo‘ladi. “O‘zbeklar takyasi”ning ro‘yxatga olinmaganlik holati ushbu tadqiqotimizga ham manba bo‘lgan 1202-yil 7-rabi-ul-oxir (1788-yil 16-yanvar) sanasidagi “al-Hoj Xalil Og‘a ibn Ahmad vaqfnomasi” bilan tugallanadi va takya rasmiy qayddan o‘tib, o‘zining korporativ identifikatoriga ega bo‘ladi.

“O‘zbeklar takyasi”ning rasmiy institutsiyalashuvi:

Al-Hoj Xalil Og‘a ibn Ahmad Afandi vaqfnomasi

Bir vaqfning ta'sis hujjati va huquqiy asos hujjati bo‘lgan vaqfnomalarning har biri o‘ziga xos mazmunga ega bo‘lib, umuman olganda vaqfning maqsadi, ushbu maqsadga muvofiq xayriyaga bag‘ishlangan mulklarni va vaqfning ishlash shartlarini o‘z ichiga oladi. Bundan tashqari, har bir vaqfnomaning hajmi va shakliy xususiyatlari bir-biridan farq qilishi mumkin. Biroq, umuman olganda, saljuqiylar, bekliklar va usmonlilar davrlaridan saqlanib qolgan vaqfnomalar misolida aytish mumkinki vaqfnomada vaqfni ro‘yxatdan o‘tkazish va tasdiqlash iboralari, hamd-salavot / duo qismlari, vaqf tavsifi, xayriya qilingan / mahrum etilgan xayriya fondlari va jamg‘arma daromadlarining bayoni, vaqf boshqaruvi, nazorati va ishlatish shartlarining ko‘rsatilishi, huquqiy ta'sis qoidalari, sana va guvohlar bo‘limlaridan iborat.

Uskudar “O‘zbeklar takyasi”ning ta'sis nizomi bo‘lgan 1202-yil 7-rabi-ul-oxir (1788-yil 16-yanvar) sanasidagi “al-Hoj Xalil Og‘a ibn Ahmad vaqfnomasi” Vaqflar Bosh boshqarmasi arxivida, 578-raqamli daftarning 199–200 sahifalarida 58 tartib raqami bilan ro‘yxatdan o‘tgan². 28 qatordan iborat vaqfnoma matnidan tashqari matn ustida vaqfnomani ro‘yxatga olish yozuvi, vaqfnoma matnining oxirida esa guvohlar qismi mavjud. Vaqfnoma qayd etilgan sahifaning pastki qismida vaqfnomaning vaqf daftarchasiga qayd etilishini umumlashtiruvchi bayonnoma mavjud.

¹ BOA, C.EV, № 472/23887.

² VGMA, Daftar raqami 578, 199-sahifa, 58-tartib raqami.

Vaqfning nomi va tartib raqami. Vaqfnomaning boshida vaqfning nomi vaqf kitobidagi tartib raqami bilan birga 58- *Vaqfi Zoviyayi O'zbekiyayi Marhum Hoji Xoja dar Mahallayi Xoja Hasno* sifatida qayd etilgan. Vaqfnoma orqali korporativ identifikatorga ega bo'lgan "O'zbeklar takyasi" usmonli rasmiy yozuvlarida *Marhum Hoji Xoja O'zbekiya zoviyasi vaqfi* nomi bilan atalgan. Quyida vaqfnomaning tegishli qismida aytib o'tilganidek, vaqfning asoschisi al-Hoj Xalil Og'a ibn Ahmad ismli shaxs bo'lsa-da, vaqf tashkilot sifatida u yerdagi birinchi shayx Hoji Xoja nomi bilan atalganligi ayon bo'lmoqda.

Ro'yxatga olish va tasdiqlash bayonotlari. Vaqfnomalarda ushbu vaqf hujjati qonuniy nazorat qilinganligi va amaldagi qonun hujjatlariga muvofiqligi ro'yxatga olish va tasdiqlash ifodalari bilan bildirilgan. Ushbu bo'limda vaqf tashkil etilgan ma'muriy hududning qozisi, noibi yoki vaqfnomani tasdiqlash vakolatiga ega bo'lgan vakolatli shaxsning ismi odatda ko'rsatiladi:

Unda vaqf va ro'yxatga olishga oid narsalar mavjud bo'lib, mening huzurimga kelgan. Men uning to'g'riligini va majburiy ekanini hukm qildim, sharaqli va aziz avlodlardan bo'lgan imomlar orasidagi ixtilofni bilgan holda. Men, Subhanahu va Taolo Zotga muhtoj bir bandaman, Abdulkarim – vaqf ishlarini ko'rishga mas'ul bo'lgan kishi. (Alloh tomonidan) mag'firat qilingan bo'lsin¹.

"O'zbeklar takyasi" ta'sis vaqfnomasining boshidagi tasdiq ifodalaridan ma'lum bo'lishicha, vaqfnoma vaqflar inspektori Abdulkarim tomonidan tekshirilgan va vaqfnoma mazmuni amaldagi qonunchilikka muvofiqligi tasdiqlangan.

Duo / Da'vat (hamd / salovat). Vaqfnomalarning kirish qismlarida Allohga hamdu sano jumalari, Payg'ambar alayhissalomga salovot va salomlar bilan birga, yaxshilik qilish va sadaqa berishning fazilatlarini bayon etuvchi, vaqf tashkil etishning ma'naviy asosi bo'lgan oyat va hadislar ham o'rin oladi. Vaqf asoschisining maqomi va tashkil etilgan vaqfning katta-kichikligi ushbu qismning uzunligi yoki qisqaligini belgilab beradi.

"O'zbeklar takyasi"ning vaqfnomasida bu qism juda qisqa qilib, Alloh taolaga hamd va payg'ambarga salovot va salomlar bilan cheklangan:

Barcha hamdu sanolar olamlarning Parvardigori Alloh taolaga bo'lsin. Salovatu salomlar habibimiz va shafokatkorimiz Muhammad Mustafoga, uning oilasi va barcha sahobalariga bo'lsin!

Voqif, ya'ni vaqf asoschisini tanishtirish. Vaqfnomalarda duo qismlaridan keyin "ammâ ba'd" iborasi bilan vaqfnomaning yozilishiga sabab bo'lgan vaqfning ta'sischisi tanishtirilgan qism keladi. Bu qismda vaqf ta'sischisining ismi, otasining ismi, qayerdanligi, kasbi, unvoni va taxalluslari yoziladi.

"O'zbeklar takyasi"ning vaqfnomasida vaqf ta'sischisining ismi, ota ismi va kasbi quyidagicha ko'rsatilgan:

¹ Arab tilidagi bu matnni Javohir Zafarzoda tarjima qilgan.

Ammâ ba'd; işbu kitâb-ı sıhhat-nisâbın tahrîr ve inşâsına bâdî oldur ki ashâb-ı hayrâtıdan ve tüccâr-ı zevi'l-iktidârdan el-Hâc Halil Ağâ ibn Ahmed Efendi meclis-i şer'-i şerîf-i lâzımı't-teşrîfde zikr-i âti vakfına li-ecli't-tescîl mütevellî nasb olunan Şeyh el-Hâc Abdulgâfûr Efendi ibn Mehmed Âlim mahzarında ikrâr-ı sahih ve i'tirâf-ı sarîh idüp...

Vaqfnomada vaqf ta'sischisi Xalil Og'a ibn Ahmad Afandi nomi oldidagi "tüccar-i zevi'l-iktidâr" iborasidan uning savdo-sotiq bilan shug'ullangani va iqtisodiy jihatdan boy bo'lgani tushuniladi. Ta'sischi Xalil Og'a haj farzini ham amalga oshirgani uchun "al-Hoj" deb ta'riflangan. Ushbu qismda vaqfning tashkil etilishida huquqiy element bo'lgan va vaqfnomaning keyingi qismida nomi yana tilga olinadigan ro'yxatga olish mutavallisi Shayx al-Hoj Abdulg'afur Afandi ibn Mehmed Olim nomli kishi tilga olinadi. Vaqfnomada ro'yxatga olish mutavallisi sifatida tilga olingan Abdulg'afur Afandi ayni paytda "O'zbeklar takyasi"ning shayxi hamdir.

Mavquf. Atama jihatidan *mavquf* vaqf ta'sischisiga tegishli bo'lib, endilikda xayriya qilinayotgan ko'char yoki ko'chmas mulkni anglatadi. *Mavquf*, vaqf maqsadini amalga oshirish uchun xayriya shaklida berilgan ko'chmas mulk bo'lishi mumkin yoki vaqf maqsadi bo'yicha faoliyatni amalga oshirishga imkon beradigan daromad shaklidagi ko'char va ko'chmas mulk bo'lishi mumkin.

O'zbeklar takyasining vaqfnomasida Uskudardagi Sulton tepaligidagi Xoja Hasno Xotun mahallasida joylashgan, vaqfnomada chegaralari va xususiyatlari aniq ko'rsatilgan mulklar vaqf asoschisi Xalil Og'a ibn Ahmad Afandi tomonidan bag'ishlanganligi bildirilgan. Vaqf ta'sischisi Xalil Og'a quyidagi mulklarni vaqf qilgan, shuningdek u o'zi tashkil etgan vaqfga daromad keltiruvchi biror narsa vaqf qilmagan:

Medîne-i Üsküdar'da Sultan Tepesi nâm mahalde Hâce Hesnâ Hâtun Mahallesi'nde vâkı' bir tarafdan Şeyhülislâm-ı esbâk merhûm Mirzazâde es-Seyyid Mehmed Efendi veresesi bağı ve bir tarafdan Kuzguncuk Karyesi'ne giden tarîk-i âmm ve bir tarafdan harâb bağ ve bir tarafdan Kara Kethüdâ bağçesine giden tarîk-i âmm ile mahdûd dâhiliyede fevkânî üç bâb oda ve dîvânîhâne ve kenîf ve abdesthâne ve tahtânî bir matbah ve hâriciyede fevkânî iki bâb oda ve dîvânîhâne ve tahte's-semâ ve tahtânî iki bâb meydân odası ve üç bâb dervîşân odası ve kenîf ve ahur ve kömürlük ve eşcâr-ı müsmire ve gayr-i müsmireli kebîr bağçe ve bağçe-i mezkûra muttasıl kürûm-ı mağrûseli bağ ve bağçe derûnunda bir harâb köşk ve bi'r-i mâ' ve sâir müştemilât-ı ma'lûmeyi hâvî zâviye ta'bîr olunur bir bâb mülk menzilimi bi-cümleti mâyeştemiluhû ve yahvihî hasbeten lillâhi'l-âlim ve taleben li-vechi'l-kerîm vakf-ı sahîh-i müebbed ve habs-i sarîh-i muhalled ile vakf ve habs idüp...

Vaqf ta'sischisi Xalil Og'a o'zining Uskudarning Xoja Hasno Xotun tumanidagi Sulton tepaligida joylashgan, chegaralari Mirzazoda bog'i, Quzg'unjuq qishlog'iga olib boradigan yo'l va Qarakatquda bog'iga boradigan yo'llarga tutashgan hovlisini va hovli ichidagi mulklarini vaqf qilib bergan. Vaqf qilingan va zoviya deb atalgan mulklar quyidagilardir:

– birinchi qavatda oshxona, yuqori qavatda uchta xona, katta so'ri (devonxona), hojatxona va tahorat xonasi bo'lgan ko'shk binosi;

- ko‘shkning tashqi tomonida ikki qavatli: pastki qavatda ikki maydonxona, yuqori qavatda ikki xona, bir so‘ri (devonxona) va chordoq qavatidagi xonalar;
- darveshlar uchun uchta xona;
- hojatxona;
- omborxona va og‘ilxona;
- mevali va mevasiz daraxtlarga ega katta bog‘;
- bu bog‘ga tutash uzumzor;
- bog‘dagi xaroba holdagi ayvon;
- quduq
- va boshqa yordamchi binolar.

Mashrutun-lah / Vaqfdan foydalanuvchilar. *Mashrutun-lah* atamasi vaqf ta‘sischisi tomonidan vaqfdan foydalana oladigan kishilarni ifodalash uchun ishlatiladi. Ta‘sischi vaqf qilingan narsalardan kim, qachon, qanday va qay yo‘sinda foydalana olishini belgilashi va cheklab qo‘yishi mumkin.

Vaqfdor Xalil Og‘a zoviya deb atalgan va o‘zi vaqf qilgan mulkni ishlatish huquqini va takyada yashash huquqini vaqf tuzilgan paytda “O‘zbeklar takyasi” shayxi bo‘lgan Abdulg‘afur Afandiga bergan. U zotning vafotidan keyin shayx bo‘ladigan kishilar va Movaraunnahrda O‘zbek viloyatining Samarqand shahridagi Qalandarxona mahallasidagi o‘zbek darveshlariga foydalanishni mumkin qilib belgilab qo‘ygan. Darhaqiqat, bu maxsus belgilov vaqfning nomlanishida ham o‘z aksini topdi va vaqf nomi *Zoviya-i O‘zbekiya* – “O‘zbeklar takyasi” sifatida rasmiylashtirildi:

Menzil-i mezkûrda hâlâ bâ-berât-ı âlîşân Nakşibendiyye-i Özbekiyye şeyhi olan mezbûr Şeyh el-Hâc Abdulg‘afûr Efendi hayâtında meşihat-ı mezkûreye mutasarrîf oldukça menzil-i mezkûrda ile’l-vefât sâkin olup vefâtından sonra her kim zâviye-i mezkûrede bâ-berât-ı âlîşân şeyh olur ise zâviye-i mezkûrede sâkin ola ve zâviye-i mezbûrede şeyh olan kimesneden mâ’adâ Mâverâünnehir’de Özbek vilâyetinde Semerkand kasabasında Kalenderhâne Mahallesi ahâlisinden müteehhil olmayup mücerred olan fukarâ-i Özbekiyye dervîşânı menzil-i mezkûrda sâkin olalar...

Tarjimasi: *Tilga olingan manzilda oliy barot ila Naqshbandiy o‘zbeklar shayxi hisoblanmish mazkur shayx Xoji Abdulg‘ofur Afandi o‘z hayoti davomida mazkur zoviya shayxi bo‘lib qoladi va istiqomat qiladi. Vafotidan so‘ng esa kimki oliy barot ila ushbu zoviya shayxi etib tayinlansa, ushbu zoviyada istiqomat qilishi mumkin. Nomi tilga olingan zoviyada shayx bo‘lgan kishidan tashqari Movarounnahrdagi O‘zbeklar viloyatining Samarqand shahrida joylashgan Qalandarxona mahallasidan bo‘lgan oilali bo‘lmagan, aksincha yolg‘iz yashovchi (bo‘ydoq) kambag‘al o‘zbek darveshlari nomi tilga olingan manzilda istiqomat qilishlari mumkin...*

Vaqfning boshqaruv va nazorat shartlari: Tavliyat va nazorat. Vaqfnoma shartlariga muvofiq vaqf boshqaruvi vasiylar tomonidan amalga oshiriladi. Vaqfning eng vakolatli boshqaruvchisi bo‘lgan mutavalli vasiy, vaqfnomada tayinlangan nozir tomonidan nazorat qilinishi, tekshirilishi mumkin.

“O‘zbeklar takyasi” vaqfning asoschisi Xalil Og‘a tirikligi paytida o‘zini vaqfning vasiysi etib tayinlagan va vaqf shartlarini o‘zgartirish vakolatini o‘z zimmasiga olgan¹.

Vaqfnoma shartiga ko‘ra, vasiylik Xalil Og‘a vafotidan keyin meros tartibiga ko‘ra Xalil Og‘aning farzandlariga o‘tadi. Vasiylik Xalil Og‘aning farzandlari orasidan eng munosibiga, kattasiga beriladi. Agar nimadir bo‘lib, vaqfdor Xalil Og‘aning nasabi uzilib, Xalil og‘a avlodlaridan vasiylik qiladigan kishi bo‘lmasa, “O‘zbeklar takyasi” shayx va darveshlari orasidan ishonchli vasiy saylanadi va vaqf nozirining roziligi bilan vasiylik lavozimini egallashi mumkin bo‘ladi.

Vaqfnomaga ko‘ra, vaqfning nazorati, tekshiruvi o‘sha davr shayxulislomiga (*shayxu mashoyixil-islom va mufti'l-an'omning oliy nazoratlari ostida*) yuklangan. Vaqf ta'sischi va ayni paytda vaqf vasiysi bo‘lgan Xalil Og‘a vaqf uchun belgilagan shart-sharoitlarni bir kun kelib amalga oshirish imkoni bo‘lmay qolsa, vaqfini yo‘qsil musulmonlar uchun sarflanishi kerakligini vaqfning sharti sifatida belgilagan.

... ve vakf-ı mezkûr şeyhu meşâyihî'l-islâm ve müftî'l-enâm hazretlerinin sâye-i nezâret-i aliyyelerinde âsûde ola ve tevliyet-i vakf-ı mezkûra lâbis-i libâs-ı hayât oldukça ben mutasarrıf olup vefâtımdan sonra evlâdımın ve evlâd-ı evlâdımın ve evlâd-ı evlâd-ı evlâdımın batnen ba‘de batnin erşedi mütevellî ola ve ba‘de inkırâzi'l-evlâd tevliyet-i mezkûre nâzir-ı müşârun-ileyh hazretleri re‘y-i âlileriyle zâviye-nişîn olan şeyh ve dervîşânın muhtârları emîn ve müstakNım bir kimesne m³tevellî ola ve şurût-ı mezkûrenin tebdîl ve tağyîri merraten ba‘de uhrâ yedimde ola ve mürûr-ı ezmîne ile şurût-ı mezkûreye ri‘âyet müte‘azzire olur ise vakf-ı mezkûr mutlaka vakf-ı fukarâ-yı müsîmîn ola deyu ta‘yîn-i şurût ve tebyîn-i kuyûd birle...

Tarjimasi: ...mazkur vaqf mashoyixul-islom shayxi, muftiy hazratlarining oliy nazorati soyasi ostida osuda bo‘lgay, hamda nomi tilga olingan vaqfni boshqarish ishlariga men mas‘ul bo‘laman. Vafotimdan keyin farzandlarimdan, farzandlarimning farzandlaridan, farzandlarimning farzandlarining farzandlaridan eng taqvolisi boshqaruvchi bo‘lgay. Nasl to‘xtab qolgan taqdirda esa nomi tilga olingan vaqf boshqaruviga shayx hazratlarining vasiyatlariga binoan zoviya shayxlari va darveshlari ishonchli deb hisoblagan kishi tayinlangay. Tilga olingan vaqf hujjatini bir necha marta o‘zgartirish mumkin emas. Zamonlar o‘tishi bilan qayd etilgan shartlarga rioya qilish uzrli sabablar bilan mumkin bo‘lmay qolsa, nomi tilga olingan vaqf to‘laligicha musulmon kambag‘allar vaqfi bo‘lsin deb tayinladim...

Vaqfning ta'sis etilishi: taslim-tasallum (oldi-berdi) va vaqfning zaruratini aniqlash. Usmonli davlati vaqf qonunchiligi hanafiy mazhabi qoidalariga asoslangan va bu qoidalar boshqa vaqf amaliyotlarida bo‘lganidek vaqfnomalarda ham o‘z aksini topgan. Hanafiy fiqhi asoschisi Imom Abu Hanifa va uning talabalari Imom Muhammad va Imom Abu Yusufning vaqf ta'sis etilishi, vaqfdan voz kechish,

¹ Zero, vaqfdor Xalil Og‘a bir muncha muddat o‘tgach Uskudar mahkamasiga murojaat qilib, vaqf shartlarini o‘zgartirgan. “O‘zbeklar xonaqohi”ning vaqfdori Xalil Og‘a vaqfnomada dastlab O‘zbekistonning Samarqand shahrining Qalandar mahallasidan bo‘lgan darveshlargina qolishi mumkinligini belgilab qo‘ygan bo‘lsa, keyinchalik bu shartini o‘zgartirib, nafaqat naqshbandiy o‘zbek darveshlari, balki boshqa naqshbandiy darveshlari ham qolishi mumkinligini qayd ettirgan. Hijriy 1203-yil 11-jumod-ul-oxir (1789- yil 9- mart) sanasidagi hujjatga qarang: BOA, Istanbul muftiyligi Avqofi Humoyun inspeksiyasi [IMUF-EHMM], № 237, 86.

vaqfning mustahkamligi va zarurligi kabi masalalardagi turli qarashlari vaqfnoma matnlarida o'z ifodasini topgan va vaqfning huquqiy ta'sis etilganini e'lon qilgan qozilar ushbu fikrlarga muvofiq ravishda qarorlar qabul qilgan va vaqflarning ta'sis etilishini rasmiylashtirgan.

“O'zbeklar takyasi”ning vaqfnomasida ta'sischi Xalil Og'a va vaqfni ro'yxatga olgan mutavalli o'rtasidagi *taslim-tasallum* (oldi-berdi / rozilik) bitimi vaqfnomaga kiritilgan. Xalil Og'a mazkur mulklarni vaqf qilganini qayd etib, vakil qilib tayinlagan “O'zbeklar takyasi” shayxi Abdulg'afur Afandiga topshirganidan keyin Imom Abu Hanifaning qarashlari asosida vaqfdan voz kechganini ma'lum qilgan va vaqf qilingan mulklarini qaytarib olishni xohlagan. Vakil Abdulg'afur Afandi esa, Imom Abu Yusuf va Imom Muhammadning fikrlarini dalil qilib keltirgan va vaqfnoma tuzilganidan va vaqf mulki topshirilgandan keyin Xalil Og'aning vaqf qurishdan voz kechishi mumkin emasligini ta'kidlagan. Har ikki tomonni ham tinglagan qozi “*vakf-ı mezkûrun sıhhat ve lüzûmuna alâ kavli men yerâhu hükm-i sahîh-i şer'î ve kazâ-i sarîh-i mer'î eyleyüp vakf-ı mezkûr sahîh ve lâzım ve mütehattım olup nakz ve nakzını ve tebdîl ve tahvîli adîmü'l-ihimâl oldu*” (tarjimasi: *nomi tilga olingan vaqfning to'g'riligi va qonuniyligi hamda bu vaqfni bekor qilmaslik va almashtirmaslik haqida qaror chiqardi*) degan ifodalar bilan vaqf ta'sisini amalga oshirishga hukm bergan va vaqf ta'sisini tugallagan:

... *menzil-i mahdûd-ı mezkûru mütevellî-i merk'ma teslîm ol dahi kabz ve tesellüm ve bi't-tevliye tasarruf eyledi didükde gibbe't-tasdiki ş-şer'î vâkıf-ı merk'm semt-i vifâkdan cânib-i şikÖka âzim olup vakf-ı akar mefhâr-ı eimme-i kibâr üstâdü'l-eimmeti'l-müctehidîn Ebû Hanîfe Nu'mân bin Sâbit el-Kûfî âmelehullâhu te'âlâ bi-lutfihi'l-celî hazretleri nezd-i âlîlerinde sahîh lâkin gayr-ı lâzım olmakla vakf-ı mezkûrden rücu' ve mevk'f-ı merk'mu ke'l-evvel m'lk'me istirdâd iderim didükde mütevellî-i merk'm dahi cevâb-ı bâ-savâba tasaddî idüp egerçi hâl vâkıf-ı merk'mun takrîr-i meşrûhu üzeredir lâkin İmâm Ebû Yûsuf hazretleri katında vâkıf mücerred vakaftu dimekle ve İmâm Muhammed hazretleri indinde teslîm ile'l-mütevellî bulunmakla vakf-ı sahîh ve İmâmeyn-i müşârun-ileyhimâ hazretlerinin re'y-i münîrlerinde sıhhat-ı vakfiyet lüzûmundan gayr-ı müfârik olmağla anların mezheb-i şerîfleri üzere vakf-ı mezkûrun lüzûmuna hüküm ricâ iderim deyu redd ve teslîmden imtinâ' birle hâkim-i muvakkı'-ı sadr-ı kitâb efendi hazretleri huzûrunda müterâfi'ân ve her biri mübteğâsınca fasl u hasme tâlibân olduklarında hâkim-i mûmâ-ileyh esbağallâhu ni'amehû aleyh dahi tarafeynin kelâmını teemmül ve cânib-i vakfi tercîh birle âlimen bi'l-hilâf vakf-ı mezkûrun sıhhat ve lüzûmuna alâ kavli men yerâhu hükm-i sahîh-i şer'î ve kazâ-i sarîh-i mer'î eyleyüp vakf-ı mezkûr sahîh ve lâzım ve mütehattım olup nakz ve nakzını ve tebdîl ve tahvîli adîmü'l-ihimâl oldu...*

tarjimasi: ...*nomi tilga olingan [va] chegaralari belgilangan manzil nomi tilgan olingan mutavalliyga boshqarish uchun topshirildi, deganimizda nomi tilga olingan vaqf ta'sischisi [vaqf] qonuniy jihatdan tasdiqlanganidan so'ng rozilik manzilidan buzg'unchilik manzili tomon burildi [hamda] ko'chmas mulkni imomlar faxri, mujtahidlar¹ imomi Abu Hanifa No'mon ibn Sobit al-Kufiy – Alloh taolo u kishini o'z lutfi bilan siylasin! – hazratlari nazdi oliyalarida “to'g'ri” lekin “lozim bo'lmagan” bir holda nomi tilga olingan vaqfdan qaytdi hamda nomi tilga olingan vaqf etib ta'sis etilgan mulklarni avvalgidek o'z mulkim sifatida qaytarib olaman deganida, nomi tilga olingan mutavalliy ham nomi tilga olingan vaqf ta'sischisining vaziyati izohga*

¹ *mujtahid* – ijtihod huquqiga ega bo'lgan, ya'ni mustaqil ravishda diniy aqidaviy va huquqiy masalalar bo'yicha xulosa bera oladigan va hukm chiqara oladigan shaxs.

ehtiyoj sezsa ham, to'g'ri hukmga teskari yondashdi. Lekin Imom Abu Yusufga ko'ra, vaqf ta'sischisi bir marta "vaqf qildim" deyish bilan, Imom Muhammadga ko'ra esa mutavalliyga boshqarish uchun topshirish orqali to'g'ri vaqf deb hisoblanishi mumkin. Bu ikki imom hazratlarining fikrlariga ko'ra, vaqfning to'g'riligi shartidan ayrilish orqali ularning mazhablariga ko'ra, nomi tilga olingan vaqfning to'g'riligiga qaror qildim deyish orqali uni rad qilish yoki topshirishdan man qilish orqali qozi va kotib huzurida o'z haqlarini himoya qilganlarida qozi ikki tomonning so'zini eshitib, nomi tilga olingan vaqfning to'g'ri vaqf ekanligi borasida hukm chiqardi va shu tariqa bu vaqfni bekor qilish yoki boshqasiga almashtirish taqiqlandi...

Sana va guvohlar. Al-Hoj Xalil Og'a ibn Ahmad tomonidan "O'zbeklar takyasi" uchun tuzilgan vaqfnomaning oxirida hijriy 1202-yil 7-rabi-ul-oxir (1788-yil 16-yanvar) sanasi qayd etilgan. Vaqfnomaning guvohlari (shuhudul-hol) sifatida al-Hoj Muhammad Shokir Afandi, Mulla Ismoil ibn Hasan, Mustafo Og'a ibn Abu Bakr, Ismoil Halim Afandi ibn Ibrohim, Hofiz Ahmad Afandi va ismlari yozilmagan boshqa shaxslar o'rin olgan.

Vaqfning mahkamada ro'yxatga olinishi va Anado'li buxgalteriyasida qayd etilishi. Al-Hoj Xalil Og'a ibn Ahmad tomonidan "O'zbeklar takyasi" uchun tashkil etilgan vaqfning hijriy 1202-yil 7-rabi-ul-oxir (1788-yil 16-yanvar) sanasidagi vaqfnomasi, *vaqf noziri Abdulkarim* tomonidan tekshirilgan va uning tarkibining qonuniyligi tasdiqlangan va vaqfnomaga qayd etilgan.

Tashkil etilgan vaqf davlat va qonun oldida o'zining institutsional mavjudligini tasdiqlatish uchun mahkamadan ro'yxatdan o'tkazilishi kerak bo'lgan. Shu o'rinda mahkama hujjatlarida vaqf ta'sischisi al-Hoj Xalil Og'aning vaqfnoma tuzilgan kundan taxminan bir yarim oy o'tib Uskudar mahkamasiga murojaat qilganini ko'ramiz.

Uskudar shar'iy reestrda qayd etilgan 1202-yil 21-jumod-ul-avval (1788-yil 28-fevral) sanasidagi farmon mazmunidan bilib olganimizdek, vaqf ta'sischisi Xalil Og'a vaqfnoma bilan ro'yxatdan o'tish uchun Uskudar mahkamasiga murojaat qilgan va Uskudar qozisi Mehmed Emin Afandi vaqfnomani ko'rib chiqqan, vaqfning qonuniyligini va vaqf hujjatining mazmunini tasdiqlagan va ushbu vaqfnomaning Anado'li muhosaba (buxgalteriya) bo'linmasiga qayd qilinishini iltimos qilgan holda saltanat maqomiga yuborgan¹.

Uskudar mahkamasining talabidan bir kun o'tib, vaqfni ro'yxatga olish tartib-qoidalarini yakunlash va Anado'li muhosaba idorasiga qayd etish uchun farmon chiqarilgan va bu farmonga muvofiq vaqf ro'yxatga olinib qayd etilgan. Ushbu amaliyotlarni jamlovchi bayonnomalar vaqfnomaning ostida qayd etilgan².

¹ BOA, *Istanbul muftiyligi Shayxulislom shariat qayd daftarlari [ISTM.SSC]*, № 06.d.523, s. 59.

² VGMA, Daftar raqami: 578, 200-sahifa.

Xulosa

Tadqiqot doirasida “O‘zbeklar takyasi”ning tashkil etilishida o‘ta muhim o‘rin tutgan vaqfnomaning diplomatik elementlariga alohida to‘xtalib o‘tildi va vaqfnomaning mazmuni tahlil qilindi. Tadqiqotda mavjud manbalardagi ma’lumotlarga ko‘ra, zarbxona emini va Marash hokimi vazifasida ishlagan Abdulloh Posho tomonidan 1752–1753 yillarda barpo etilgan “O‘zbeklar takyasi”ning birinchi shayxi Shayx Abdulloh tomonidan vaqf tashkil etilgani haqidagi ma’lumotlar so‘rovi tashkil etildi va huquqiy jihatdan bunday vaqf mavjud emasligi arxiv hujjatlari asosida aniqlandi. Boshqa tomondan, hozirgi bilim dunyosida Ayvansaroyiy bergan ma’lumotlarga muvofiq “O‘zbeklar takyasi”ning birinchi shayxi Shayx Abdulloh ekani haqidagi ma’lumotlar, yana-da to‘g‘rilanib, uning to‘liq nomiga aniqlik kiritildi: *Sayyid ash-Shayx Abdulloh Akbar Afandi ibn Asadulloh al-O‘zbekiy*. Shu bilan bir qatorda tadqiqot doirasida, takyaning birinchi shayxi Abdulloh Akbar Afandiga 1758–1785 yillar oralig‘ida “Amini Zarbxonayi Sobiq Abdulloh Afandi” fondidan kuniga 7 aqchadan ajratilgani, “O‘zbeklar takyasi” uchun mustaqil vaqf ta’sis etilmagani va bu davrda institutsional tarzda qayd etilmagani ko‘rsatib o‘tildi.

“O‘zbeklar takyasi” uchun 1788-yilda al-Hoj Xalil Og‘a ibn Ahmad Afandi tomonidan vaqf tashkil etilgan va shu tariqa takyaga huquqiy maqom berilgan. Vaqfnoma shartlariga ko‘ra, “O‘zbeklar takyasi” Naqshbandiya dargohi bo‘lib, Samarqand shahrining Qalandarxona mahallasidagi darveshlarga xizmat ko‘rsatgan. Vaqf ta’sischisi Xalil Og‘a keyinchalik vaqf shartlarini o‘zgartirib, boshqa naqshbandiy darveshlariga ham takyada qolish huquqini beradi. Vaqfnomada 1752–1753-yillardan buyon xizmat qilganligi ma’lum bo‘lgan takya hovlisi va undagi binolar, tokzor, bog‘ va boshqa xo‘jalik inshootlari vaqf ta’sischisi al-Hoj Xalil Og‘aning mulki sifatida ta’riflanadi va bu mulklar Xalil og‘a tomonidan vaqf qilinganligi qayd etiladi. “O‘zbeklar takyasi” qurilgan yer, takya binosi va boshqa binolar qanday qilib vaqf ta’sischisi Xalil Og‘aning mulkiga aylangani haqidagi savol “O‘zbeklar takyasi”ning tashkil etilishi tarixidan javob topishi kerak bo‘lgan muhim masalalardan bo‘lib turibdi. Vaqfnomada faqat xayriya binolari ajratilganligi va ta’mirlash, darveshxona shayxlari va darveshlarining xarajatlari kabi vaqf moddiy ehtiyojlarini qoplash uchun hech qanday daromad keltiruvchi narsa vaqf qilinmaganligi, al-Hoj Xalil Og‘a tomonidan tashkil etilgan vaqfning haqiqatda mavjud bo‘lgani, lekin rasmiy hujjatlarda uchramagan biror vaqf manbai bor bo‘lishi mumkinligiga ishora qiladi.


Adabiyotlar

Arxiv manbalari


- BOA, Usmonli arxivi. *Cevdet Evkaf [C.EV]*, № 472/23887.
- BOA, Usmonli arxivi. *İstanbul Müftülüğü Evkaf-ı Hümayun Müfettişliği [IMUF-EHMM]*. № 237, 86.
- BOA, Usmonli arxivi. *İstanbul Müftülüğü Meşihat Defterleri Şer'iyeye Sicil Defterleri [İSTM.ŞSC]*. № 06.d.523, s. 59.
- VGMA, Vaqflar bosh boshqarmasi arxivi (VGMA). Daftar raqami: 627, 57-sahifa, 25-tartib raqami: *al-Hoj Abdulloh Posho bin Mehmed Posho vaqfnomasi*.
- VGMA, Vaqflar bosh boshqarmasi arxivi. Daftar raqami 578, 199-sahifa, 58-tartib raqami: *al-Hoj Xalil Og'a ibn Ahmad vaqfnomasi*.

Boshqa manbalar


- Mustafa Alkan. Osmanlı Devleti'nde Özbek Tekkeleri. / *Yitik Hafızanın Peşinde Buhara Konuşmaları*. Muharrir: Mehmet Dursun Erdem – Necip Fazıl Kurt – Özcan Güngör.– İstanbul: Pruva nashriyoti, 2019. – S. 248–285.
- Hâfız Hüseyin Ayvasarâyî. *Hadikatü'l-cevâmî'*. – İstanbul: Matbaa-i Âmire, 1281.
- Süleyman Beyoğlu. Millî Mücadele ve “O'zbeklar takyasi. / *Üsküdar Sempozyumu I: 23-25 Mayıs 2003 - Bildiriler*, muharrir: Zekeriya Kurşun vb.. – İstanbul: Uskudar hokimligi, 2004. – 1 / 201–210.
- Abdullah Kılıç. *Tarihi Eserleriyle Üsküdar*. – İstanbul: Uskudar hokimligi, 2017.
- Erkan Övüç. 1341 Defterine Göre 1925'te Üsküdar Tekkeleri // *Tasavvuf: İlmî ve Akademik Araştırma Dergisi*. 17 / 38 (2016). – S. 55–113.
- Üsküdar Tekkeleri Örneğinde Devlet Tekke İlişkileri*. Doktora Tezi. – Çanakkale: Çanakkale Onsekiz Mart Üniversitesi, Lisansüstü Eğitim Enstitüsü, 2022.
- M. Baha Tanman. Kalenderhâne. *Türkiye Diyanet Vakfı İslâm Ansiklopedisi*. – İstanbul: TDV nashriyoti, 2001. – 24 / 249–250.
- O'zbeklar takyasi. *Türkiye Diyanet Vakfı İslâm Ansiklopedisi*. – İstanbul: TDV nashriyoti, 2007. – 34 / 123–124.
- Salim Yorgancıoğlu. *Üsküdar Dergâhları*. Nashrga tayyorlovchi: Ahmet Yüksel Özemre. – İstanbul: Uskudar hokimligi, 2004.
- Hür Mahmut Yücer. Üsküdar “O'zbeklar takyasi. *Antik Çağdan XXI. Yüzyıla Büyük İstanbul Tarihi. S / TU-TİZ*. – İstanbul: İBB Kültür A.Ş.-TDV ISAM, 2015.



Ilova 1. O‘zbeklar takyasining birinchi shayxi Ash-Shayx as-Sayyid Abdulloh Akbar vafotidan keyin bo‘sh qolgan takya po‘stninishligiga Shayx Mehmed ismli shaxsning tayinlanishi bilan bog‘liq Uskudar qozisi Sharifzoda Mehmed Sharifning 1199-yil 27-zulqa‘da (1785-yil 1-oktabr) sanasidagi qarori (BOA, C.EV, № 472/23887)



Ilova 2. O‘zbeklar takyasining ta’sis vaqfnomasi: al-Hoj Xalil Og‘a ibn Ahmad Afandi vaqfnomasi (VGMA, Daftar raqami 578, 199-sahifa, 58-tartib raqami)



Ilova 2. O‘zbeklar takyasining ta’sis vaqfnomasi: al-Hoj Xalil Og‘a ibn Ahmad Afandi vaqfnomasi (VGMA, Daftar raqami 578, 199-sahifa, 58-tartib raqami)

ARXIV HUJJATLARI ASOSIDA “O‘ZBEKLAR TAKYASI” SHAYXLARI**Erkan O‘vuch***Milliy ta’lim vazirligi**fan doktori*

ORCID: 0000-0001-5003-9518

ANNOTATSIYA: Maqolada Usmonli arxivi va Vaqflar arxividagi hujjatlari asosida amalga oshirilgan tadqiqot natijasida Uskudar “O‘zbeklar takyasi”ning tashkil topishidan boshlab, hozirgi yirik majmua holatiga kelishiga qadar tarixi qisqacha bayon etilgan.

Takyani XVIII asr o‘rtalarida Uskudarga kelgan asli Movarunnahrning Samarqand shahridagi Qalandarxona mahallasidan bo‘lgan Sayyid Muhammad Abdulakbar bin Sayyid Asad (yoki Asadulloh) bin Said Ahmad tashkil etgani va uning O‘zi 40 yil shayxlik qilgani qayd etiladi.

Takyada faoliyat yuritgan jami 20 nafar shayx haqida ma’lumotlar xronologik tartib bilan berilgan bo‘lib, Abdulakbar Afandidan keyingi shayxlar quyidagilardir: (2) Shayx Mehmed Afandi bin Hasan, (3) Abdulmo‘min Afandi, (4) Hoji Abdulg‘afur Afandi bin Mehmed Olim, (5) Sayyid Hoji Mehmet Afandi bin Sayyid Mehmen Samarqandiy, (6) Sayyid Hoji Rajab Afandi bin Mehmed Samarqandiy, (7) Shayx Hoji Mehmed Sayyoh-i Samarqandiy, (8) Shayx Mehmed Rajab Afandi, (9) Shayx Mehmed Samarqandiy, (10) Hoji Shayx Nazar Samarqandiy, (11) Hoji Hofiz Xalil Buxoriy, mushtarak shayxlik modeli bo‘yicha aka-ukalar (12.1) Shayx Ibrohim – (12.2) Shayx Ismoil, (13.1) Mehmed Sodiq – (13.2) Shayx Hoji Abdurrazzoq, (14.1) Shayx Hoji Ibrohim Adham – (14.2) Shayx Hoji Mehmed Solih Afandi, (15) Mehmed Sodiq Afandi, (16) Shayx Ato Afandi, shuningdek, shayxlikka nomzod 16. Shayx Najmiddin Afandi (O‘zbekkangay).

Maqolada (4) Hoji Abdulg‘afur Afandi davrida takya xayrsevar Hoji Xalil Og‘a bin Ahmad Afandi tomonidan hozirgi yirik majmua holatiga keltirilgani va 1202-yil 7-rabi-ul-oxirdagi (1788-yil 16-yanvar) vaqfnoma bilan zoviya sifatida rasmiy takya maqomini olganligi, Hazorfan (14.1) Ibrohim Adham davrida takya ilm-fan, san’at va hunarmandlik maskaniga aylanganligi, uning o‘g‘li (15) Mehmed Sodiq Afandi “Ussi lisoni turkiy” (Chig‘atoycha grammatika kitobi) asarining muallifi ekani, (16) Shayx Ato Afandi Anado‘lida istiqlool urushida qatnashgani alohida qayd etilgan.

Tadqiqot davomida takya manbalarga ko‘ra 1925-yilga qadar Naqshiy, O‘zbek, O‘zbeklar, Xoja, Hoji Xoja, O‘zbek Hoji Xoja, Qalandarxona kabi nomlar bilan yuritilganligi aniqlandi.

KALIT SO‘ZLAR: O‘zbeklar takyasi, shayx, mushtarak shayxlik modeli, Uskudar, Samarqand.

ARŞIV BELGELERİ IŞIĞINDA ÖZBEKLER TEKKESİ ŞEYHLERİ

Erkan Övüç

Dr., Millî Eğitim Bakanlığı

ÖZET: Makalede, Osmanlı Arşivleri ve Vakıflar Arşivi belgeleri esas alınarak yapılan araştırmalara dayanarak, Üsküdar Özbekler Tekkesinin kuruluşundan büyük külliye haline gelişine kadar olan tarihi kısaca anlatılmaktadır. Tekkenin ilk şeyhi olarak aslen Semerkant'ın Kalenderhane Mahallesinden olan ve 18. yüzyılın ortalarında Üsküdar'a gelerek burada şeyhlik yapan Hacı Hâce demekle maruf Şeyh Seyyid Muhammed Abdülekber b. Seyyid Esed (veya Esedullah) b. Seyyid Ahmed görülmektedir. Kendisi 40 yıla yakın bir süre şeyhlik yapmıştır.

Tekkede görev yapan toplam 20 şeyh hakkında bilgiler kronolojik olarak verilmekte olup, Abdülekber b. Seyyid Efendiden sonraki şeyhler şu şekildedir: (2) Şeyh Mehmed Efendi b. Hasan, (3) Abdülmü'min Efendi, (4) Hacı Abdülgafur Efendi b. Mehmed Âlim; (5) Seyyid Hacı Mehmed Efendi b. Seyyid Mehmed Semerkandî, (6) Seyyid Hacı Receb Efendi b. Mehmed Semerkandî, (7) Şeyh Hacı Mehmed Seyyah-ı Semerkandî, (8) Şeyh Mehmed Receb Efendi, (9) Şeyh Mehmed Semerkandî, (10) Hacı Şeyh Nazar Semerkandî, (11) Hacı Hafız Halil Buharî, müşterek şeyhler olarak iki kardeş (12.1) Şeyh İbrahim – (12.2) Şeyh İsmail, (13.1) Mehmed Sadık – (13.2) Şeyh Hacı Abdürrezzâk, (14.1) İbrahim Edhem – (14.2) Mehmed Salih Efendi, (15) Mehmed Sadık Efendi, (16) Şeyh Ata Efendi, 16. Şeyh Necmeddin Efendi (Özbekkangay).

Makalede (4) Hacı Abdülgafur Efendi döneminde, tekkenin hayırsever Hacı Halil Ağa bin Ahmed Efendi tarafından bugünkü haline kavuşturulduğu ve 7 Rebiül-Ahir 1202 (16 Ocak 1788) tarihli bir vakfiye ile bir zaviye hâlini alarak resmi bir tekke statüsüne kavuştuğu, Hezarfen (14.1) İbrahim Edhem döneminde bir bilim, sanat ve zanaat merkezine dönüştüğü, oğlu (15) Mehmed Sadık Efendi'nin "Üss-i lisan-ı Türkî" (Çağatayca gramer kitabı) adlı eserin yazarı olduğu(16), Şeyh Ata Efendi'nin Anadolu'daki Kurtuluş Savaşı'na katılımı özellikle dikkat çekicidir.

Yapılan araştırmalarda kaynaklarda tekkenin 1925 yılına kadar Nakşi, Özbek, Özbekler, Hoca, Hacı Hoca, Özbek Hacı Hoca, Kalenderhane gibi isimlerle anıldığı tespit edilmiştir.

ANAHTAR KELİMELER: Özbekler Tekkesi, şeyh, müşterek şeyhlik, Üsküdar, Semerkant

BASED ON ARCHIVE DOCUMENTS "UZBEKLAR TEKKESE" SHEIKHS**Erkan Övüç***Dr., Ministry of National Education*

ABSTRACT: The article provides a brief history of the “Uzbeklar Tekkesi” in Uskudar from its foundation to the period when it became the current large complex, as a result of the research conducted on the basis of documents from the Ottoman Archives and the Archives of Waqfs.

It is noted that the takya was founded by Sayyid Muhammad Abdulakbar bin Sayyid Asad (or Asadullah) bin Said Ahmad, a native of the Qalandarhana mahalla in Samarkand, Mawarannahr, who arrived in Uskudar in the mid-eighteenth century and was the sheikh here for 40 years.

In the article, information about the 20 sheikhs who acted in the takya is presented in chronological order, and the next sheikhs after Abdulakbar Efendi were: (2) Sheikh Mehmed Efendi bin Hasan, (3) Abdulmumin Efendi, (4) Haji Abdulgafur Efendi bin Mehmed Alim, (5) Sayyid Haji Mehmet Efendi bin Sayyid Mehmen Samarqandi, (6) Sayyid Haji Rajab Efendi bin Mehmed Samarqandi, (7) Sheikh Haji Mehmed Sayyahi Samarqandi, (8) Sheikh Mehmed Rajab Efendi, (9) Sheikh Mehmed Samarqandi, (10) Haji Sheikh Nazar Samarqandi, (11) Haji Hafiz Khalil Bukhari, brothers according to the Mushtarak (joint) sheikhdом model (12.1) Sheikh Ibrahim (12.2) Sheikh Ismail, (13.1) Mehmed Sadiq – (13.2) Sheikh Haji Abdurrazzak, (14.1) Sheikh Haji Ibrahim Adham – (14.2) Sheikh Haji Mehmed Salih Efendi, (15) Mehmed Sadiq Efendi, (16) Sheikh Ato Efendi, as well as a candidate for sheikh – 16. Sheikh Najmiddin Efendi (Uzbekkangai)

The article states that during the time of (4) Haji Abdulgafur Efendi, with the help of the patron (hairsevar) Haji Khalil Agha bin Ahmad Efendi, the takya was transformed into the current large complex and received the official status of a takya as a zoviye according to the waqf document dated the 7th of Rabi-ul-Akhir, 1202 (January 16, 1788). During the time of Hazorfan (14.1) Ibrahim Adhame, the takya became a center for the development of science, art and crafts. His son (15) Mehmed Sadik Efendi was the author of the book “Ussi lisoni turki” (Book of Chigatai Grammar), (16) Sheikh Ato Efendi was a participant in the War of Independence in Anatolia.

During the research conducted on the basis of sources, it was established that before 1925, Takya was called by such names as Uzbek, Uzbeklar, Khoja, Hadji-Khoja, Uzbek Hadji-Khoja, Kalandarhana.

KEY WORDS: "Uzbeklar Tekkesi" (The Uzbeks Lodge), Sheikh, Joint Sheikhdом Model, Üsküdar, Samarkand

Kirish

Uskudar “O‘zbeklar takyasi” kadastr ma’lumotlariga ko‘ra Sultontepa mahallasi Servili Ko‘shk ko‘chasi, 1340-qism¹, 39-40-uchastkada joylashgan Naqshbandiy dargohidir². Ushbu tadqiqotda bugungi kungacha to‘liq shayxlar ro‘yxati tuzilmagan takyaning Usmonli arxivi va Vaqflar arxividagi hujjatlari davr manbalari bilan solishtirildi va natijada shayxlar ro‘yxatini tuzishga harakat qilindi.

“O‘zbeklar takyasi”ning shayxlari

Takyaning dastlabki yarim asrlik tarixida shayxlik ko‘p marta almashgan. Arxiv hujjatlari nuqtai nazaridan biz aniqlagan nomlar quyidagilardir:

(1) “Hoji Xoja nomi bilan mashhur shayx Sayyid Muhammad Abdulakbar bin Sayyid Asad (yoki Asadulloh) bin Said Ahmad (vafoti hijriy 1199 yil/milodiy 1785 yil). Mavjud hujjatlarga ko‘ra, u ta’asischi shayxdir. U asli Movarunnahrning Samarqand shahridagi Qalandarxona mahallasidan. Uning Istanbulga ilk bor qachon kelgani haqida ma’lumot yo‘q.

Eng kamida XVIII asr o‘rtalarida Uskudarga kelgan Abdulakbar Afandi qariyb 40 yil shayxlik qilgandan so‘ng olamdan o‘tadi va ortida Rukiye, Hatije va Emine ismli uch xotini qoladi. Shayxlikning boshqasiga o‘tkazilishi haqidagi bir hujjatda uning farzandsiz (*bila-veled*) ekanligi aytiladi:

... *bilâ-veled fevt ve üç nefer aceze zevcâtını terk idüp...*³

Shayxlik, marhum shayxning oilasini boqish sharti bilan (*merhûm şeyhin iyâlini infâka taahhüd itmekle*), darveshlarning ham roziligi bilan (*cümleinin muhtarı*) xalifasi, ayni paytda tutingan o‘g‘li bo‘lgan **(2) Shayx Mehmed Afandi bin Hasan** (vaf. 1202-yil 10-safar/1787-yil 21-noyabrdan keyin), shayxulislom Durrizoda Mehmed Orif Afandining (1785–1786 [I]; 1792–1798 [II]) tayinlovi bilan 1199-yil 1-zulhijjada (1785-yil 5-oktabrda) shayx sifatida belgilanadi⁴.

Bu tayinlovdan ikki yil o‘tib, Abdulakbar Afandining ukasi **(3) Abdulmo‘min Afandining** (vafoti 1202-yil zulhijja/1788-yil sentabrdan keyin) e’tirozi natijasida shayxlik Mehmed Afandi zimmasidan olinib, shayxulislom Makkiy Mehmed

¹ Esin Demirel İşli. *İstanbul Tekkeleri Mimari Eklentileri ve Restorasyonu*. Doktora Tezi. – İstanbul: Yıldız Teknik Üniversitesi, Fen Bilimleri Enstitüsü, 1998. – 251 s.; Ahmet Vefa Çobanoğlu vb.. *İstanbul Türbe, Hazire ve Kabirleri: Üsküdar*. – İstanbul: İBB Yayınları, 2019. – S. 221, 223.

Besim Chechenerning Uskudar yer kadastrı qaydlariga (reestri) asoslangan holda tumandagi tarixiy binolar ro‘yxatidagi eski qism va uchastka raqami berilgan (515 qism 2/3 uchastka). Qarang: Besim Çeçener. *Üsküdar Mezarlıkları, Türbeleri ve Hazireleri // TÖK Belleteni* 49 / 328. – Eylül-Ekim 1975. – S. 18–22.

² Takya haqida aniqlaganlarimizdan tashqari arxiv manbalari haqida keng qamrovli va chuqur tadqiqot olib borgan va qo‘lga kiritgan hujjatlarni foydalanishimizga taqdim etgan **O‘mer Faruk Janga** va hujjatlardagi ba’zi sanalarni o‘qishda yordam bergan **Hasan Demirtashga** minnatdorchilik bildiraman.

³ BOA, C.EV, № 472/23887; VGMA, № 264/212;

Arxiv hujjatlarida ko‘riladigan “bilâ-valad” iborasi bilan ko‘pincha “bilâ-valadi zukûr”, ya’ni o‘g‘il farzandi yo‘qligi nazarda tutiladi. Biroq merosni bo‘lish bo‘yicha e’tirozni o‘z ichiga olgan keyingi hujjatda marhumning “... *zâhirde zevce-i metrûkeleri mezbûran Rukiye ve Hatice ve Emine’dan gayrı vâris-i marûfu...*” yo‘qligining ifoda etilishi hech qanday farzandi bo‘lmaganini tushinish mumkin. VGMA, № 265/76.

⁴ BOA, C.EV, № 472/23887; VGMA, № 264/212. Hujjatdan Hoji Xoja nomi bilan mashhur bo‘lgan shaxsning Abdulakbar ekanligi, uning takyani kengaytirgani, uylangani va 1785-yil oktabridan oldin vafot etganini aniq tushunish mumkin. Qabristonda bu sanada yozilgan qabrtosh topilmadi.

Afandining (1787–1788 [I]; 1791–1792 [II]) tayinlovi bilan uning zimmasiga topshirilgan (1202-yil 10-safar/1787-yil 21-noyabr)¹.

Abdulmo‘min Afandi, bir yil o‘tgach noma'lum bir sababga ko‘ra o‘zining roziligi bilan asli o‘zbek bo‘lgan **(4) Hoji Abdulg‘afur Afandi bin Mehmed Olimga** (vafoti 1202-yil 22-rajab/1788-yil 28-aprelga) shayxlikni beradi. Bu yangi tayinlov ham 1202-yil 14-rabi-ul-oxir (1788-yil 23-yanvar) kuni shayxulislom Makkiy Mehmed Afandining belgilovi bilan amalga oshadi².

Bu kishining shayxlik davrida takya xayrsevar **Hoji Xalil Og‘a bin Ahmad Afandi** tomonidan hozirgi yirik majmua holatiga keltirilgan. 1202-yil 7-rabi-ul-oxirdagi (1788-yil 16-yanvar) vaqfnoma³ orqali *zoviya* deb atalgan rasmiy takyaga aylanadi va unda quyidagi binolar vaqf qilinadi: ichki ust qavatdagi uchta alohida xona, devonxona, hojatxona, tahoratxona, pastki qavatda ikki maydonxona, uchta darveshxona, hojatxona, omborxona va og‘ilxona, mevali va mevasiz daraxtlarga ega katta bog‘ (*eşcâr-ı müsmire ve gayr-i müsmireli kebîr bağçe*), bog‘ga tutash uzumzor (*kürûm-i mağrûsah bağ*), bog‘da xaroba holdagi ayvon, quduq (*bi‘r-i mâ‘*) va boshqa qo‘shimcha binolar (*müştemilât-ı ma‘lûmeyi hâvî*). Vaqfnomada bu mulklar barcha huquq va vakolatlari bilan (*bi-cümeti mâ yeştemiluhu ve yahvihî*) vaqf qilinib quyidagi shartlar belgilandi:

I. Hozirda tayinlov bilan takyaning shayxi bo‘lgan Naqshbandiyi O‘zbekiyyadan **Al-Hoj Abdulg‘afur Afandi** tirik ekan shayxlik maqomida bo‘ladi va ushbu joyda yashaydi.

II. Vafot etgandan keyin takyaga kim shayx etib tayinlansa, ushbu joyda u kishi istiqomat qiladi.

III. *Zoviya* shayxidan tashqari, Movaraunnahrning O‘zbek viloyatidagi Samarqand shahri Qalandarxona mahallasi aholisidan bo‘ydoq (*mücerred*) bo‘lgan o‘zbek faqr, darveshlari ham bu yerda yashay oladi.

IV. Vaqfni shayxulislom nazorat qilib boradi.

V. Vaqf ishlariga vasiylik vaqfdor tirik ekan, uning o‘z ixtiyorida bo‘ladi.

VI. Vafotidan keyin o‘z avlodlarining (*evlâdima ve evlâd-ı evlâdımın ve evlâd-ı evlâdımın batnen ba‘de batnin*) eng kattasi vasiylik qiladi

VII. Agar nasli uzilib qolsa, vasiylik nozirning ma‘qul topishi asosida po‘stninish bo‘lgan shayx va darveshlarning ixtiyori bilan ishonchli va to‘g‘ri kishiga beriladi.

VIII. Agar shartlarga rioya qilish mushkul holga kelsa, vaqf mutlaqo *fuqaroyi muslimin* (musulmon yo‘qsillar) uchun ajratiladi.

Vaqfdor Xalil Og‘a qariyb 14 oy keyin o‘z vaqfida ba‘zi o‘zgarishlarni amalga oshiradi. 1203 yil 11-jumod-ul-oxir (1789-yil 9-mart) sanali ilovasida bu yerda istiqomat qiluvchilar haqidagi avvalroq faqat asli o‘zbek bo‘lgan bo‘ydoq darveshlarga

¹ VGMA, № 265/72.

² VGMA, № 265/79.

³ Vaqfnoma bir yarim oydan keyin, 1202-yil 22-jumod-ul-avvalda (1788-yil 29-fevralda) ro‘yxatga olingan. VGMA, № 578/199/58; Övüç, “1341 Defterine Göre 1925’te Üsküdar Tekkeleri”, 95.

mumkinligi sharti yengillashtiriladi va musofir naqshbandiylar, yo'qsillarni ham ushbu ro'yxatga qo'shtiradi.

Yana bir qo'shimcha esa shayx tayinlanishi bilan bog'liq. Avvalroq shayx tayinlash ishini o'z davrining shayxulislomi amalga oshirsin degan bo'lsa (*vakf-i mezkûr şeyh-i meşâyihü'l-İslâm ve müfti'l-enâm hazretlerinin sâye-i nezâret-i aliyyelerinde âsûde ola*), bu safar shayx hazratlari vafot etadigan bo'lsa, u kishi maqbul deb topgan layoqatli kishi po'stni¹ egallaydi deb o'zgartirilgan. O'zidan keyin vakolat qaytadan shayxulislomga o'tadi². Aslida shayxni tayinlash shayxulislomning vakolatiga kirishi taomilda mavjud bo'lsa ham bu yerda vaqfdor tayinlovda o'zini birinchi darajaga qo'ygan.

Xalil Og'a vaqfnomasida daromad keltiruvchi biror ko'chmas / ko'char mulk mavjud emas. Shu bois na shayxlik vazifasi uchun na boshqa vazifa uchun biror maosh / vazifa belgilangan emas³. Bu holat endigina tashkil topish bosqichida bo'lgan muassasaning bu davrda mustahkam shaklga ega bo'la olmaganini ko'rsatadi.

Takya shayxligining bo'ydoq (*mücerred*) darveshlarga berilishi qalandarxona dargohlarida an'anaga aylangan bo'lsa-da, bu takyaning shayxlik shartlarida bunday alohida modda yo'q⁴. Shuningdek vaqfnomada shayxlikning otadan o'g'ilga o'tishiga to'sqinlik qiluvchi biror modda ham yo'q. Vaqf tashkil topgan yilda vafot etgan Abdulg'afur Afandi takya qabristoniga dafn etilgan. Peshlavhasida shunday yozilgan:

Merhûm ve mağfûrun leh / eş-Şeyh Abdül / gafur / ibn-i Monla / Âlim Buhârî / Ruhuna Fâtîha / Sene 1202.

Tarjimasi: *Marhum va gunohlari afv qilingan Ash-Shayx Abdulg'afur ibn Mulla Olim Buxoriy ruhiga fotiha. 1202- yil.*

5. Sayyid Hoji Mehmet Afandi bin Sayyid Mehmen Samarqandiy (vafoti 1204-yil 1-zulqa'da/1790-yil 12-avgust). Abdulg'afur Afandining vafoti ortidan shayxlik huquqiga ega bo'lganlardan Mehmed Afandining talabi, shayxulislom Mehmet Komil Afandining (1788–1789) ishorasi bilan 1202-yil 22-rajab (1788-yil 28-aprel) sanasida bu kishiga berilgan⁵.

6. Sayyid Hoji Rajab Afandi bin Mehmed Samarqandiy (vafoti 1205-yil jumod-ul-avval/1791-yil yanvardan keyin). Oldingi shayx Mehmed Afandining ikki yildan ziyodroq davom etgan shayxligidan keyin vaqfdor Xalil Og'a ham qatnashgan majlisda o'zining bu vazifa uchun tayyor emasligini qabul qilgan holda o'z roziligi bilan shayxlikni Rajab Afandiga topshiradi. Rajab Afandi *darveshlarning husni*

¹ *po'st* – shayxlik maqomi, pir, takya shayxi.

² VGMA, № 237/413.

³ Bu takyaning so'nggi faoliyatigacha davom etgan. Masalan oxirgi shayxlardan Sodiq Afandining (vafoti 1333 / 1915 yil) shayxlikka tayinlanishi vaqtida bu alohida ta'kidlangan. BOA (V), Evkaf Mektubi Kalemi [EV.MKT], 2909/20 (15).

⁴ Misol uchun Uskudar Chinilida o'rin olgan "Naqshiy afg'oniylar takyasi"da vaqfdor No'mon Pashaning 1207-yil 19-sha'bon (1793-yil 1-aprel) sanali vaqfida shayxlik bo'ydoq darveshlardan birortasiga beriladi. VGMA, № 627/394/195. Uning yonginasidagi Qodiriy Fayzulloh Afandi takyasida ta'sischi shayx Fazlulloh Afandining 1150-yil 24-jumod-ul-avval (1737 yil 19-sentabr) sanali vaqfida ham shayxlik bo'ydoq (*kayd-i iyalden müberra, mücerred*) bir darveshga shart qilingan. VGMA, № 625/61/55. Bu takyalar haqida ma'lumot olish uchun qarang: Erkan Övüç. *Üsküdar Tekkeleri Örneğinde Devlet Tekke İlişkileri*. Doktora Tezi. – Çanakkale: Çanakkale Onsekiz Mart Üniversitesi, Lisansüstü Eğitim Enstitüsü, 2022. – S. 202–212, 450–457.

⁵ Hujjatdagi sananing oy qismi to'liq va aniq o'qila olmagan uchun rajab sifatida talqin etildi. VGMA, № 265/92.

*shahodati*¹ bilan vaqflar inspektori Mehmet Tohir Afandining bildirishnomasi, shayxulislom Hamidzoda Mustafa Afandining (1789–1791) ishoratlari² bilan 1204-yil 1-zulhijja (1790-yil 12-avgust) sanasida shayxlikka tayinlangan³.

Rajab Afandi vazifasida hali 6 oy ishlamay turib, shayxlikni o‘z rizosi bilan 1205-yil 4-jumod-ul-avval (1791-yil 9-yanvar) sanasida Hoji Mehmed Sayyoh-i Samarqandiyga topshiradi⁴.

7. Shayx Hoji Mehmed Sayyoh-i Samarqandiy (vafoti 1206-yil 27-jumod-ul-avval/1792-yil 22-yanvar). Mehmed Afandining talabi va shayxulislom Mehmed Makkiy Afandining ishoratlari asosida shayxlik bu kishiga topshiriladi⁵. Uning shayxligi 1 yil davom etadi.

8. Shayx Mehmed Rajab Afandi (vafoti 1208-yil 20-rabi-ul-oxir/1793-yil 25-noyabr). Mehmed Sayyoh-i Samarqandiyning ukasi. Akasining vafotidan keyin o‘zining talabi, shayxulislom Mehmed Makkiy Afandining ishoratlari bilan 1206-yil 27-jumod-ul-avval/1792-yil 22-yanvar sanasida shayxlik vazifasiga keltirilgan⁶.

Mehmed Rajab Afandi hali 2 yil ishlamay turib *bu ishning ahli va shayxlikni ifo qilish (ya’ni bajarish) uchun layoqati yetarli bo‘lmagani bois* shayxulislom Mehmed Orif Afandining ishoratlari bilan 1208-yil 20-rabi-ul-oxir/1793-yil 25-noyabr sanasida shayxlikdan olinadi (*raf’*) va o‘rniga Shayx Mehmed Samarqandiy tayinlanadi⁸.

Bu yerda tasdiqlashni talab qiladigan vaziyat mavjud. “Silsilanoma” yozuvchisiga ko‘ra Buxoroli Mehmed Rajab Afandi 1231-yil 15-zulhijjada (1816- yil 6-noyabr) vafot etgan. Biz shayxlar ro‘yxatida 13- ‘rinda sanab o‘tadigan mushtarak shayxlar, ya’ni **(13.1) Mehmed Sodiq** va **(13.2) Abdurrazzoq Afandilar** bu Rajab Afandining o‘g‘illaridir. M. Nermi Haskanning so‘zlariga ko‘ra, qabristonda ularni qabrtoshlari aniqlanmagan⁹. Silsilada 6-o‘rinda yana bir Rajab Afandi bor. Birinchi **(6)** Rajab Afandi o‘z roziligi bilan shayxlikni topshirgan bo‘lsa, ikkinchisi **(8)** shayxlikdan chetlashtirilgan. Bu ma’lumotlarga qaramay, ikkovining ayni kishi bo‘lish ehtimoli yuqori.

9. Shayx Mehmed Samarqandiy (vafoti 1210-yil 2-rabi-ul-oxir/1795-yil 16-oktabr). Farzandsiz (*bilâ valad*) vafot etgani uchun shayxlik o‘zining iltimosiga binoan 1210-yil 2-rabi-ul-oxirda (1795-yil 16-oktabr) shayxulislom Mehmed Orif Afandining tayinlovi bilan Hoji Shayx Nazar Samarqandiy Afandiga beriladi¹⁰. U ikki yil shayxlik qiladi. Qabri dargohdagi qabristonda. 10 misrali qabrtoshining oxirgi misrasi quyidagicha: “*Göçdü Hacı Şeyh Mehmed dâr-ı ukbâya bugün*”. Tarjimasi: *Ko‘chdi Hoji Shayx Mehmed dori uqboga (oxiratga) bugun*.

¹ Ya’ni, uning loyiqligi haqida darveshlarning shohidligi.

² *ishorat* – hujjatning eng oxirida imzoga o‘xshash ishorat bilan hujjatni tasdiqlash

³ VGMA, № 265/149.

⁴ BOA, C.EV, № 661/33348.

⁵ BOA, C.EV, № 661/33348.

⁶ BOA, C.EV, № 104/5157.

⁷ *raf’* – bekor qilish.

⁸ BOA, C.EV, № 99/4938’dagi hoshiya qaydi.

⁹ Haskan, *Yüzyıllar Boyunca Üsküdar*, 1/434.

¹⁰ BOA, C.EV, № 99/4938. Mehmed Afandi Toshkendiyning “Silsilanoma”sidagi 4-shayx.

10. Hoji Shayx Nazar Samarqandiy (vafoti 1212-yil 11-rajab/1797-yil 30-dekabr)dan sal oldin). 2 yildan sal ko'proq davom etgan shayxligidan so'ng o'limidan keyin uning iltimosiga ko'ra shayxulislom Mehmed Orif Afandining tayinlovi bilan 1212-yil 11-rajabda (30-dekabr 1797-yil) vazifasi Hofiz Xalil Buxoriyga topshiriladi¹.

11. Hoji Hofiz Xalil Buxoriy (vafoti 1227/1812). O'zidan oldingi shayxlar bir-ikki yil davom etgan vazifalari hisobga olinganda, bu kishi ancha uzoq, taxminan 15 yil shayxlik davriga ega bo'ladi. Xalil Buxoriygacha takya shayxligida ota-o'g'il munosabati ko'rilmagan bo'lsa, undan keyin shayx ikki o'g'li **(12.1) Shayx Ibrohim** (vafoti 1234/1819?) va **(12.2) Shayx Ismoil** (vafoti 1234/1819?)² o'rtasida taqsimlanadi³. Bu esa takyada bundan keyin davom etadigan mushtarak shayxlik modelining Uskudardagi birinchi misollaridan biridir⁴.

Xalil Buxoriy qayerga dafn etilganini aniqlab bo'lmadi. Shayxlikning ikkinchi sherigi Ismoil Afandi haqida hali yetarlicha ma'lumot topa olmadik.

Ibrohim afandi farzandsiz vafot etgach, shayxlik Shayx Mehmed Rajab Afandi al-Buxoriyning (vafoti 1231-yil 15-zulhijja/1816-yil 6-noyabr) farzandlari **(13.1) Mehmed Sodiq** va **(13.2) Abdurazzoq** ismli ikki aka-ukaga berildi. Hozircha ushbu tayinlov bo'yicha hujjat topa olmadik. Biz shayxlikning o'zgartirilish sanasini takya uchun ajratilgan to'lov yozuvidan aniqlab olishimiz mumkin. Zero takyadagi yillik mavlidi nabiylar tilovati uchun Sulton Mustafo vaqfidan ajratilgan mablag'lar 1234-yil 11-rabi-ul-oxir (1819-yil 7-fevral) sanasida Ibrohim va Ismoil afandilarga ajratilgan. 20 kundan keyin esa (27-fevral) Mehmed Sodiq va Abdurazzoq afandiga ajratilgan⁵.

Sodiq va Abdurazzoq afandilar birgalikda boshqarayotgan takyalarida go'sht nafaqasi yo'qligi, shu sababli darveshlar qiyinchilikka tushib qolgani aytib *boshqa o'xshash takyalar* kabi go'sht ajratishni talab qiladilar, ularning iltimosiga ko'ra takyaga kuniga 2 uqiya (taqriban 2,6 kg) go'sht ajratila boshlanadi (1255-yil 1-ramazon/1839-yil 8-noyabr)⁶.

Sheriklardan biri Sodiq Afandi 30 yillik mushtarak shayxligidan keyin vafot etganida (1262-yil 17-rabi-ul-oxir/1846-yil 14-aprel) takyadagi qabristonga dafn etilgan. Uning 10 misralik qabrtoshining oxirgi misrasi quyidagicha: "*Vâh Sâdık Efendi itdi vefât*".

Sodiq Afandi vafotidan keyin shayxlikning yarim hissasi va 50 qurush maosh uning ikki o'g'li **(14.1) Ibrohim Adham** va **(14.2) Mehmed Solihga** (1262-yil 1-

jumod-ul-avval/1846-yil 27-aprel) o'tadi¹. Shu bilan birga takyani boshqarishni uning sherigi va ukasi **Shayx Hoji Abdurrazzoq** zimmasiga oladi².

Abdurrazzoq Afandi davrida takya kichik ta'mirdan o'tadi. Oldingi tekshiruv va ta'mirlash chamasi 4400 qurush, gilam xarajatlari qariyb 1100 qurush bo'lgan bo'lsa, ta'mirlash vaqtida ruxsatnoma va boshqa rasmiy to'lovlar hisobga olinmay qilingani sabab yangi tekshiruv bilan qo'shimcha 1800 qurush sarflanadi. Vaqfning yetarli imkoni bo'lmagani tufayli xarajat Laleli vaqfiga xarajat sifatida qayd etiladi (*Irade-i seniyye*³, 1268 yil 17 jumod-ul-avval/1847 yil 12-iyun)⁴.

Abdurrazzoq Afandining jami 300 qurush daromadi bor bo'lib, akasining vafotidan keyin buning 100 qurushi (akasining yarim hissasi bilan birga) o'zi uchun, 200 qurushi darveshlar uchun edi. Ammo bu miqdor yetarli bo'lmagani uchun mablag'ni ko'paytirishni so'raydi. Vaqflar noziri kambag'al va darveshlarning tunash joyi bo'lgan o'xshash takyalar bilan solishtirganda ushbu takyaga ajratilgan mablag'ning kam bo'lganligi sababli bu safar rad javobi berilsa, qiyin ahvolga tushishlarini hisobga olib, muassasaga maosh va mukofot pullari ajratilishi bo'yicha mavjud tartibni saqlab qolish va keyinchalik paydo bo'ladigan mahsulotlarga almashtirish sharti bilan oziq-ovqat uchun Vaqflar xazinasidan beriladigan mablag'ni 200 qurushga oshirib 500 qurush berishni taklif qiladi. Majlisi Vala⁵ tomonidan muvofiq deb topilgan talab 1263-yil 3-sha'bon (1847-yil 17-iyul) kuni podishohga taqdim etilgan va kerakli tasdiqnoma oradan 4 kun o'tib, 7-sha'bon (21-iyul) kuni chiqqan⁶.

9 yil shayxlik qilgan Abdurrazzoq Afandining o'g'li yo'q edi va u hijriy 1271-yil 24-jumod-ul-oxir/1855-yil 13-martda⁷ vafot etgan va takyadagi qabristonga dafn qilingan.

Abdurrazzoq Afandidan keyin uning shayxlikdagi yarim ulushi shayxulislom Mashrabzoda Mehmed Orif Afandining (1854–1858) tayinlovi bilan 1271-yil 2-zulhijjada (1855-yil 16-avgustda) jiyanlari **(14.1) Ibrohim Adham** va **(14.2) Mehmed Solihga** mushtarak shayxlar sifatida berildi⁸.

14.1. Shayx Hoji Ibrohim Adham (1246 yil/1830–1831 yil – 19-shavvol 1321 yil/8-yanvar 1904 yil). Ibrohim Adhamning yarim asrlik shayxligi uning qobiliyatlari bilan birlashgani bois san'at va sanoat tariximizda "O'zbeklar takyasi" muhim o'ringa ko'tarildi. Abru⁹ san'atini u Buxoroda o'rgangan va Istanbulda davom ettirgan otasi

¹ BOA, *Irade Dahiliye [I.DH]*, № 121/6150; VGMA, № 506/139.

² BOA, *I.DH*, № 122/6215; BOA (V), *Evkaf Ruznamçe [EV.RZN]*, № 48/106.

³ *Irade-i seniyye* – podshohning buyruqlariga beriladigan nom, masalan farmoni oliy kabi.

⁴ BOA, *Meclis-i Vala Evrakı [MVL]*, № 330/85; BOA, *Irade Meclis-i Vala [I.MVL]*, № 234/8179; BOA (V), *Evkaf Tahrirat [EV.THR]*, № 330/113 (99).

⁵ Majlisi Vala – Tanzimot davri Usmonli davlatida islohotlarni rejalashtirish va ijrosini nazorat qiluvchi oliy qonun chiqaruvchi va sud sifatida xizmat qilgan oliy kengash.

⁶ BOA, *I.MVL*, № 101/2207; BOA (V), *EV.RZN*, № 48/106.

⁷ BOA, *I.MVL*, № 356/15572; BOA, *Sadaret Mektubi Kalemi Nezaret ve Deva'ir Evrakı [A.MKT.NZD]*, № 155/85; № 181/79.

⁸ VGMA, № 301/113; № 892/62; Meclis-i Meşayih Arşivi (MMA), № 1774/143; BOA (V), *Evkaf Muhasebe Kalemi [EV.MH]*, № 523/4; BOA (V), *Evkaf Mektubi Kalemi Cihat Kalemi [EV.MKT.CHT]*, № 268/124(80).

⁹ *Abru san'ati* – suv ustiga tasvir chizib, qog'ozga tushirish san'ati.

Sodiq Afandidan o'rgangan, bundan ham ko'ngli to'lmay, o'z ta'biri bilan aytganda, "soatchilikdan boshqa barcha ishlar bilan band edi". Shu bois o'sha davrning ifodasi bilan aytganda "hazorfan" (ming san'at egasi)¹ sifatida mashhur bo'lgan. U xattotlik, abru, duradgorlik, o'ymakorlik, naqqoshlik, to'qimachilik, matbaachilik kabi ko'plab hunarlarni yuksak mahorat bilan bajara olgan.

1869-yilda Midhad Posho tomonidan asos solingan Sanoat maktabida ko'plab dastgohchi va tekislovchi ustalar tayyorlagan² va Turkiyada birinchi qo'rg'oshin quvurini quygan Ibrohim Adham bir vaqtlar Ka'ba va Harami sharifni ta'mirlash uchun Hijozga yuborilgan edi. 1867-yilgi xalqaro Parij ko'rgazmasida o'zi yasagan asbob-uskunalar bilan qatnashgan va medal bilan taqdirlangan Ibrohim Adhamning ixtirosi bo'lgan bug' mashinasining plastinkasi hozirga qadar takyada saqlanmoqda.

Ibrohim Adham Afandi bir hindistonlikdan to'qima gilam texnikasini o'rganadi. Aytishlaricha, Sulton Abdulaziz va Abdulhamid II uning to'qiganlarini juda yaxshi ko'rgan hamda saroy jihozlashda ishlatish uchun unga buyurtma bergan. Adham Afandi Sulton Abdulhamid II ga sovg'a qilgan bezakli (musanna') yozuv tortmasi sultonga juda yoqqan va u 1308-yil 29- sha'bonda (1307-yil 28- mart/1891-yil 9-aprel) iftixor medali bilan taqdirlangan³.

Adham Afandi hozircha aniq sanasi noma'lum vaqtda ta'mirlash maqsadida Hijozga ikki marta bordi⁴. Adham Afandining tarjimai holida ko'riladigan Manisaga borgani ana shu Hijoz safari bilan bog'liqqa o'xshaydi. Birinchisi 1881-yil 24-yanvarda boshlangan yozishmalarda uchratganimizga ko'ra, Adham Afandi bir muddat Manisada mehmon bo'lgan. Manisaning Jomeyi Kabir mahallasidagi Hojat (Qal'a) masjidining imomligi bo'sh bo'lgan. Imtihonni muvaffaqiyatli topshirgandan so'ng, ushbu lavozimga tayinlanishi so'raladi. Ammo ikki vazifani bir kishi bajarishi mumkin emasligi sababli Adham Afandining hozirgi takya shayxligi uning imomlikka tayinlanishiga qonuniy ravishda to'sqinlik qiladi⁵.

Adham Afandining shayxlik davrida (1855–1904) ilm-fan va san'at maskaniga aylangan "O'zbeklar takyasi" tarkibida matematik Solih Zaki Bey, Maktabi Harbiya noziri G'olib Posho, rassom Husayin Zekai Posho, Xalide Adib Adivarning otasi Adib

¹ *Hazorfan* – ko'plab hunar egalari uchun ishlatiladigan sifat.

² Ibrohim Adhamning mazkur Sanoat maktabining asoschisi ekanligi haqidagi iddaolarga ehtiyotkorlik bilan yondashish zarurligi haqidagi xulosalar uchun qarang: Okan Yeşilot va b. *Istanbul'daki Türkistan Tekkeleri: Ata Yurt ile Ana Yurt Arasındaki Manevi Köprüler*. – Istanbul: TÜRKÇEK, 2017. – S. 261–263.

³ BOA, *İ.DH*, № 1223/95695.

⁴ Yeşilot va b. *Istanbul'daki Türkistan Tekkeleri*. – S. 263.

Suheyil Unverning qaydlariga asoslangan ushbu ma'lumotda aniq sanasi yo'qligi, ammo Ko'ja Haqqi Poshozoda Izzet Poshoning Hijoz hokimi bo'lgan davrda yuborilgani ta'kidlanadi. Ushbu qaydlarga asoslanib, 1881-yilda yuborilgan bo'lishi mumkinligi aytilgan, bu biz yuqorida ishlatgan hujjatning sanasiga ham mos keladi.

⁵ Bu bilan bir qatorda agar ukasi Solih Afandi Manisada istiqomat qiladigan bo'lsa, masjidning muazzinlik vazifasi unga yuklatilishi mumkinligi aytilgan. BOA (*V*), *EV.MKT*, 1296/89 (48 vb.).

Ikki vazifaning bir shaxsda jamlanishini taqiqlovchi *tavjihi jihod nizomnomalari* va ularning tahlili uchun qarang: Övüç. *Üsküdar Tekkeleri Örneğinde Devlet Tekke ilişkileri*, 694 vb.

Taxminlarga ko'ra, yuqorida tilga olingan Qal'a / Hojat masjidi birinchi marta Saruxon Bey (vafoti 1345 yil) tomonidan qurilgan. Ta'kidlanishicha, 1670-yillar boshida ta'mirlangan masjid hozirda vayronaga aylangan.

Hanefi Erkul. *Td. 544 No'lu Saruhan Evkaf Defterine Göre Manisa Vakıfları*. Yüksek Lisans Tezi. – Ankara: Gazi Üniversitesi, Sosyal Bilimler Enstitüsü, 2010. – S. 34.

Bey, faylasuf Rizo Tavfiq (Bo'lukboshi) kabi mashhur shaxslarning faoliyat olib borgani ma'lum.

Uning shayxlik paytida tayyorlangan 1288 (1871)-yildagi *Aholi hisoboti kitobida* (224-son) takyaning Istanbuldagi 35 markaz orasida joy olishi (33-markaz) Ibrohim Afandi va takyaning zikr etilgan diqqatga sazovor joy bo'lgani haqidagi ko'rsatkichlaridan biridir¹. Bu ro'yxatga ko'ra, u yerda keyinchalik shayx bo'ladigan ukasi Mehmed Solih Afandi, o'g'li Mehmed Sodiq va ko'pi buxorolik bo'lgan 13 darvesh, jami 16 kishi istiqomat qilar edi. Takyaning aholisi 1885-yilda 13 erkak va 8 ayoldan iborat bo'lgan².

Adham Afandi takyani ta'mirlash va ajratilgan mablag'ni ko'paytirish uchun tashabbus ko'rsatadi. Har ikki talab ham kun tartibiga qo'yilgani Yulduz saroyi bosh kotibi Surayyo Afandining 1308-yil 29-rajab (1891-yil 11-mart) sanasidagi qaydi orqali ma'lum bo'ladi³.

Takyada ta'mirlash ishlari uch yil kechikish bilan boshlanadi. Birinchi ish sifatida narx tekshiruv o'tkaziladi va 56 mingdan ko'p qurushga ehtiyoj borligi aniqlanadi. Dargohning hech qanday daromadi yo'qligi sababli, Vaqflar xazinasining ortiqcha daromadidan imkon qadar ko'proq sarflash orqali xarajatlarni tenglashtirish maqsadga muvofiq deb topiladi. Miqdorni biroz kamaytirish uchun qilingan ikkinchi tekshiruv Shahramonati⁴ tomonidan amalga oshiriladi. Bu safar miqdor 45.016 qurush va 30 paraga⁵ tushiriladi va 1311-yil 18-ramazon sanasida (1894-yil 25-mart) buyruq bilan xarajatlarni ayni budjetdan qoplash nazarda tutilib ruxsat beriladi⁶.

Asr tugashidan oldin takya boshiga baxtsizlik tushadi. 1897-yil 5-fevralda qabristondagi Ali Rizo Afandi maqbarasiga o'g'ri kirib, gilam o'g'irlab ketiladi. Tekshiruv davomida maqbaraning temir panjarasining rom qismi bir asbob bilan sindirilgani ham aniqlanadi⁷. O'g'rilik hodisasining natijasi qanday bo'lganini aniqlab bo'lmadi.

Ta'mirdan keyin 4 yildan ko'proq vaqt davomida hujjatga (1316/1898) ko'ra, takya oshxonasiga ajratilgan budjet quyidagicha: kunlik 18 juft dumaloq fodula noni⁸, 2 uqiya⁹ go'sht, oylik 30 uqiya oddiy yog' (*ravgoni soda*), 4 cheki¹⁰ o'tin, yillik 2500 uqiya ko'mir, sabzavot va boshqa xarajatlar uchun oylik 350 qurush¹¹.

Ibrohim Adham qarigani sababli uzoq vaqtdan beri o'z vazifalarini chiroyli bajara olmaganini aytib yarim ulush shayxlik huquqini o'g'li Sodiq Afandiga qoldirmoqchi

¹ Ahmed Nezihi Galitekin. *Osmanlı Kaynaklarına Göre İstanbul*. – Istanbul: İşaret Yayınları, 2003. – S. 379–380.

² Baha Tanman. "Özbekler Tekkesi" / *Dünden Bugüne İstanbul Ansiklopedisi*. – İstanbul: Tarih Vakfı – Kültür Bakanlığı, 1994. – 6 / 200.

³ BOA, *İ.DH*, № 1218/95389.

⁴ *Shahramonati* – Usmonlilar davrida Istanbul shahrining tozaligi, obodonchiligi va xavfsizligi bilan bog'liq ishlarni amalga oshirgan tashkilot.

⁵ *para* – qurushning qirg'dan biri.

⁶ BOA, *Şura-yı Devlet Evrakı [ŞD]*, № 129/44; BOA, *İrade Evkaf [İ.EV]*, № 6/17; VGMA, № 2047/155.

⁷ BOA (V), *EV.MKT*, № 2260/7(3); № 2261/146 (80).

⁸ fodula noni – tarqatish uchun pishirilgan maxsus non turi.

⁹ uqiya – og'irlik o'lchovi, qanchaligi turli manbalarda turlicha ko'rsatilgan, odatda 1 uqiya = 1,28 kg.

¹⁰ Bir cheki taqriban 225 kg keladi.

¹¹ BOA, *İrade Hususi [İ.HUS]*, № 67/83; BOA, *Babiali Evrak Odası Evrak [BEO]*, № 1192/89389.

bo'lad. Majlisi mashoyix ham Sodiq Afandini har tomonlama yetarli va malakali bo'lgani bois (*ezher cihet erbâb-ı ehliyet ve kifâyet*) 1320-yil 1-zulhijja/1903-yil 1-mart sanasida tayinlovni maqsadga muvofiq deb topadi¹. Sodiq Afandining shayxlik hujjati 1321-yilning 8-ramazonida (1903-yil 28-noyabrda) chiqarilgan, otasidan meros qolgan *taomiya* (yegulik xarajatlar) esa uning qaramog'iga o'tishi 1904-yil iyuliga qadar kechikkan².

Adham Afandi vafot etgach, takya qabristoniga dafn etilgan³. Uning yaqinlaridan biri shoir Rizo Tavfiq Bo'lukboshi tomonidan tayyorlangan toshbitik 16 misradan iborat. Bitikning oxirgi ikki misrasi quyidagicha:

*Gelip bir ehl-i dil etti salâ kim şeyh-i rûşen-dil
Cebin-sây-ı sücûd olmuş yatır pîr âsitîninde*

14.2. Shayx Hoji Mehmed Solih Afandi (1251-yil/1835–1836 yil – 1325-yil zulqa'da /1907-yil dekabrda oldin: bu sana uning o'g'li Bahouddin Afandining shayxlik ulushidan voz kechganligi haqidagi hujjatdan olindi). Solih Afandi ham o'zidan oldingilardak hunar ahlidan. Uning takyasi ham savdogarlardan tortib sayyohlargacha ko'p ziyoratchiga ega bo'lib, davomli darveshlari ko'p bo'lgan makonlaridan biri hisoblanadi. Takyaning daromadi buncha kishining ovqatlanishi va yashashi uchun yetarli bo'lmagach, ular yechim sifatida takyada tosh bosma (litografiya) usulida kitob chop eta boshlaydilar. Ehtimol oddiy usul bilan kitob bosgan bo'lsa-da, bosmaxonaning qachon ishga tushgani ma'lum emas. Solih Afandining 1276-yil 15-jumod-ul-avval (1859-yil 10-dekabr) arizasidan ma'lum bo'layotgan bu harakat, bu safar yana-da jiddiylashadi va harflar bilan kitob chop etish uchun ruxsatnoma talabigacha boradi.

1273-yil 12-jumod-ul-oxir (1857-yil 8-fevral) kuni chiqarilgan *Matbaa nizomnomasining* 1-moddasiga ko'ra, hech kim Maorif kengashi va Zobitlik vazirligidan ruxsat olmay turib kitob chop eta olmaydi, shuningdek, Bosh vazirlik muvofiq deb topmagan hech qanday joyda bosmaxona tashkil etilmaydi⁴. Solih Afandi mahalla imomi va oqsoqolidan tegishli tartib-qoidalarga muvofiq ish yuritishi, tartib-qoidaga zid ish qilmasligi haqida kafolat oladi. Nihoyat, Maorif kengashining 1276-yil 11-shavvol (1860-yil 2-may) sanasidagi nizomga qarshi ish olib borsa, u va uning kafillari jazolanishi haqidagi so'nggi ogohlantirishidan so'ng, 11-mayda Sulton Abdulmajidning buyrug'i asosida o'sha davrda mavjud ikki chop etish texnikasi – toshbosma va litografiya usulida kitob bosib chiqarish jarayonini amalga oshirish uchun qonuniy asosga ega bo'lad⁵.

¹ MMA, № 1774/143.

² BOA (V), *EVMKT*, № 2909/18(15), № 2909/19 (15), № 2909/20 (15), № 2909/115 (84); BOA, *EVMKT.CHT*, № 578/86 (35).

Taftish mahkamasi tomonidan shayxlik hujjatining tasdig'i 1321-yil 8-zulhijjada (1904-yil 25-fevralda) amalga oshgan. VGMA, № 892/62.

³ BOA (V), *EVMKT*, № 2864/52 (29); № 2864/53(29).

⁴ BOA, *I.MVL*, 367/16095. Shuningdek qarang: Fatmagül Demirel. Osmanlı Devleti'nde Kitap Basımının Denetimi. // *Yakın Dönem Türkiye Araştırmaları*. – № 3/5. – 2004. – S. 89–104.

⁵ BOA, *Sadaret Mektubi Mühimme Kalemi Evrakı [A.MKT.MHM]*, № 183/44; BOA, *İ.DH*, № 455/30173.

Xonaqohda bosmaxona ishlarining amalga oshirilishi uchun qarang: Muharrem Varol. 19. Yüzyıl İstanbulu'nda Bazı Tekkelerin Matbaacılık Faaliyetleri. // *Osmanlı Araştırmaları*. – № 42. – 2013. – S. 323–326.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, Solih Afandi ukasi bilan bir muddat Manisada bo'lib, o'g'li Bahouddinni shu yerda qoldirgan. Manisada yashash muddati va maqsadi hali aniqlanmagan.

Akasi Adham Afandi hayotligida takya ta'mirlash boshlanganiga 10 yildan sal ko'proq vaqt o'tadi va bu vaqtda takya xavfli darajada vayronaga aylanganiga guvoh bo'lamiz. Pudratchi Ali Afandiga o'tkazilgan jami 27.500 qurush ta'mirlash xarajatlari Sulton Mahmud II vaqfi tomonidan to'langan va bu bo'yicha qaror 1324-yil 25-jumod-ul-avval (1906-yil 17-iyul) sanasida qabul qilinadi¹.

15. Mehmed Sodiq Afandi, Ibrohim Afandining o'g'li bo'lib (1274 yoki 1275/1857–1859 yil, 1333-yil 17-jumod-ul-oxir/1915-yil 2-may), takyada tug'ilgan. U Uskudardagi Mulkiya o'rta maktabini tamomlagan va Uskudar muallimlaridan biri Vildan Faik Afandidan ijozat olgan² va Maorif vazirligining 1312-yil 24-muharram (1894-yil 28-iyul) sanali 220-sonli rasmiy ruxsatnomasi bilan "Ussi lisoni turkiy" nomli chig'atoy tilining maxsus qoidalari bo'yicha (Chig'atoycha grammatika kitobi) asarini nashr ettirgan. Rumiylar taqvim bilan 1312-yil (milodiy 1896-yil) avgust oyida *Majlisi idorayi amvoli aytom qalami* idorasiga³ kotib etib tayinlangan va 1320-yil 1-iyunda (1904-yil 14-iyun) bosh kotib yordamchisi lavozimiga ko'tarilgan. O'sha yili otasi vafot etgach, "O'zbeklar takyasi" (1321/1904) shayxi, 1320-yil (1904-yil) aprel oyida esa "Majlisi Mashoyix"ga a'zo bo'ladi. Sodiq Afandi 1317-yil ramazonida (1900-yil yanvar), to'rtinchi darajali *Majidiy* nishoni bilan taqdirlangan, 1322-yil safar oyida (1904-yil may) *Harakati xorij* Bursa mudarrisligini zimmasiga olgan, Uskudardagi Ravzayi taraqqiy maktabida o'n bir yilcha fors tilidan dars bergan⁴.

Shayxlikning yarim ulushi 1903-yilda otasining voz kechishi bilan unga berilgan. Shayxlikning qolgan yarmi amakisi Solih Afandi qo'lida bo'ladi. U vafot etgach, shu paytda Manisada yashovchi amakisining to'ng'ich o'g'li Bahouddin Afandi o'z huquqlaridan voz kechadi (*adem-i talebine mebnî*) va 1325-yil 20-zulqa'da (1907-yil 25-dekabr) sanasida *Mahkamayi taftishning* buyrug'i va shayxulislomning tayinlovi bilan 1326-yil 8-jumod-ul-avval (1908-yil 8-iyun) kunida shayxlik vazifasi to'liq unga yuklanadi⁵.

Sodiq Afandi 1323–1328 (1905–1911) yillarda *Majlisi mashoyix* a'zosi edi⁶. Dastlabki 5 yili mushtarak ravishda, 7 yil yakka o'zi, jami 12 yil shayxlik qilgan Sodiq Afandi vafot etgach, takya qabristoniga dafn etilgan⁷.

16. Shayx Ato Afandi (rumiy 1298/hijriy 1299/milodiy 1882–1936-yil 16-iyun) Sodiq Afandining to'ng'ich o'g'li. Uning tug'ilgan sanasi uchun turli taqvimlarda

¹ BOA, *SD*, № 175/42; BOA, *İ.EV*, № 41/11; BOA (V), *EV.MKT*, № 3047/166 (116).

² Ijozat olish – yetarli ta'lim olib, mustaqil ta'lim berish huquqini olish

³ *Majlisi idorayi amvoli aytom qalami* – Usmonli davlatida yetimlarning mol-mulkini nazorat ostida saqlashga mas'ul idora

⁴ Sadik Albayrak. *Son Devir Osmanlı Uleması*. – İstanbul: IBB Yayınları, 1996. – 3/310.

⁵ VGMA, № 137/133 (2235-tartib raqami). Shuningdek qarang: BOA (V), *EV.MKT*, № 3245/79 (59).

⁶ MMA, № 1777/106, 107. Biroq Sodiq Afandining nomi *Majlisi mashoyix* daftarlarida tilga olinmagani aytilgan: Mine Durmuş. *Meclis-i Meşâyih'in Kuruluşu ve Sultan II. Abdülhamid Dönemi Faaliyetleri*. Yüksek Lisans Tezi. – İstanbul: Marmara Üniversitesi, Türkiyat Araştırmaları Enstitüsü, 2016. – S. 57.

⁷ Sodiq Afandining bu qabristonga dafn etilishi uchun ruxsat 1333-yil 17-jumod-ul-oxir (1915-yil 2-may) sanasida rasmiy hujjat bilan berilgan. BOA, *BEO*, № 4352/326378; № 4352/326390; BOA, *İrade Mabeyn-i Hümayun [İ.MBH]*, № 17/90.

berilgan sanalarning kesishmasidan 11 noyabrdan 13 martgacha bo'lgan oraliqda tug'ilganini tushunish mumkin. Uskudardagi Ravzayi Taraqqiy maktabida tahsil oldi va 1316-yil 26-rabi-ul-oxirda (rumiy 1314-yil 1-sentabr/ milodiy 1898-yil 13-sentyabrda) 80 qurush maosh bilan *Muhosabati umumiya* idorasining birinchi filialiga ishchi qilib tayinlandi. Ushbu idoradagi xizmatidan so'ng, u 1327-yil 28-sha'bonda (rumiy 1325-yil 1-sentabr/milodiy 1909-yil 14-sentyabrda) Sog'liqni saqlash idorasining ish yuritish bo'limiga o'tkazildi va o'n kundan keyin iste'foga chiqdi¹.

Otasi vafotidan so'ng shayxlikka talabgor bo'lgan Ato Afandi *Majlisi mashoyix* tomonidan o'tkazilgan imtihonida 100 balldan 85 ball olib, malakasini isbotlashi natijasida majlis tomonidan shayxlik lavozimiga tayinlangan (1333-yil 1 -Rajab/1331-yil 2-may/milodiy 1915-yil 15-may).²

Bu kishi shayx Oqil Afandining vafotidan keyin bo'shab qolgan shayxlik maqomida toki Shayx Burhoniddin Afandi shayxlikka tayinlanishiga qadar bir muddat Ayub tumanidagi Qalandarxona takyasida shayx noibi bo'lib xizmat qildi (1336-yil 4-jumod-ul-avval/1334-yil 16-fevral/milodiy 1916-yil 16-fevral)³.

Anado'lida istiqlol urushi boshlanganda Ato Afandi Milliy kuchlar safiga qo'shilish uchun Anado'liga yo'l oldi⁴. Shundan so'ng, *Majlisi mashoyix* kengashi uning mas'uliyati ostidagi shayxlik maqomini bekor qildi va uning o'rniga Uskudar mudarrislaridan Naqshiy Xoja Sodiq Afandini ma'muriy muovin qilib tayinladi (rumiy 1336-yil 19-aprel/milodiy 1920-yil 19-aprel)⁵.

16. Shayx Najmiddin Afandi (O'zbekkangay, 1902–1971) Ato afandining ukasidir. Shayx Ato Afandi shayxlikdan chetlashtirilgach, shayxlikka eng katta nomzod uning ukasi Najmiddin Afandi bo'lib, u o'sha paytda, 17–18 yoshlarda talaba bo'lgan.

Majlisi mashoyix Najmiddin Afandi kamolotga yetgunga qadar Sayyid Ahmad Buxoriy takyasi shayxi Ali Afandining "O'zbeklar takyasi" shayxligi vazifasini bajaruvchi qilib topshirishni maqsadga muvofiq deb topgan (1338-yil 18-zulqa'da/ 1920-yil 3-avgust)⁶. Najmiddin Afandining bu shayxlikka rasmiy ravishda tayinlangani haqidagi hujjatni hozircha topa olmadik. U 5 yil davomida takyaning oxirgi shayxi sifatida xizmat qilgan.

Bu takya haqida 1925-yilga qadar **Naqshiy** (*Topkapı*, № 2/153, *Surnâme*, № 144, *Âsitâne-i Aliyye*, № 110, *Nüfus Vukuatı Defteri*, № 224, *Silsilename*, № 149, *Nüfus-ı Millî*, № 257, *Mecmûa-i Cevâmi*, № 2/93, *Mecmûa-i Tekâyâ*, № 232, *Taâmiye Defteri*, № 78, *Ihsâiyat*, № 9, *Merâkiz*, № 289, *Rehber-i Tekâyâ*, № 136), **O'zbek** (*Mecmûa-i Cevâmi*), **O'zbeklar** (*Surnâme*, *Âsitâne-i Aliyye*, *Nüfus Vukuatı Defteri*, *Nüfus-ı Millî*, *Mecmûa-i Tekâyâ*, *ihsâiyat*, *Merâkiz*), **Xoja** (*Taâmiye Defteri*), **Hoji Xoja** (*Muharremiye Defterleri*, № 215, *Topkapı*, *Silsilename*), **O'zbek Hoji Xoja** (*Mecmûa*,

¹ BOA, *Dahiliye Nezareti Sicill-i Ahval Defterleri Fihristi* [DH.SAİD.dj], № 115/53.

² MMA, № 1736/92; VGMA, № 137/133 (2235-tartib raqami).

³ MMA, № 1738/161.

⁴ Ato Afandi va takyaning Milliy ozodlik kurashlarida ko'rsatgan xizmat va foydalari uchun qarang: Hülya Küçük. *Kurtuluş Savaşında Bektaşiler*. – İstanbul: Kitap Yayınevi, 2003. – S. 79–80, 94.

⁵ MMA, № 1756/35b, 37a; № 1745/168, 169, 167; № 1743/81, 84, 74.

⁶ MMA, № 1740/19.

№ 38), **Qalandarxona** (*Hâlâ Âsitâne-i Aliyye*, № 150, *Rehber-i Tekâyâ*) kabi nomlar tilga olingan bo'lib, takyaning marosim o'tkazish kuni dastlab yakshanba (1256/1840 sanali *Âsitâne-i Aliyye*), keyinchalik juma (1304/1886–1887 sanali *Mecmûa-i Cevâmi*) va nihoyat payshanba kunlari bo'lgan (1307/1889–1890 sanali *Mecmûa-i Tekâyâ* va *Rehber-i Tekâyâ*)¹.

Xulosa

- Takyada tashkil topgan XVIII asrning so'nggi choragidan to 1925-yilgacha Naqshbandiylilikning mujaddidiylilik tarmog'i faoliyat yuritgan.
- Takya o'zining tasavvufiy faoliyati bilan bir qatorda, Istanbul va Turkiston mintaqasi o'rtasida hamisha aloqa nuqtasi bo'lib kelgan.
- Takya Buxorodan kelgan darveshlar va mehmonlar uchun imtiyozli mehmonxona bo'lib xizmat qilgan.
- Dastlabki davr shayxlari juda qisqa vaqt oralig'ida almashgani ko'rinadi. Bunda takyaning hali to'liq tashkilot shakliga kira olmagan katta rol o'ynagan.
- Takyaning aniqlanishi mumkin bo'lgan birinchi va yagona vaqfnomasi Xalil Og'aga tegishli. Hayoti va faoliyati haqida ko'p ma'lumot bo'lmagan bu kishining Turkistonga aloqasini ham aniqlab bo'lmadi.
- Garchi vaqfdor vasiylikni o'z avlodlariga berilishini shart qilib qo'ygan bo'lsa-da, bu oila a'zolarini keyingi qaydlarda topib bo'lmadi.
- Takyaning shayxligi uchun bo'ydoq bo'lish sharti kiritilmagani bilan boshqa qalandarxona takyalaridan farq qilganini aytish mumkin. Bunda birinchi/ta'sischi shayxning oila qurgani ta'sir qilgan bo'lsa kerak.
- Takya o'zi tarbiyalagan e'tiborga molik shayxlar/shayx oilalari bilan Istanbulning tasavvufiy hayotining eng rang-barang va boy namunalarini berdi. O'ylaymizki, bu shayxlikning faqat bo'ydoqlarga mumkin bo'lmagan va uzoq o'lkalardan keldi-ketdi harakati ko'p bo'lgani bilan bog'liq.
- Takya tashkil etilganidan buyon jami 20 nafar shayx xizmat qilgan. Bulardan eng qisqa shayxlik 3 oy bilan (4) Hoji Abdulg'afur Afandiga, eng uzun shayxlik esa 61 yil bilan (14.2) Mehmed Solih Afandiga tegishli. 3 nafar shayx vazifasidan ozod qilinib, ishdan chetlashtirilgan, 4 nafar shayx o'z ixtiyori bilan shayxlik lavozimini keyingi shayxga qoldirgan.

¹ Bu qism takya ro'yxatlari sifatida tilga olinadigan *majmu'ayi takoyalardan* to'plab olingan. Takyalarning tariqatlari, silsilalari, shayxlari, manzillari, zikr kunlari va takyada yashovchi aholi soni kabi statistika ma'lumotlarini o'z ichiga olgan matnlarning mazmuni, saqlanish joyi va raqami, tavsifi bo'yicha bu mavzudagi maqolamizga murojaat qilishingiz mumkin: Erkan Övüç. Mecmua-i Tekâyaların Serencamı ve Yeni Bir Liste Neşri. // *Tasavvuf: İlmi ve Akademik Araştırma Dergisi*. – № 12/27. – 2011. – S. 269–320.

Adabiyotlar

Arxiv manbalari

- BOA, Usmonli arxivi, *Ali Emiri Mustafa III [AE.SMST.III]*, № 310/24484.
- BOA, Usmonli arxivi. *Ali Emiri Selim III [AE.SSLM.III]*, № 35/2044.
- BOA, Usmonli arxivi. *Babiali Evrak Odası Evrak [BEO]*, № 1192/89389; № 4352/326378; № 4352/326390.
- BOA, Usmonli arxivi. *Cevdet Evkaf [C.EV]*. № 99/4938; № 104/5157; № 240/11969; № 343/17425; № 472/23887; № 496/25094; № 661/33348.
- BOA, Usmonli arxivi. *Dahiliye Nezareti Sicill-i Ahval Defterleri Fihristi [DH.SAİD.d]*, № 115/53.
- BOA, Usmonli arxivi. *İrade Dahiliye [I.DH]*, № 121/6150; № 122/6215; № 1218/95389; № 1223/95695; № 455/30173.
- BOA, Usmonli arxivi. *İrade Evkaf [İ.EV]*. № 6/17; № 41/11.
- BOA, Usmonli arxivi, *İrade Hususi [İ.HUS]*, № 67/83.
- BOA, Usmonli arxivi. *İrade Mabeyn-i Hümayun [İ.MBH]*, № 17/90.
- BOA, Usmonli arxivi, *İrade Meclis-i Vala [İ.MVL]*, № 101/2207; № 234/8179; № 356/15572; № 367/16095.
- BOA, Usmonli arxivi. *Meclis-i Vala Evrakı [MVL]* № 330/85.
- BOA, Usmonli arxivi. *Sadaret Mektubi Kalemi Nezaret ve Deva'ir Evrakı [A.MKT.NZD]*, № 155/85; № 181/79.
- BOA, Usmonli arxivi. *Sadaret Mektubi Mühimme Kalemi Evrakı [A.MKT. MHM]*, № 183/44.
- BOA, Usmonli arxivi. *Şura-yı Devlet Evrakı [ŞD]*, № 129/44; № 175/42.
- BOA (V), Usmonli arxivi. *Evkaf Mektubi Kalemi [EV.MKT]*. 1296/89; № 2260/7(3); № 2261/146 (80); № 2864/52 (29); № 2864/53 (29); № 2909/18 (15), № 2909/19 (15), № 2909/20 (15); № 2909/115 (84); № 3047/166 (116); № 3245/79 (59).
- BOA (V), Usmonli arxivi. *Evkaf Mektubi Kalemi Cihat Kalemi [EV.MKT.CHT]*, № 268/124 (80); № 578/86 (35).
- BOA (V), Usmonli arxivi. *Evkaf Muhasebe Kalemi [EV.MH]*, № 523/4;
- BOA (V), Usmonli arxivi. *Evkaf Ruznamçe [EV.RZN]*. № 48/106.
- BOA (V), Usmonli arxivi. *Evkaf Tahrirat [EV.THR]*, № 330/113 (99).
- MMA, Meclis-i Meşayih Arşivi. № 1736/92; № 1738/161; 1740/19; № 1743/81, 84, 74; № 1745/168, 169, 167; № 1756/35b, 37a; № 1774/143; № 1777/106, 107.
- VGMA, Vakıflar Genel Müdürlüğü Arşivi. № 137/133; № 237/413; № 264/212; № 265/72; № 265/76; № 265/79; № 265/88; № 265/92; № 265/149; № 301/113; № 306/139; № 578/199/58; № 625/61/55; № 627/394/195; № 892/62; № 915/17, № 2047/155.

Boshqa manbalar

- Sadık Albayrak. *Son Devir Osmanlı Uleması*. 5 Cilt. 2. Basım. – İstanbul: İBB Yayınları, 1996.
- Hüseyin Efendi Ayvansarayî, Alî Sâti' Efendi, Süleyman Besim Efendi. *Hadikatü'l-cevâmi': İstanbul Camileri ve Diğer Dini-Sivil Mi'mârî Yapılar*. haz.Ahmed Neziha Galitekin. – İstanbul: İşaret Yayınları, 2001.
- Besim Çeçener. Üsküdar Mezarlıkları, Türbeleri ve Hazireleri // *TTOK Belleteni* 49 / 328. – Eylül-Ekim 1975. – S. 18–22.
- Ahmet Vefa Çobanoğlu vb.. *İstanbul Türbe, Hazire ve Kabirleri: Üsküdar*. – İstanbul: İBB Yayınları, 2019.

- Fatmagül Demirel. Osmanlı Devleti'nde Kitap Basımının Denetimi. //Yakın Dönem Türkiye Araştırmaları . – № 3/5. – 2004. – S. 89–104.
- Mine Durmuş. Meclis-i Meşâyih'in Kuruluşu ve Sultan II. Abdülhamid Dönemi Faaliyetleri. Yüksek Lisans Tezi. – İstanbul: Marmara Üniversitesi, Türkiyat Araştırmaları Enstitüsü, 2016.
- Hanefi Erkul. Td. 544 No 'lu Saruhan Evkaf Defterine Göre Manisa Vakıfları. Yüksek Lisans Tezi. – Ankara: Gazi Üniversitesi, Sosyal Bilimler Enstitüsü, 2010.
- Ahmed Nezih Galitekin. Osmanlı Kaynaklarına Göre İstanbul. – İstanbul: İşaret Yayınları, 2003.
- Mehmet Nermi Haskan. Yüzyıllar Boyunca Üsküdar. 3 Cilt. – İstanbul: Üsküdar Belediyesi, 2003.
- Esin Demirel İşli. İstanbul Tekkeleri Mimari Eklentileri ve Restorasyonu. Doktora Tezi. – İstanbul: Yıldız Teknik Üniversitesi, Fen Bilimleri Enstitüsü, 1998. – 251 s.
- İbrahim Hakkı Konyalı. Üsküdar Tarihi. 2 Cilt. – İstanbul: Yeşilay Cemiyeti Yayınları, 1976.
- Hülya Küçük. Kurtuluş Savaşında Bektaşiler. – İstanbul: Kitap Yayınevi, 2003.
- Erkan Övüç. 1341 Defterine Göre 1925'te Üsküdar Tekkeleri. // Tasavvuf: İlmî ve Akademik Araştırma Dergisi – № 17/38. – 2016. – S. 55–113.
- Erkan Övüç. Üsküdar Tekkeleri Örneğinde Devlet Tekke İlişkileri. Doktora Tezi. – Çanakkale: Çanakkale Onsekiz Mart Üniversitesi, Lisansüstü Eğitim Enstitüsü, 2022.
- Erkan Övüç. Mecmua-i Tekâyaların Serencamı ve Yeni Bir Liste Neşri. //Tasavvuf: İlmî ve Akademik Araştırma Dergisi. – № 12/27. – 2011. – S. 269–320.
- Tabibzâde Mehmed Şükrî. Mecmua-i Tekâyâ: İstanbul Hankâhları Meşâyihü. haz.Turgut Kut. – Harvard: Harvard University Press, 1995.
- M. Baha Tanman. Özbekler Tekkesi. Düinden Bugüne İstanbul Ansiklopedisi. – İstanbul: Tarih Vakfı - Kültür Bakanlığı, 1994. – 6 / 199–202.
- Muharrem Varol. 19. Yüzyıl İstanbulu'nda Bazı Tekkelerin Matbaacılık Faaliyetleri. //Osmanlı Araştırmaları. – № 42. – 2013. – S. 317–347.
- Okan Yeşilot va b. İstanbul'daki Türkistan Tekkeleri: Ata Yurt ile Ana Yurt Arasındaki Manevi Köprüler. – İstanbul: TÜRÇEK, 2017.

Uskudar O'zbeklar xonaqohining shayxlari xronologiyasi

N ^o	Ismi, sharifi, vafot sanasi	Salaf shayxga aloqasi	Shayxlik boshlanishi	Tayinlov sababi	Shayxlik tugashi	Tugash sababi	Muddat i
1	Hoji Xo'ja nomi bilan mashhur Shayx Sayyid Abdulakbar bin Sayyid Asad bin Sayyid Ahmad (v. 1199 / 1785)	ta'sischi shayx	1166 (1753) ?	?	1199 yil 29-zulqa'da (1785 yil 3-oktabr) dan avval	vafot	33 yil
2	Shayx Mehmed Afandi bin Hasan (v. 1202 y. 10-safar /1787 y. 21 noyabr)	xalifasi va tutingan farzandi	1785 yil 3-noyabr (1199 yil 29-zulqa'da)	tayinlov, darveshlarning hamfikrligi	1202 yil 10-safar (1787 yil 21-noyabr)	ishdan olinishi	2 yil
3	Abdulmo'min Afandi (v. 1202 y. zulhijja /1788 sentabrdan keyin)	ta'sischi shayxning ukasi	1202 yil 10 safar (1787 yil 21-noyabr)	tayinlov, darveshlarning hamfikrligi	1202 yil 14-rabi-ul-oxir (1788 yil 23-yanvar)	o'z xohishi bilan	14 oy
4	Hoji Abdulg'afurAfandi bin Mehmed Olim (v. 1202 y. jumod-ul-oxir)	?	1202 yil 14-rabi-ul-oxir (1788 yil 23-yanvar)	o'z xohishi bilan zimmasiga olish	1202 yil 22- rajab (1788 yil 28-aprel)	vafot	3 oy
vaqfdor	Hoji Xalil Og'a bin Ahmad Afandi	1202 yil 7-rabi-ul-oxir (1788 yil 16-yanvar)	14 oy keyin		1203 yil 11-jumod-ul-oxir (1789 yil 9-mart)		
5	Sayyid Hoji Mehmed Afandi bin Sayyid Mehmed Samarqandiy (v. 1204 y. 1-zulqa'da /1790 y. 12-avgustdan keyin)	?	1202 yil 22-rajab (1788 yil 28-aprel)	shayx vafotidan keyingi tayinlov	1204 yil 1-zulhijja (1790 yil 12-avgust)	layoqatsiz ekanini bildirib, o'z xohishi bilan	2 yil 4 oy
6	Sayyid Hoji Rajab Afandi bin Mehmed Samarqandiy	?	1204 yil 1-zulhijja (1790 yil 12-avgust)	vaqfdorning tasdig'i, darveshlarning	1205 yil 4-jumod-ul-avval (1791 yil 9-yanvar)	o'z xohishi bilan	6 oy
7	Shayx Hoji Mehmed Sayyohi Samarqandiy (v. 1206 y. 27-jumod-ul-avval)	?	1205 yil 4-jumod-ul-avval (1791 yil 9-yanvar)	o'z iltimosi va oldingi shayxning ketishi	1206 yil 27-jumod-ul-avval (1792 yil 22-yanvar)	vafot	1 yil
8	Shayx Mehmed Rajab Afandi (v. 1208 y. 20-rabi-ul-oxir /1793 y. 25- yanvardan keyin)	oldingi shayxning ukasi	1206 yil 27-jumod-ul-avval (1792 yil 22-yanvar)	akasining vafoti va o'zining iltimosi bilan	1208 yil 20-rabi-ul-oxir (1793 yil 25-noyabr)	ishdan olinishi	2 yilga yaqin (22 oy)
9	Shayx Mehmed Samarqandiy (v. 1210 y. 2-rabi-ul-oxir /1795 y. 16-oktabrdan ozroq oldin)	?	1208 yil 20-rabi-ul-oxir (1793 yil 25-noyabr)	o'z talabnomasi bilan tayinlov	1210 yil 2-rabi-ul-oxir (1795 yil 16-oktabr)	vafot	qariyb 2 yil
10	Hoji shayx Nazar Samarqandiy (v. 1212 y. 11-rajab /1797 y. 30-dekabrdan oldinroq)	?	1210 yil 2-rabi-ul-oxir (1795 yil 16-oktabr)	o'z talabnomasi bilan tayinlov	1212 yil 11-rajab (1797 yil 30-dekabr)	vafot	2 yil 2,5 oy

11	Hoji Hofiz Xalil Buxoriy (v. 1227 / 1812)	?	1212 yil 11-rajab (1797 yil 30-dekabr)	o'z talabnomasi bilan tayinlov	1227(1812)	vafot	15 yil
12.1	Shayx Ibrohim bin Xalil (v. 1234 / 1819 ?)	o'g'li	1227 (1812)	mushtarak tayinlov ?	1234 (1819) ?		7 yil
12.2	Shayx Ismoil bin Xalil (v. 1234 / 1819 ?)	o'g'li	1227 (1812)	mushtarak tayinlov ?	1234 (1819) ?		7 yil
13.1	Mehmed Sodik Afandi bin Mehmed Rajab (v. 1262 y. 17-rabi-ul-oxir /1846 y. 14-aprel)	?	1234 (1819) ?	mushtarak tayinlov ?	1262 yil 17-rabi-ul-oxir (1846 yil 14-aprel)	vafot	27 yil
13.2	Abdurrazzoq Afandi bin Mehmed Rajab (v. 1271 y. 24-jumod-ul-oxir/ 1855 y. 13-mart)	?	1234 (1819) ?	mushtarak tayinlov ?	1271 yil 24-jumod-ul-oxir (1855 yil 13- mart)	vafot	36 yil
14.1	Ibrohim Adham Afandi bin Sodik (1246 /1830-1831 – 1321 y. 19-shavvol /1904 y. 8-yanvar)	Sodik Afandining o'g'li	chorak hissa: 1262 yil 17-rabi-ul-oxir (1846 yil 14-aprel); chorak hissa: 1271 yil 2-zulhijja (1855 yil 16-avgust)	o'tkazish-chorak hissa (otasidan) o'tkazish-yarim hissa (amakisidan)	1320 yil 1-zulhijja (1903 yil 1-mart)	o'limidan bir yil avval qariganligi sababli yarim ulushini o'g'liga bergan	chorak ulushli shayxlik: 9 yil. yarim: 48,5 yil
14.2	Mehmed Solih Afandi bin Sodik (1251 /1835-1836 – 1325 y. zulqa'da /1907 y. dekabrda oldin)	Sodik Afandining ikkinchi o'g'li	chorak hissa: 1262 yil 17-rabi-ul-oxir (1846 yil 14-aprel); chorak hissa: 1271 yil 2-zulhijja (1855 yil 16-avgust)	o'tkazish-chorak hissa (otasidan) o'tkazish-yarim hissa (amakisidan)	1325 yil zulqa'da (1907 yil dekabr) dan avval	vafot	chorak ulushli: 9 yil. yarim: 52 yil
15	Mehmed Sodik Afandi bin Ibrohim Adham (1274 yoki 1275 /1857-1859 – 1331 /1915)	Ibrohim Afandining o'g'li	1320 yil 1-zulhijja (1903 yil 1-mart); 1326 yil 8-jumod-ul-avval (1908 yil 8-iyun)	o'tkazish-yarim hissa (otasidan) o'tkazish- yarim hissa (amakisidan)	1333 yil 1-rajab (1915 yil 15-may)	vafot	yarim: 5 yil. to'liq: 7 yil
16	Shayx Ato Afandi bin Sodik (1295 /rumiy: 1294 /1878 y. 13-may – 24-dekabr orasi – 1936 y. 16- iyun)		1333 yil 1-rajab rumiy: 1331 yil 2-may (1915 yil 15-may)	o'tkazish, imtihon bilan tayinlov	rumiy: 1336 yil 19-aprel (1920 yil 19-aprel)	ishdan olinishi	5 yil
17	Shayx Najmiddin Afandi bin Sodik (O'zbekkangay; 1902-1971)		1338 yil 18-zulqa'da (1920 yil 3-avgust) ?	Shayx Ali Afandining noibligi	1925	xonaqohlarning yopilishi	5 yil

SAYYOHLAR BEKATI: SULTONTEPA O‘ZBEKLAR TAKYASI**Serpil O‘zjan***Marmara universiteti**doktoranti,*

ORCID: 0000-0002-4164-0261,

E-mail: serpilozcan@gmail.com

ANNOTATSIYA: Maqolada tasavvuf, haj va takya O‘zaro bog‘liqlikda ko‘rilgan tadqiqotlarga sharh berilib, so‘fiylar uchun sayohatning ahamiyati va turlari, O‘rta Osiyodan Istanbulga kelgan ziyoratchilarning to‘xtalgan manzilgohlari, tashrif buyurgan shaharlari bo‘yicha ma‘lumotlar keltiriladi hamda takyalarning tashrif buyuruvchilar uchun madaniy va ma‘lumot almashish markazi ekanligi alohida ta’kidlanadi.

Manbalardagi ma‘lumotlarga asoslangan holda so‘fiylar XIX asrda jamiyatning faol qatlami va bu so‘fiylarga xizmat qilgan takyalar nafaqat shaharlarning o‘zgarishi va rivojlanishida muhim o‘rin tutadigan aholi harakatini rag‘batlantiruvchisi, balki ayni paytda ilm-fan, marifat va madaniyat tashuvchisi sifatida namoyon bo‘lgani aniqlanadi.

Maqolada Sultontepa o‘zbeklar takyasining XIX asr oxiri – XX asr boshiga taalluqli “Mehmonlar daftari”, “Rasmiy mehmonlar daftari” va “Sultontepa o‘zbeklar takyasi aholi daftari”dagi qaydlar tahlil qilinib, takyaning ichki hayoti, ijtimoiy institut sifatidagi ko‘p qirrali faoliyati yoritib berilgan. 263 varaqdan iborat ushbu daftarlarga jami 1329 kishi haqida malumotlar o‘rin olgan bo‘lib, ular takyaga tashrif buyuruvchilarning qaerdan kelgani, tashrif maqsadlari va muddatlari, kasblari va hatto tashqi ko‘rinishlari haqida tasavvur beradi. Chunonchi, “O‘zbeklar takyasi” mehmonlari asosan O‘rta Osiyo va uning atrofidan bo‘lib, ulardan tashqari Xitoy va

Afg'oniston, oz bo'lsa-da Tunisdan, shuningdek, Usmonli saltanati chegaralariga yaqin shaharlardan ekanligini bilish mumkin.

Daftarlardagi qaydlar asosida maqolada tashriflarning asosiy sabablaridan biri muqaddas qadamjolarni ziyorat qilish bilan bog'liqligi va hajga otlanganlar uchun Istanbulga tashrif buyurish an'anaga aylanganligi yoritib beriladi. Shu bilan birga mehmonlarning kasblaridan kelib chiqqan holda tashriflar tijoriy, diniy va hatto harbiy maqsadda bo'lganligi ham ko'rsatib o'tilgan.

Kasbga ko'ra tashrif buyuruvchilarning aksariyati – hunarmand va san'atkor. Shuningdek, san'atsiz, ya'ni hunarsiz, deb ko'rsatilganlar borligi takyani ayni damda muhtojlar uchun ham turar joy sifatida namoyon etadi. Qolaversa, mehmonlar orasida talabalar sonining ko'pligi ham yana bir bor takyaning ilm yo'lidagi yoshlarni qo'llab-quvvatlashga hissa qo'shganligidan darak beradi.

Asosiysi, daftarlardagi qaydlar tahlili nafaqat tashrif buyuruvchilar haqida tasavvur shakllantirish bilan cheklanmaydi, balki ular haqidagi ma'lumotlar orqali ushbu va boshqa takyalarni o'rganish bo'yicha masalalar doirasini belgilab berish bilan birga istiqboldagi tadqiqot yo'nalishlariga aniqlik kiritadi.

KALIT SO'ZLAR: O'zbeklar takyasi, Mehmonlar daftari, Rasmiy mehmonlar daftari, Sultontepa o'zbeklar takyasi aholi daftari, so'fiy.

BIR SEYYAHLAR DURAĞI: SULTANTEPE ÖZBEKLER TEKKESİ**Serpil Özcan***Doktora Öğrencisi,
Marmara Üniversitesi*

ÖZET: Makalede tasavvuf, hac ve tekke üçgeninde yayımlanan araştırmalar incelenmekte, dervişler için seyahatin önemi ve türleri, Orta Asya'dan İstanbul'a gelen hacıların konaklama yerleri, ziyaret ettikleri şehirler hakkında bilgi verilmekte ve tekkelerin hacılar için kültürel ve bilgi alışverişi merkezi olduğu vurgulanmaktadır.

Kaynaklardaki bilgilere dayanarak, 19. yüzyılda dervişlerin toplumun etkin bir tabakası olduğu ve bu dervişlere hizmet eden tekkelerin, şehirlerin dönüşümünde ve gelişiminde önemli rol oynayan nüfus hareketini teşvik etmekle kalmayıp, aynı zamanda bilim, bilgi ve kültür taşıyıcıları olarak da ortaya çıktıkları tespit edilmektedir.

Makalede, 19. yüzyılın sonu ve 20. yüzyılın başlarındaki "Misafir Defteri", "Resmi Misafir Defteri" ve "Sultantepe Özbekler Dergâhı Nüfus Defteri"ndeki kayıtlar analiz edilmekte ve tekkenin iç yaşamı ve bir toplumsal kurum olarak çok yönlü rolü incelenmektedir. Toplam 1.329 kişiye ait bilgilerin yer aldığı 263 sayfalık defterde, tekkeye gelen ziyaretçilerin nereden geldiği, ziyaretlerinin amacı ve süresi, meslekleri ve hatta görünüşleri gibi bilgiler yer almaktadır. Örneğin, Özbekler Tekkesinin konuklarının ağırlıklı olarak Orta Asya ve çevresinden, az sayıda da Çin'den, Afganistan'dan, Tunus'tan ve Osmanlı Devleti sınırlarına yakın şehirlerden geldiği ortaya çıkmaktadır.

Defter kayıtlarından yola çıkılarak yazıda, ziyaretlerin temel sebeplerinden birinin kutsal mekanları ziyaret etmek olduğu, hac görevini yerine getirenler için İstanbul'u ziyaret etmenin bir gelenek haline geldiği vurgulanmaktadır. Aynı zamanda misafirlerin mesleklerine bakılarak ziyaretlerin ticarî, dinî hatta askerî amaçlı olduğu da belirtilmektedir.

Ziyaretçilerin çoğunluğunu meslek olarak zanaatkarlar ve sanatçılar oluşturmaktadır. Ayrıca vasıfsız, yani meslek sahibi olmayan kişilerin varlığı, tekkenin günümüzde aynı zamanda ihtiyaç sahiplerinin de ikametgahı olduğunu göstermektedir. Ayrıca, misafirler arasında öğrencilerin çokluğu, tekkenin gençlere bilgi yolculuğunda destek olma noktasındaki katkısını bir kez daha ortaya koymaktadır.

En önemlisi, defterlerdeki kayıtların analizi sadece ziyaretçiler hakkında bir fikir oluşturmakla sınırlı kalmayıp, onlar hakkında verilen bilgiler aracılığıyla bu ve diğer tekkelerin incelenmesine ilişkin konuların kapsamını belirlerken, gelecekteki araştırmaları da yönlendirmektedir.

ANAHTAR KELİMELE: Özbekler Tekkesi, Misafir Defteri, Resmi Misafir Defteri, Sultantepe Özbekler Dergâhı Nüfus Defteri, derviş.

TRAVELERS' PIER: "SULTONTEPA UZBEKLAR TEKKESI"

Serpil Özcan

*Doctorant Researcher,
Marmara University*

ABSTRACT: The article comments on studies dedicated to the interconnection between Sufism (tasawwuf), the Hajj, and the takya (tekke). It provides information on the significance and types of travel for Sufis, the stopping places of pilgrims from Central Asia in Istanbul, and the cities they visited. Additionally, it emphasizes the fact that the takya served as a center for cultural and informational exchange for visitors.

Based on the information provided in the sources, it has been established that by the 19th century, Sufis had become an active stratum of society. The takyas that served these Sufis began to play an important role not only in stimulating population movement, which was significant for the transformation and development of cities, but also emerged as carriers of science, education, and culture.

The article analyzes the "Guest Notebook", "Notebook of Official Guests" and "Residents' Notebook of Sultantepe Uzbeklar Tekkesi" dating back to the late 19th and early 20th centuries and uses them to highlight the internal life of the takya, as well as its multifaceted activities as a social institution. These records, consisting of 263 pages, contain information on a total of 1,329 people, which gives an idea of where visitors to the takya came from, the purpose and duration of their visits, their occupations, and even their appearance. Based on this data, one can learn that the visitors to the "Uzbeklar takkesi" are mainly from Central Asia and its environs, as well as from China and Afghanistan, with a few visitors from Tunisia, and from cities close to the borders of the Ottoman Empire.

The article argues, based on notebook entries, that one of the main reasons for the visits was to visit holy places and that visiting Istanbul was a tradition for those who went on the hajj. However, based on the professions of the visitors, it can be concluded that the purpose of the visit varied: commercial, religious, and even military.

The most frequently mentioned professions of the visitors were artisans and people of the arts. Additionally, the presence of those identified as "people without crafts," meaning without a profession, demonstrates that the takya also served as a shelter for the needy. Furthermore, the significant number of students among the guests underscores that the takya played a role in encouraging young people to pursue knowledge and education.

It is important to note that the analysis of the notebook entries not only provides insights into the visitors but also, through the information about them, defines a range of issues for studying this and other takyas. Additionally, it clarifies potential directions for future research on this topic.

KEY WORDS: "Uzbeklar Tekkesi" (The Uzbeks Lodge), "Guest Notebook", "Notebook of Official Guests", "Residents' Notebook of Sultantepe Uzbeklar Tekkesi", Sufis.

Kirish

Ushbu maqolada Sultontepa o'zbeklar takyasi "Mehmonlar daftari", "Rasmiy mehmonlar daftari" va "Sultontepa o'zbeklar takyasi aholi daftari" asosida tahlil etiladi. Mehmonlar daftari 1314–1322 (1898–1906) yillardagi qaydlarni; Rasmiy mehmonlar daftari 1330–1340 (1914–1925) yillardagi qaydlarni; Sultontepa o'zbeklar takyasi aholi daftari 1322–1338 (1906–1923) yillardagi qaydlarni o'z ichiga oladi.

Ushbu kitoblardan faqat bittasi so'fiy (darvesh)larga oid yozuvlardan iborat bo'lsa, qolgan ikkitasida takyada bo'lgan kishilar haqida qaydlar mavjud. Bu kishilarning takya va takya mansub bo'lgan Naqshbandiya tariqati bilan aloqador ekanini qabul qilish mumkin.

Adabiyotlar sharhi

So'fiylarning sayohatlari haqida so'z borar ekan, masalaning dastlabki belgilarini ana shu turmush tarzining tamoyillaridan izlash zarur. Zero islom e'tiqodida yo'l va sayohat musulmonlar hayotiga haj va umra orqali kiritilganidek, tasavvufiy hayot tarzida ham so'fiyning kamolot sarguzashtlari (kamolot bosqichlarini bosib o'tishi) yo'l va yo'lda bo'lish metaforasi bilan ta'riflanadi.

Semih Jeyhan o'zining "Tashkilotlashgan tasavvuf tariqati" (tashkil etilishi ma'nosida)¹ sarlavhali maqolasida tasavvufiy turmush tarzida so'fiylarning Yaratganga yetishish "yo'li"da qilgan ishlarini "sayohat" sanaganlari, *sayru suluk* deb nomlangan bu faoliyat davomida muridlar nafsning turli darajalaridan o'tgani ta'kidlanadi.

Esra Duran Turay o'zining "So'fiylarning haj sayohati"² sarlavhali maqolasida so'fiylar sayohatni ikki xil: botiniy va zohiriy jihatdan tushunganini qayd etadi. Botiniy sayohat – bu Yaratgan tomon intilish va sayohat bo'lib, so'fiylar ma'naviy kamolotga erishish uchun uni "*safar ilalloh*" deb ta'riflaydilar. Zohiriy sayohat esa jismonan qilingan sayohat, xususan haj ziyoratidir. Shu bois tabiiy ravishda har ikki turdagi safar so'fiylar uchun muqaddas sanaladi. Ba'zi so'fiylar "botiniy sayohatsiz zohiriy sayohat yo'q" tushunchasini qabul qilib, hech qachon sayohatga chiqmagan.

Ba'zilar esa so'fiyning bir joyda bo'lishini – harakatsizligi deb, uni rangi va hidini yo'qotadigan suvga qiyoslagan va u tez-tez sayohat qilish zarurligini ta'kidlagan. So'fiylar Xuroson–Eron, Xitoy va Shimoliy Afrika kabi joylardan boshlab, geografiyasidan qat'iy nazar haqiqatni izlab yo'lga chiqadilar. Muallif o'z tadqiqotida so'fiylarning haj ziyorati haqidagi fikrlariga to'xtalib, bu sayohatning o'tish joylari haqida ham ma'lumot beradi.

¹ Semih Ceyhan. Established Sufi Orders. *Sufi Institutions*. ed. Alexander Papas. – Boston–Leiden: Brill, 2022. – S. 385–404.

² Esra Duran Turay. Sufilerin Hac Yolculuğu // *Turkish Studies-Comparative Religious Studies*. – № 14/1. – 2019. – S. 97–140.

O'g'uzhan Shahin "Biografik matnlarda sublimatsiya timsoli: ilmiy sayohatlar"¹ nomli ma'ruzasining "so'fiylik va sayohat" sarlavhasi ostidagi bo'limida sayohatdan kutilayotgan narsa salomatlik ekani va sayohat davomida ko'rganlaridan saboq olish imonni mustahkamlashi haqidagi g'oyaning mavjudligini tilga oladi. Najotga erishishning yagona yo'li komil murshid topish deb hisoblaydigan so'fiylar uchun sayohat bunday yo'l boshchini topishning muqarrar yo'lidir. Uni topgandan so'ng, to tirik ekan uning hayoti davomida haj va Quddus ziyoratidan boshqa sayohatning ma'nosi yo'q. Bu sayohatlardan yana bir maqsad yo'lda Allohning do'stlarini izlash va ziyorat qilishdir.

Resul Ayning so'zlariga ko'ra, so'nggi o'rta asrlarda ijtimoiy vazifaga ega bo'lgan eng ko'zga ko'ringan ijtimoiy guruhlar sifatida paydo bo'lgan sayyoh so'fiylar, garchi ular dunyoviy hayotdan voz kechishga asoslangan turmush tarzini saqlab qolgan bo'lsalar-da, muloqot salohiyati yuqori bo'lgan jamoa sifatida xalqqa ta'siri kuchli bo'lgan. Muallif "Anado'li va Rum diyorida darvesh sayohatlari va ularning qishloq jamiyatidagi vazifalari"² nomli maqolasida so'fiy sayohatlarini takyalarda amalga oshirilayotgan xizmatlarni xalqqa yetkazish yo'llaridan biri sifatida qayd etgan. Ba'zi so'fiylar kamolot davrida o'z bilimlarini yoyish yoki suhbatdoshlar topish va u yerdagi yuqori tabaqa odamlar bilan bog'lanish uchun shahar markazlariga borishar edi. Ba'zi darveshlar qalblari dunyoga bo'lgan qiziqishini butunlay yo'qotgandek, sayru sayohat yoki sayru ziyorat qilib yurardi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, so'fiylar hayotida ham, umuman musulmonlar hayotida ham sayohat qilishning eng muhim sababi haj ziyoratidir. Manba bo'lgan daftarlardagi yozuvlarning aksariyati O'rta Osiyoga oid. Ko'rinib turibdiki, so'z yuritilayotgan davrda, ya'ni butun XIX asr davomida bu hudud Rossiya, Xitoy va Hindistonning katta ta'siri ostida bo'lgan. Qaydlarda Eron, Tunis va Bolqon mintaqalaridan ham oz sonli insonlar bor.

Mustafa Kutukchu, "Rossiyada haj ziyoratining tarixidan"³ nomli maqolasida, rus boshqaruvi ostidagi yerlardan yo'lga chiqqan musulmonlarning Istanbulda to'xtaganliklarini aytib, Istanbuldan tashqari bo'lgan boshqa shaharlarni ham qo'shib, bu safarlarning muddatlarini ham beradi. Muallif Odessa va Makkada hojilarning qolgan joylari haqida ma'lumot bergan bo'lsa-da, Istanbulni tilga olmaydi. Maqolada tadqiq etilgan aksariyat hajnomalarda Istanbulga kirib o'tilgani shunchaki tilga olingan, "O'zbeklar takyasi" haqida esa umuman qayd keltirilmagan⁴.

Faqatgina daftarlarni hisobga oladigan bo'lsak, kamida uchta "O'zbeklar takyasi" bor bo'lgan Istanbulda bu turar joylarning nomi tilga olinmagani "O'zbeklar takyasi"

¹ O'g'uzhan Shahin. Biyografik Metinlerde Yüceltme imgesi: İlmî Seyahatler. *Uluslararası VIII. Klâsik Türk Edebiyatı Sempozyumu Kitapçığı*. – Diyarbakır: D.V. Kültür Sanat Yayınları, 2014. – S. 386–399.

² Resul Ay. Anadolu ve Rumeli'de Derviş Seyahatleri ve Kırsal Toplum için Gördüğü İşlevler (13–15. Yüzyıllar). *Ötekilerin Peşinde: Ahmet Yaşar Ocak'a Armağan*. – İstanbul: Timaş Yayınları, 2015. – S. 303–314.

³ Mustafa Kütükçü. Rusya'da Haccın Tarihi Serüveni. // *Karadeniz (Black Sea-Чёрное Море)*. – № 3/12. – 2011. – S. 178–190.

⁴ Bu yerda tadqiq qilingan hajnomalar quyidagilar: *Hajjnâma-yi Turkî, Shaykh Zayn Allâh hadratining tarjama-i hâli, Hâjjîlarga Raflq, Karîmî'nin İstânbûl maktûbları, Rıkhlat al-Marjani (Marcani'nin Yolculuğu), Khamidulla Almushev'in seyahatnamesi*.

daftarlarida qayd etilgan shaxslar oddiy ziyoratchilardan ko'ra ko'proq, xususan, "O'zbeklar takyasi" va umuman Naqshbandiyaga aloqador kishilar ekani haqidagi fikrni mustahkamlaydi.

Uskudar "O'zbeklar takyasi"ning mehmonlar daftarida Odessadan to'la-to'la kemalarda kelgan ziyoratchilar bu yerda mehmon qilingani qayd etilgan. Lale Jan o'zining "Insonlarni birlashtirish: asrlar oralig'ida O'rta Osiyo tasavvuf tarmog'i"¹ nomli tadqiqotida haj ziyorati maqsadida O'rta Osiyodan chiqib, Istanbulga ham kelgan ziyoratchilarning qolgan joylari va tashrif buyurgan shaharlarini ta'riflab, so'fiylarning boshpanalari bo'lgan takyalarni o'zaro bog'lanish joylari, imperiyalar o'rtasida aloqa hududlari sifatida tasvirlanadi.

Takyada qolganlarning shaharga borib o'rnatgan rishtalari haqida gapirgan muallif, turli tumanlarda, ayniqsa Ayubda bu kishilar tomonidan tashkil etilgan kichik jamoalarni ham eslatib o'tadi. Muallifning yozishicha, Istanbulga kelib qo'nim topgan turkistonlik muhojirlar boshqa muhojirlar kabi qabul qilinmagan. Bu ular qo'nim topgan yangi diyorda vatanning o'z farzandi bilan bir qatorda ko'rilganligi bilan izohlanadi.

Hamid Algar "Tariqat va tariyq"² sarlavhali maqolasida ayniqsa Naqshbandiylarga to'xtalib, bu so'fiylik tariqatining hojilar o'zaro ko'mak berishini qanday amalga oshirilgani va davom etganini ko'rib chiqadi. U ushbu rishtaning muhim organlari sifatida takyalarga alohida ahamiyat beradi. Hojilar so'fiy yo'llari va takya (darvesh takyalari) tizimi bo'ylab Istanbul, Tarsus, Bursa, Damashq, Halab, Quddus va nihoyat Haramaynga³ yetib kelishadi. Algarning qayd etishicha, ayniqsa XIX asrda tariqatlarga nisbatan qo'llangan turli cheklovlarga qarshilik ko'rsatgan so'fiylar, xususan naqshbandiylar, agar hajga borishlariga to'sqinlik qilinsa, o'z tariqatlarining ziyoratgohlariga borishni afzal ko'rgan va shu yo'l bilan ular ma'naviy kamolot jarayonini to'xtatishmagan, haj yo'lini va o'zaro aloqa tarmoqlarini saqlab qola olganlar. Shu boisdan ham naqshbandiylarning haj yo'llarini kuzatish, ularning yo'nalish belgilashda afzalliklarni aniqlash – sunniy dunyosining uchta asosiy mintaqasi bilan O'rta Osiyo orasidagi keng aloqa tarmog'ini aniqlash nuqtai nazaridan muhim ahamiyatga ega.

Halim Baki Kunter "Tarsusdagi Turkiston takyalarining vaqfnomalari"⁴ nomli maqolasida Tarsusdagi yana bir muhim takyaga e'tibor qaratadi. Muallif Turkiston takyasi O'rta Osiyo va Sharqiy Turkistondan Anado'liga kelayotgan turkiylarning kirib o'tishi uchun qurilgan mehmonxona ekanini ta'kidlaydi. Ma'lum bo'lishicha, Turkistonlik hojilar nafaqat Istanbulda, balki o'z yo'lidagi boshqa takyalarda ham qolishgan. Muallifning yozishicha, bu mehmonlar takyaga kelib, bir necha kun qoladi,

¹ Lâle Can. Connecting People: A Central Asian Sufi Network in Turn of the Century. // *Modern Asian Studies*. – № 46/2. – 2012. – S. 373–401.

² Hamid Algar. *Tariqat and Tariq: Central Asian Naqshbandis on the Roads to the Haramayn. Central Asian Pilgrims: Hajj Routes and Pious Visits Between Central Asia and the Hijaz*. muharrir: Alexandre Papas vb. – Berlin: De Gruyter, 2011. – S. 21–135.; Tariyq – tariqat so'zining muzakkari.

³ Haramayn – Ikki Haram – Ka'ba va Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vassalamning masjidlari.

⁴ Halim Baki Kunter. Tarsus'taki Türkistan Zaviyelerinin Vakıfları. // *Vakıflar Dergisi* 4. – 1965. – S. 31–50.

kelgan joyidan olingan xabarlarini yetkazar, Anado‘lidan xabarlar, yangiliklarni esa olib ketishar edi. Bu yer yig‘ilgan xalq uchun madaniy va ma‘lumot almashish markazi edi. Takyaning vaqfnomasida bu yerda qolishi mumkin bo‘lganlarning tug‘ilgan shaharlari ko‘rsatilgan bo‘lib, ularning soni 84 ta. Bu maskanga va “Sultontepa O‘zbeklar takyasi”ga kelganlarning viloyatlari va sayohatlarining keyingi to‘xtash joylarini qiyosiy o‘rganish takyaning qamrovi (so‘fiylar soniga nisbatan) va geografiyasini aniqlashda muhim ahamiyatga ega.

Yusuf Sarnay “Turkistonlik hojilarning ziyorat markazi sifatida Istanbul”¹ sarlavhali maqolasida bu mintaqadagi hojilarning xalifalik markazi bo‘lgan Istanbulga tashrif buyurishi va qaytishda ham xuddi ayni yo‘ldan ketishi an‘anaga aylangani ta’kidlanadi. Bu hojilarning Istanbulda turar joy bilan ta’minlanishi va haj safari chog‘ida xarajatlarini qoplash davlat siyosatiga aylangan. Bu hojilar karvonsaroylarda, masjid va takyalarda, ayniqsa, o‘zbek takyalarida turar edilar.

Misol tariqasida, 1914-yildagi hujjatda Hijozdan qaytgan va asli Qashg‘ar viloyatining Xo‘tan shahridan bo‘lgan hamda Istanbulning Ayub Sulton tumanidagi “O‘zbeklar takyasi”da mehmon bo‘lib istiqomat qilayotgan kishilar yo‘qsil va pulsiz bo‘lib qolgani sababli o‘z shaharlariga qaytish uchun yo‘l haqini qoplanishi maqsadida vaqf ma‘muriyatiga talabnoma yuborganligini keltirish mumkin².

Manbalar sharhi

Mavzuga oid manbalardagi ma‘lumotlardan XIX asrning faol qatlami sifatida so‘fiylar va bu so‘fiylarga xizmat qilgan takyalar ilm va madaniyatning tashuvchisi ham ekanligi ayon bo‘ladi. Shuni ta’kidlash mumkinki, takyalar nafaqat shaharlarning o‘zgarishi va rivojlanishida muhim o‘rin tutadigan aholi harakatini rag‘batlantiruvchisi, balki ayni paytda ilm-fan, ma‘rifat va madaniyat tashuvchisi bo‘lgan. Istanbul takyalarining muqim va vaqtinchalik yashovchilar daftari nuqtai nazardan o‘rganilishi so‘fiy guruhleri va takyalarining yangi xususiyatini ochib beradi hamda ularning shaharga qanday va qay darajada ta’sir o‘tkazganini tushunishga yordam beradi.

Tadqiqot doirasida 1314–1340 (milodiy 1898–1925) yillar oralig‘ida saqlangan uchta daftar, mehmonxona daftari, rasmiy mehmonxona daftari va muqim darveshlarning qayd daftari o‘rganildi. Jami 263 varaqdan iborat daftarlarga 1329 kishi haqida ma‘lumotlar qayd qilingan.

Mehmonlar daftarlari. Takyaning birinchi mehmonlar daftari muqovasiz bo‘lib, uning ichki shakli qo‘lda ishlangan. 142 sahifada 566 kishi qayd etilgan. Mehmonlarning ismi bilan bir qatorda otasining ismi, tug‘ilgan joyi, yoshi, kelgan sanasi, alohida ko‘rinishi va izohlari ham yozilgan. Izohlari qismida sayohat turi, kim bilan sayohat qilayotgani, mehmon qayerdan kelib, qayerga ketayotgani va qancha vaqt turishi kabi qo‘shimcha ma‘lumotlar o‘rin olgan.

¹ Yusuf Sarnay. Türkistanlı Hacıların Ziyaret Merkezi Olarak İstanbul. /*Bilgi* 88. – 2019. – S. 1–18.


² BOA, *Dahiliye Nezareti Mebani-i Emiriye-Hapishaneler Müdüriyeti Müteferrik Evrakı* [DH.MB.HPS.M], № 9/73.

Rasmiy mehmonlar daftari esa qattiq muqovali va bosmaxonada tayyorlangan. Bu daftarda, 22 varaqda 256 kishi qayd etilgan. Shaxsiy ma'lumotlar quyidagi sarlavhalar ostida tasniflangan: *ism-taxallusi-oila shuhrati*¹, *otasining ismi-shuhrati*, *shahar-mahallasi*, *san'at (hunari)*, *mazhabi va mansubligi*, *tug'ilgan joyi*, *tug'ilgan yili*, *kelgan joyi*, *kelgan sanasi*, *qancha vaqt qolish niyati*, *ketish sanasi*, *qayerga ketgani*, *hamrohlik qiluvchi ayollar*, *qizlari va xotinlarining ismlari-shuhrati-mansubligi*, *zobitlik qaydlari*. Biroq, bu ma'lumotlarning hammasi ham qayd etilmagan.



Isim	Taxallus	Oila	Shahr	Mazhab	Mansub	Tug'ilgan joyi	Tug'ilgan yili	Kelgan joyi	Kelgan sanasi	Qancha vaqt qolish niyati	Ketish sanasi	Qayerga ketgani	Hamrohlik qiluvchi ayollar	Qizlari va xotinlarining ismlari-shuhrati-mansubligi	Zobitlik qaydlari
...	...	...	...	...	...	...	...	...	...	...	...	...	...	...	...

Rasm 1, 2. Mehmonlar daftari



Isim	Taxallus	Oila	Shahr	Mazhab	Mansub	Tug'ilgan joyi	Tug'ilgan yili	Kelgan joyi	Kelgan sanasi	Qancha vaqt qolish niyati	Ketish sanasi	Qayerga ketgani	Hamrohlik qiluvchi ayollar	Qizlari va xotinlarining ismlari-shuhrati-mansubligi	Zobitlik qaydlari
...	...	...	...	...	...	...	...	...	...	...	...	...	...	...	...

Rasm 3, 4. Rasmiy mehmonlar daftari

¹ U paytlarda familiya bo'lmagan, shuhrat deyilganida inson, oila qaysi nom (laqab) bilan tanilgani nazarda tutilmoqda.

Norasmiy mehmonlar daftari rumiy taqvimga ko'ra yuritilgan, ammo ora-sira hijriy qaydlar ham uchraydi. Yil boshidan oxirigacha deyarli har oy mehmonlar kelib turgani, lekin ma'lum oylarda guruh shaklida tashriflar mavjud ekani ko'rinadi. Bu oylar odatda haj oylaridir.

Quyidagi jadvalda 1898–1906 yillardagi qaydlarni o'z ichiga olgan norasmiy mehmonlar daftari va 1914–1925 yillar oralig'ida yuritilgan rasmiy mehmonlar daftari ko'rsatilgan (1-jadvalga qarang).

Jadval 1: Rasmiy va norasmiy mehmonlar daftarlarida vaqt oralig'i
Norasmiy mehmonlar daftari

Yillar	Kishi soni	Qaysi oy kelingani
1898	15	Qonunu avval-Fevral
1899	58	Mart-Qonunu soniy
1900	61	Aprel-Qonunu soniy
1901	118	Mart- Qonunu soniy
1902	109	Aprel-Fevral
1903	79	Mart- Qonunu soniy
1904	76	Mart-Fevral
1905	45	Mart-Tashrini soniy
1906	1	Ramazon
Jami	562	

Rasmiy mehmonlar daftari

Yillar	Kishi soni	Qaysi oy kelingani
1914	1	Iyul
1915	2	Tashrini avval
1916	3	Aprel-Iyun
1917	3	Sentabr-Fevral
1918	80	May-Qonunu avval
1919	38	Mart-Qonunu avval
1920	21	Mart-Qonunu avval
1921	6	Mart-Qonunu avval
1922	7	Mart-Qonunu avval
1923	23	Mart-Tashrini soniy
1924	22	Mart- Qonunu avval
1925	6	Aprel-May
Jami	256	

Jadvallardagi Qonunu avval, Qonunu soniy, Tashrini avval, Tashrini soniy – rumcha ya'ni turkcha taqvimdagi oylarning nomlanishidir.

Takyaning 16 yillik qaydlarida 562 kishi mehmon sifatida yozilgan. Norasmiy mehmonlar daftaridagi yozuvlar 15 dan 118 gacha o'zgarib turadi. 1901-yilda takyaga 118 kishi, 1902-yilda esa 108 kishi kelgan. Daftar yuritila boshlangan 1898-yilda 15 kishi, oxirgi daftar tutilgan 1906-yilda esa 1 kishi qayd etilgan.

Rasmiy mehmonlar daftariga esa 10 yil ichida jami 256 ta qayd kiritilgan. 1914-yilda yuritila boshlangan daftarda ilk yillarda 2 yoki 3 kishi qayd etilgan bo'lsa, 1918-yilda bu raqam 80 kishi ekanligi ko'rsatilgan va bu daftardagi qaydlarga ko'ra eng yuqori raqamdir. Keyingi yillarda yana pasayish va tartibsiz kelishlar yoki ro'yxatga olishlar mavjud. Daftardagi oxirgi yozuv 1925-yil may oyiga to'g'ri keladi.

Mehmonlarning kelgan joylarini uchta hududga ajratib ko'rib chiqish mumkin:

– Anado'li: Istanbul, Anqara, Qo'nya, Antalya, Unye, Van

– Anado'lidan tashqaridagi Usmonli hududlari: Bag'dod, Bo'sniya, Damashq, Qohira.

– chet eldan: O'zbekiston, Qozog'iston, Afg'oniston, Eron, Xitoy, Rossiya, Tunis.

Chet eldan kelganlarning viloyatlari esa quyidagicha: Samarqand, Qo'qon, Qashqar, Andijon, Namangan, Marg'ilon/Marg'inon, Jalolobod, Qucha, Buxoro, Ho'chin, Toshkent, Ko'hna Turxon, Tehron, Hirot, Shahrison, Shahrissabz, Kavkaz viloyati. Orenburg. Shumen. Usan.



Xarita 1. Mehmonlar daftariga ko'ra o'zbeklar takyasi jo'g'rofiyasi

Xaritadan ko‘rish mumkinki, “O‘zbeklar takyasi”ning mehmonlari asosan takya mansub tariqatning hududlari bo‘lgan O‘rta Osiyo va uning atrofidan kelar edi. Bu mintaqaga Xitoy va Afg‘oniston ham kiradi. Tunis esa kam sonli odam kelgan mamlakatdir. Usmonli davlati chegaralaridagi shaharlardan kelganlar soni ham ancha kam.

Vaqtivaqti bilan daftarlarga odamlarning kasb-hunarlarini ham yozib olingan. Ushbu ma'lumotni takyada yoki shaharda uzoq vaqt qolganlar va qisqa muddat kelibketganlar kontekstida alohida ko‘rib chiqish kerak. Shaharda uzoq vaqt qoladiganlar o‘z kasbi bilan shug‘ullanishlari va tegishli joylar bilan aloqada bo‘lishlari mumkinligi hisobga olinsa, ularning shahar xo‘jalik va iqtisodiy ahvoriga ta‘siri ham alohida tadqiqot mavzusi bo‘lishi mumkin.

Rasmiy va norasmiy mehmonlar daftarlari qayd etilgan kishilarning kasblari quyidagilardan iborat: oshpaz, baqqol, kundalik yordamchi, kommunal xizmatchi, sartarosh, bo‘yoqchi, oynachi, dallol, charxchi, dehqon, cho‘pon, to‘quvchi, duradgor, nonvoy, hunarmand, tabib, hammol, xamirchi, ignachi, ipakchi, ishchi, qozi, choyxonachi, qassob, zobit, qandchi, yog‘ochchi, karvonchi, ko‘mirchi, etikdo‘z, mashinist, usta, meva sotuvchi, mulla, mudarris, mutafakkir, naxlband (xurmo yetishtiruvchi), pochta, mardikor, egarchi, sayyoh, suvoqchi, qandolatchi, bakovul, do‘ppido‘z, talaba, tunukachi, tikuvchi, tasbeh yasovchi, tibbiyot talabasi, savdogar.

Ko‘rinib turibdiki, mudarris, mutafakkir yoki qozi, tabiblar kabi jamiyatning yuqori tabaqalari bilan tunukachilar, bo‘yoqchilar, egarchilar kabi oddiy kasb egalari bir joyda joylashgan. Ushbu ma'lumotlardan foydalanib, takyadagi ijtimoiy qatlamlarni xilma-xilligini talqin qilish mumkin. Tijorat hayoti va kasblar bilan bog‘liq ma'lumotlar esa kasb guruhlari, tashrif buyirilgan savdo shaharlari, kasblarning iqtisodiyotdagi o‘zgarishlarga mosligini ko‘rsatadi va so‘fiylar deb atash mumkin bo‘lgan bu jamoatning kasbiy xilma-xilligi tadqiq qilinishi mumkin bo‘lgan mavzulardandir.

Ayniqsa, rasmiy mehmonlar daftarida sarlavha sifatida qayd etilgan “Kelishilgan qolish muddati” ma'lumotlari tadqiqotchiga taqqoslash imkoniyatini taqdim etadi. Ushbu sarlavha ostida berilgan muddatlar quyidagicha ifodalanadi: *“taxminan 10 kun”*, *“mamlakatiga qaytgunicha”*, *“Hijozga borgunicha”*, *“noaniq”*, *“muddatsiz”*, *“kerakligicha”*, *“oz muddat”*, *“bir necha kun”*.

Har biri alohida ko‘rib chiqilishi kerak bo‘lgan bu muddatlarni turli talqin etish mumkin. Biroq, umuman olganda, ma'lum bir muddatga kelishilgan kishilarning rejali safarga chiqqanini, boshqalari esa Istanbulda duch keladigan sharoitlarga ko‘ra reja tuzib davom ettirganini taxmin qilish kerak. Bu odamlarning ba'zilar bu yerda aniq belgilanmagan muddat davomida qolib, ma'lum bir maqsadga erishganidan so‘ng o‘z mamlakatiga yoki boshqa shaharga ko‘chib o‘tgan. Qaydlarga ko‘ra, aniq vaqt ko‘rsatgan kishilar muddat majburiyatiga amal qilgan, deb aytish mumkin. Mehmonlar kelishilgan muddat davomida qolgandan so‘ng yo Anado‘lining boshqa bir shahriga, yoki Hijozga yo‘l olishgan, yoki Istanbulga joylashishgan. Bu harakatlilik ham Istanbul

va boshqa shaharlar bilan o'rnatiladigan aloqa turlarini tahlil qilish orqali hal qilinishi kerak.

Bu ikki daftarda odamlarning tashqi ko'rinishlari haqida ham ma'lumotlar mavjud. Bunga ko'ra, mehmonlarning 328 nafari baland bo'yli, 166 nafari o'rta bo'yli, 35 nafari past bo'yli. Shunday qilib, mehmonlarning ko'pchiligi baland va o'rta bo'yli odamlardir. Xuddi shunday, bu odamlarning ko'pchiligi sariq soqollidir. Qora va jingalak soqollilar ham bo'lsa-da, oq soqollilar juda kam uchraydi. Oz sonda ko'salar qayd etilgan bo'lsa, hali soqol qo'ymagan yoshlar soni talaygina. Mehmonlar kelgan hududni bu hudud aholisining tashqi ko'rinishlari bilan solishtirish hamda umumlashtirish mumkin.

Xuddi shunday, takya bilan aloqada bo'lgan kishilarning o'rtacha yoshi ham e'tiborga olinishi kerak bo'lgan masaladir. Bu sayohat qiladigan / sayohat qilishi mumkin bo'lgan kishilar, qolaversa, shaharga yangi kelgan aholining yosh, o'rta yoshli yoki keksalar ekanligi haqida tasavvur bera oladi. Doimiy ko'chib keluvchilar orasida yoshlar ko'pchilikni tashkil etadi, bu mehmon kelgan mamlakatdan ko'chishlar mavjudligi va Istanbulning maqsad shaharga aylangani haqidagi fikrga asos bo'ladi.

Nogironlar ham ko'p bo'lmasa-da, daftarlarda qayd etilgan. Ulardan ba'zilari tug'ma, ba'zilari esa keyinchalik paydo bo'lgan nogironlikdir. Bundan odamlarning yashash sharoitlari va ularning mehnati bilan bog'liq nogironligi bor-yo'qligi, shuning barobarida ularning kasbiy xavflari haqida ba'zi fikrlarni ham olish mumkin.

Muqim darveshlar qayd daftari. "O'zbeklar takyasi" daftarlari orasida muqovasida "Uskudar Sultontepasida joylashgan o'zbeklar dargohining aholi qayd kitobi" iborasi yozilgan va qiziq qaydlarni o'z ichiga olgan yana bir daftar ham bor. Daftarga "Uskudar Sultontepasidagi o'zbeklar dargohida yashovchi darveshlarning shaxsiy ma'lumotlari daftaridir" sarlavhasi yozilgan.


Qaydlar 1906–1923 yillar oralig'ida Uskudar o'zbeklar dargohining shayxi Muhammad Najmiddin tomonidan yuritilgan. Qo'lda tuzilgan 99 sahifada 391 ta qayd mavjud. Orasida boshqa qaydlar ham uchraydi. Daftarga 1955 va 1958 yillarda ham oz sonli qaydlar kiritilgan. Daftarda jami 491 kishi haqida ma'lumot keltirilgan bo'lib, ularning oxirgi 13 tasi esa fotosuratlar bilan qayd etilgan.

Ushbu daftarda ma'lumotlar tasnifi quyidagi sarlavha ostidagi ustunlarga bo'lingan holda amalga oshirilgan; ismi, otasining ismi, tug'ilgan joyi, yoshi, kelgan sanasi va izohlari. Daftardagi yillarga ko'ra darveshlar soni quyidagicha bo'lgan (2-jadvalga qarang).

Jadval 2: Muqim darveshlar daftari

Yillar	Kishi soni	Vaqt oralig'i
1906	8	Qonunu avval-Qonunu soniy
1907	21	Aprel-Fevral
1908	27	Aprel-Fevral
1909	36	May-Qonunu avval
1910	32	Mart-Qonunu avval
1911	45	Mart-Fevral
1912	32	Mart-Fevral
1913	99	Mart-Qonunu soniy
1914	8	Avgust-Qonunu soniy
1915	20	Mart-Qonunu soniy
1916	13	Mart-Qonunu soniy
1917	5	Aprel-Qonunu soniy
1918	104	May-Qonunu soniy
1919	21	Mart-Fevral
1920	2	Iyul-Qonunu avval
1921	3	May-Tashrini soniy
1922	2	Qonunu avval-Qonunu soniy
1923	3	May-Fevral

Jadvaldan “Mehmonlar daftari”ga ko‘ra kamroq darvesh qayd etilgan ushbu daftarda son jihatidan eng ko‘p qayd 1918-yilda, keyin esa 1913-yilda kiritilganligi ko‘rinib turibdi. Eng kam qaydlar 1922- va 1923-yillarga to‘g‘ri keladi. Nomi muqim, ya’ni doimiy yashovchi darveshlar daftari bo‘lsa-da, qaydlarning xususiyati, vaqt oralig‘i, qolish muddati kabi jihatlariga qaraganda bu birinchi guruh daftarlardan farq qilmaydigan ko‘rinadi.




Rasm 5, 6. Muqim darveshlar daftari

Daftar geografiyasi mehmonlar daftari bilan deyarli bir xil. Bu yerda ham mehmonlarni kelgan joyiga ko'ra uch guruhga ajratish mumkin: Anado'li, Usmonli chegaralari va chegaradan tashqari hududlar.

- Anado'li: Istanbul, Adana, Bursa, Van
- Usmonlilarning Anado'lidan tashqaridagi yerlari: Madina
- O'zbekiston, Q'ozog'iston, Sharqiy Turkiston, Afg'oniston, Eron, Xitoy, Rossiya kabi chet davlatlar.

Chegaradan tashqari sifatida qayd etilgan shaharlar quyidagilar: Oqsuv, Oltiariq, Andijon, Asaka, Ashxobod, Badaxshon, Buxoro, Buta, Jalolobod, G'ulja, Hirot, Xiva, Qo'qon, Xo'tan, Kamyaron, Qashqar, Qozon, Qrim, Ko'hna Turxon, Qucha, Madina, Marg'ilon/Marg'inon, Nayman, Namangan, Samarqand, Semim, Sibir, Shahrisabz, Shahrixon, Shahrimar, Shusha, Tehron, Toshkent, Toshqo'rg'on, Turkiston, Usan, O'sh, Vobkent, Yorkent.




Xarita 2. Muqim darveshlarga ko'ra o'zbeklar takyasi hududlari

Bu daftarda Bolqon mintaqasidan hech kim kelmagan bo'lsa-da, Madinadan kelganlar bor. O'rta Osiyo – odatda kelgan kishilarning aksariyati tegishli bo'lgan hudud bo'lsa-da, daftarlarga ko'ra shaharlarda farqlar mavjud. Ikki turdagi daftarlarni kelganlarning soni va qaysi shahardan kelgani bo'yicha yillarga qarab taqqoslash va farq yoki o'xshashliklarni o'rganib chiqish mumkin.

Har ikkala daftarga kiritilgan shaharlar: Buxoro, Jalolobod, Hirot, Qo'qon, Ko'hna Turxon, Qucha, Marg'ilon/Marg'inon, Shahrixon, Shahrisabz, Tehron, Namangan, Toshkent.

Mehmonlar va darveshlar kelgan joylarni solishtirish uchun qarang: Xarita 3.



Xarita 3. Mehmon va muqim darveshlar xaritasi

Kasblar narigi daftarlardagi kabi bu daftarlarga ham yozib borilgan. Bu yerda tabib yoki mudarris singari kasb egalari yo'q. Aytish mumkinki, ro'yxatga olinganlar asosan hunarmand va san'atkor bo'lgan. Biroq, talabalar sonining ko'pligi ham e'tiborni tortadi. Muqimlarning ba'zilari san'atsiz (hunari yo'qligi nazarda tutilmoqda) deb tavsiflangan. Bu odamlar uzoq vaqt qolganmi yo'qmi, bunga aniqlik kiritish dargohning muhtojlar uchun turar joy bo'lgan degan fikrni tasdiqlaydi. Xuddi shunday, bu muassasalar talabalar uchun ham turar joy sifatida bo'lgan. Bundan tashqari, talabalar borgan maktablar va ularning maktabdan qochishi kabi holatlar ushbu bo'limning qiziq qaydlari hisoblanadi.

Daftardagi kasblarni quyidagicha sanab o'tish mumkin: aravachi, kundalik yordamchi, oshpaz, attor, baqqol, sartarosh, bo'yoqchi, oynachi, dorboz, choychi, charxchi, tom ustasi, otboqar, cho'pon, temirchi, darvesh, dehqon, to'quvchi, duradgor, nonvoy, hunarmand, mixchi, xizmatkor, qassob, kamardo'z, qo'y dalloli, terichi, yog'ochchi, mirza, atirchi, mulla, nofachi (mushkchi), mardikor, egarchi, qandchi, talaba, tolibi ilm, shirinlikchi, tunukachi, savdogar.

Mehmonlarning qolish muddatiga ko'ra boshqa daftardagi kabi kunlik qoladiganlar ham, oylik va yillik qoluvchilar ham bor. Biroq, bu safar qoluvchilar 20 yilgacha bo'lgan muddatga yozilgan.

Qaydlar kishilarning jismoniy xususiyatlari bo'yicha tahlil qilinganda 251 kishi uzun bo'yli, 160 kishi o'rta bo'yli va 15 kishi past bo'yli ekani ma'lum bo'ladi. Bu odamlarning ko'pchiligi kalta sarg'ish soqollidir. Ko'sa va soqoli olinganlarning soni ham kam emas. Talabalar soni ko'p bo'lganiga bog'liq ravishda hali soqol qo'ymaganlar kam emasligi ko'rinadi. Qaydlar orasida ikki oyog'i yo'q nogiron, ko'zi ojizlar, mitti odamlar va chechak tufayli terisida chandiqlari borlar ham mavjud. Ushbu ma'lumotlar nafaqat kelayotgan kishilarning umumiy sog'lig'i haqida ma'lumot beradi, balki nogironlik holatiga ham oydinlik kiritishi mumkin, bunga esa o'z navbatida ularning yashash sharoitlarining belgisi sifatida qarasa bo'ladi. Nogiron bo'lsa ham sayohat qilish imkoniyati topgani ham alohida muhim masala.

Istiqboldagi tadqiqot yo'nalishlari

“O'zbeklar takyasi” daftarlaridan turli mavzulardagi ma'lumot va izohlarni o'rganish mumkin. Bular tashrif buyuruvchilar daftari bo'lgani uchun, albatta, birinchi navbatda geografik hududlar va joylar haqidagi ma'lumotlar kiritilgan. Shu sababli, takyaning ichki geografiyasi kirish mumkin bo'lgan eng oson va aniq baza. Ushbu ma'lumotlarni boshqa takyalar bilan taqqoslash keyingi tahlillar uchun qulay imkoniyat beradi.

Tashrif sabablari ikkinchi muhim masala. Ushbu sabablarga ko'ra savdo, ibodat va ko'chish kabi holatlarga asoslanib Istanbulning ziyoratgoh, sayohat maskani yoki doimiy joylashish shahri sifatidagi rollarini o'rganish mumkin. Albatta, bu yerda ko'plab masalalarni, jumladan, ular qaysi yo'llar orqali kelishgani va bu joylardan Istanbulga o'tgan bilimlar, madaniyat, buyumlar va aloqalar tadqiq etilishi mumkin.

Daftarlardan ma'lum bo'lishicha, tashriflarning asosiy sabablaridan biri muqaddas qadamjolarini ziyorat qilishdir. Haj bilan bog'liq ko'plab tadqiqotlarda ma'lum bir sanadan keyin Istanbulga tashrif buyurish an'anaga aylangani iddao qilinadi. Biroq, geografiya jihatidan turli hududlar o'rtasida hech qanday taqqoslash o'tkazilmagan, O'rta Osiyolik hojilardan tashqari boshqa hojilarning Istanbul orqali yo'l olishlari haqida ma'lumot to'planmagan. Bunday taqqoslash Istanbulning o'rni va hojilarning sayohat an'analari haqida ma'lumot beradi. Sayohat qilayotgan odamlar soni, texnologiya va siyosiy voqealar tufayli sayohat turlarining o'zgarishi va bu o'zgarishning yo'llarga aks etishi yana bir muhim tadqiqot mavzusi bo'ladi.

Hojilarning yoki umuman olganda, tashrif buyuruvchilarning kelish tarzida ham farqlar mavjud. Ulardan ba'zilar guruh bo'lib, ba'zilar oila, ba'zilar esa yakka tartibda kelgan. Guruhlar kichik yoki katta bo'lishi, oila omilining aralashishi yoki yakka tartibdagi sayohatlarning har biri alohida o'zgacha mazmunga ega. Bu keluvchilarning mamlakatini holatiga, kelib chiqqan joyining boyligi yoki qashshoqligiga, yo'l xavfsizligiga, dindorlik darajasiga va boshqalarga bog'liq bo'lib, o'z navbatida bu xususiyatlarni boshqa nuqtai nazardan baholash imkonini beradi. Bundan tashqari, tranzit nuqtalari bo'lgan bandargohlar va shaharlar ham boshqa bir masala. Ushbu

nuqtalardagi darvesh dargohlari bo'yicha tadqiqotlar olib borilishi kerak. Ma'lumki, mehmonlar Istanbulda bo'lganidek Usmonlilar davlati chegaralaridagi boshqa shaharlardagi dargohlarda, masalan, Tarsus, Madina va Makkada ham kutib olingan. O'zbek takyalarida istiqomat qilgan, bir necha kun qolgan odamlarning turli tranzit nuqtalariga, jumladan Qo'nya, Izmir va Eskishahar kabi shaharlarga borgani qayd etiladi. Demak ushbu shaharlarda o'zbek takyalari bor-yo'qligi yoki bu shaharlarda kelib chiqishi O'rta Osiyolik bo'lganlar bilan aloqada bo'lgan odamlar, muassasalar yoki aholi punktlarining bor-yo'qligi va bu munosabatlarning sabablari o'rganilishi kutilayotgan masalalardan.

Shu nuqtai nazardan, tashriflar bilan bog'liq ko'plab tadqiqot savollarini aniqlash mumkin. Masalan, Hajdan boshqa dargohga kelishlar vaqti qachon bo'lgan? Ushbu sayohatlarning sababi nima bo'lishi mumkin? Tashriflar bo'lmagan oylar bormi? Oylar va yillarga ko'ra tashriflarda faollik qachon kuzatilgan? Buning ijtimoiy, siyosiy, geografik yoki hatto mavsumiy sabablari nima bo'lishi mumkin? Sayohatlarga aloqasi bo'lgan qaysi Usmonli shaharlari bor? Tranzit shaharlar qayerda? Qaysi shaharlar – doimiy yashab qolish joylari bo'lgan? Takya atrofida yuzaga kelgan bu savollarning barchasiga javob izlash tadqiqot rivojiga katta hissa qo'shadi.

Daftarlardan olingan yana bir ma'lumot – mehmonlarning shahar bilan o'rnatgan munosabatlari va bu munosabatlarning turlari. Ba'zi mehmonlarning kasblari va takyadan chiqqandan keyin borgan joylari bu munosabatlarning tijoriy, diniy va hatto harbiy ekanligini ko'rsatadi. Masalan, hijriy 1293-yilda tug'ilgan, Andijondan kelgan Oxun Bobo 41 yoshda bo'lib, talaba sifatida ro'yxatga olingan. U 1335-yil (milodiy 1919-yil) aprelida harbiy xizmatdan qochib yurish aybi bilan inglizlar tomonidan hibsga olingan va bir oydan keyin ozod qilingan. Rasmiy mehmonlar daftarining 6-betidagi 132-sonli qaydda ko'plab savollar yashiringan: 41 yoshda bir kishi qanday qilib va nima bo'yicha talaba bo'lishi mumkin? Bu yoshda harbiy xizmat bormi va bosh tortish aybi bilan qo'lga olinishi mumkinmi? Agar shunday bo'lsa ham, buning inglizlarga qanday aloqasi bor? Andijonlik, ya'ni o'sha paytlarda rus davlati tarkibida bo'lgan O'zbekistonning ingliz armiyasida dezertir/qochoq bo'lishi nimani anglatadi? Bu hibsni ular ruslar nomidan qilganmi yoki Oxun Bobo Usmonli armiyasidan qochib ketganmi? Daftarlardagi boshqa yozuvlar hisobga olinadigan bo'lsa, O'rta osiyoliklar Usmonli qo'shinida xizmat qilganmi? Bu holatda inglizlarning voqeaga qanday aloqasi bor? Bu savollarga javoblar asosida savollar ko'payishi mumkin. Shu sababli, daftardagi qaydlarni diqqat bilan yakka tarzda tahlil va tadqiq etish kerak.

Rasmiy mehmonlar daftaridagi 207-sonli qaydga ko'ra, 1915–1916- yillarda Marg'ilondan kelgan 55 yoshli Hoji Yusuf Madinaga borib, keyin o'z ixtiyori bilan Chanaqqal'a urushlarida qatnashgan bo'lishi kerak. Chunki u kasal bo'lib, Bo'layirda harbiylikdan ozod etilgan (4-rasmga qarang).

Muqim darveshlar daftarining 56-sahifasida 269-raqamda qayd etilgan marg'ilonlik Hoji Hasan 1313–1314-yillarda harbiy xizmatga borib, bir oydan so'ng

ozod etilgan. Takyaga qaytgan bo'lsa ham, nojoiz xatti-harakati tufayli dargohdan haydalgan. Harbiy xizmatga borishdan oldin ham shunday vaziyatlarga duch kelgan bu shaxs xulq-atvori yaxshilanishi uchun harbiy xizmatga jo'natilgan, lekin u yerda ham o'zgara olmagan, deb o'ylash mumkin. Natijada, u dargohdan chiqarib yuborilgan (6-rasmga qarang).

Bu ikki qayd va shunga o'xshashlari Usmonli davlatining armiyaga qabul qilish jarayonlari qanday kechgani haqida yangi savollar tug'dirmoqda: tarix davomida o'z askarlarini tanlashda nihoyatda ehtiyotkor bo'lgan Usmonli davlati Usmonli fuqarosi bo'lmagan bu odamlarni qanday qilib o'z safiga oldi? Ko'ngillilik tamoyili qanchalik to'g'ri? Safarbarlik davri bu holatni zarur qilib qo'ygan bo'lishi mumkinmi? Armiyada boshqa ko'ngillilar bo'lganmi? Bu askarlar qancha vaqt va qayerda bo'lgan? Ular takyaga kelgandan keyin qancha vaqt o'tgach, harbiy xizmatga olingan? Ular Istanbulga armiyaga qo'shilish maqsadida kelganmi?

Muqim darveshlar daftarining 36-betidagi 173-raqamli yana bir qayd nihoyatda diqqatga sazovor. 1327- (1911-) yili Qo'qondan kelgan mitti (liliput) va ko'sa bo'lgan Hoji Ismoil qisqa muddatli sayohatlarini 1328- ya'ni 1912- yildan boshlagan. Hoji Ismoil har safar oxirida takyaga qaytish sharti bilan avval Salanikaga, keyin Edirnega, keyin Adanaga, keyin Qo'nyaga borgan. Qo'nyadan qaytgach, ko'p o'tmay Bag'dodga piyoda yo'l olgan. Bag'doddan qaytgach, yana Edirnega borib, dargohga borib bir necha kun qolgandan keyin Tekfurdag'iga (hozirda Tekirdag' viloyati) yo'l olgan. Va nihoyat, 1331-yilning 3-oyida (1915-yil may – iyun) Madina qamali boshlanganda, u Hijozga borgan va qaytib kelmagan. Qisqa vaqt ichida 8 shaharga borgan qo'qonlik bu shaxs savdogar bo'lganligi inobatga olinsa, so'z yuritilayotgan shaharlarning savdo salohiyati va nimaning oldi-sotdisi bo'lganini tadqiq qilish zarur. Agar shunday bo'lmasa, bu qisqa va tezkor sayohatlarning yana bir sababi borligini topish kerak. Har safar takyaga qaytib kelgani inobatga olinsa, ko'p e'tiborni tortmaydigan xususiyatlarga ega bo'lgan bu shaxs boshqa vazifalarga yo'naltirilgan deb o'ylash mumkin. Bunday holda, daftardagi yozuvlar faqat sayyohlar sifatida ko'rilmaligi kerak; tarixiy, ijtimoiy, geografik va hatto razvedka bilan bog'liq tahlillar ham hisobga olinishi kerak.

Mehmonlarning ba'zilari uyga bir necha marta kelib qolishgan. Buni haj ziyoratidan tashqari munosabatlarning belgisi deb hisoblash mumkin. Shu nuqtai nazardan, odamlarning necha marta kelishi, qancha turishi va qayerga borishi muhim. Bu savollarga javoblar ularning nima uchun kelganini ochib beradi. Mehmonlar tashrif buyuradigan, tez-tez borib turadigan shaharlar orasida Izmit, Izmir, Adapazari, Bandirma va ko'p marta Afyonqarahisar bor. Ushbu shaharlardagi aloqalar va agar mavjud bo'lsa, ular tashkil qilgan jamoalar o'rganilishi kerak.

O'rta Osiyolik hojilarning yo'nalishlari o'rganilganda ular Istanbuldan keyin Tarsusga ketgani ko'riladi. Bu tuman daftarlarda Adana sifatida aks etgan. Hojilar takyalarda qolar, mehmon qilinar edi. Ma'lum bo'lishicha, Istanbuldagi o'zbek dargohlari orasida ham xuddi shunday bordi-keldi bor. Sultontepaga birinchi kelgan

mehmonlar Sultonahmad takyasiga yoki Ayub qalandarxonasiga borar edilar. Yoki Sultonahmaddagi takyaga kelganlar qolgan ikki takyaga ham borar yoki yuborilar edi. Istanbuldagi darvesh takyalari orasida yuqorida sanab o'tilganlardan tashqari yana 3 ta "O'zbek" nomini olgan takya mavjud bo'lib, ular quyidagilardir: Beylerbeyi o'zbeklar takyasi, Galatadagi O'zbekiya takyasi va Bulbulderesi Devona Ali O'zbek takyasi.

Bu takyalar umumiy nomlarga ega bo'lsa-da, ular o'rtasidagi munosabatlar haqida ma'lumotga ega emasmiz. Biroq, biz ushbu tadqiqotda ko'rib chiqqan daftarlar hisobga olinsa, Sultontepa, Sultonahmad va Ayub takyalari bir-biriga bog'langanligi, munosabati borligini anglash mumkin. Boshqa takyalarning nomlari daftarlarda umuman qayd etilmagan. Bunday holda, boshqa takyalarning bu uchasi bilan bevosita aloqasi yo'qligini bildirsa kerak. Hech bo'lmaganda, bu uch takya orasidagina yana-da o'ziga xos munosabatlar borligini aytish mumkin.

Mehmonlar daftarlaridan takyaning xususiyatlari haqida ham tasavvurga ega bo'lish mumkin. Sayohatchi guruhlarining a'zolari, takyada uchrashgan guruhlar va haj paytidan tashqari ziyoratchilar soni takyaning imkoniyatlari va iqtisodiy ahvoli haqida taxminlar yuritish va hatto hisob-kitob qilish imkoniyatini beradi. Takyaning kattaligi, xonalari soni, oshxonasi, oshxona xarajatlari, mehmonlarga sarflangan mablag', muhtojlarga ko'rsatilgan yordam kabi masalalar "O'zbek takyasi"ning iqtisodiy erkinligi keng bo'lganidan dalolat beradi. Daftarlar orasidan topilgan buxgalteriya daftari bu yerda tashkil etilgan korxonaning daromadlari, ishlab chiqarishi va taqsimoti haqida tushuncha beradi. To'liq budjet qaydi mavjud bo'lmasa ham, bu daromadlarning kamida bir qismi takyadagi mehmonlarga sarflangan deb taxmin qilish mumkin. Albatta, bu o'rinda hujjatlashtirilgan davlat yordamlarini unutmasligimiz kerak.

Daftarlar batafsil o'rganilganda, sayohat sharoitida muhim bo'lgan yosh va jins kabi xususiyatlarni ham hisobga olish kerak bo'ladi. Qolaversa, takyada vafot etganlar, ularning yoshi, kasalliklari, o'lim sabablari va ulardan qolgan meros masalalari ham qiziq mavzu. Takyada sodir etilgan jinoyatlar, nomaqbul xulq-atvori tufayli haydalgan shaxslar ham alohida tadqiqot mavzusidir.

Xulosa

Tasavvuf dargohlari bo'lgan takyalar diniy-axloqiy ta'lim maqsadida bir joyga to'plangan va umumiy maqsadga ega bo'lgan jamoatni o'z ichiga oladi. Takya nomi bilan olib borilayotgan tadbirlar diniy-axloqiy xususiyatga ega bo'lsa-da, bu ularning ijtimoiy institut bo'lishiga to'sqinlik qilmaydi. O'z davrida masjidlardan keyin eng katta jamoatga erisha oladigan muassasa bo'lgan darvesh takyalari ana shu xususiyatlari tufayli faqatgina tasavvuf tadqiqotlari bilan cheklanib bo'lmaydigan ko'p qirrali tuzilmalar sifatida namoyon bo'ladi.

“O'zbeklar takyasi” daftarlari bizga takyaning o'zi, u bilan bog'liq odamlar va takya orqali shaharlar orasida, hatto chegaralardan tashqarida ham aloqa o'rnatgan jamoatning inventarizatsiyasini (raqamli ro'yxati ma'nosida) chiqarib beradi. Daftarlar 1898–1925-yillar oralig'idagi 27 yil takya manzarasini ko'rsatar ekan, bir tomondan Usmonlilar davlatining eng og'ir davrlaridan birini “O'zbeklar takyasi” nigohi bilan ko'rish imkonini beradi. Istanbulning multikulturalizmi va aholi harakatlanishiga takyaning qo'shgan hissasi, takya ahlining shahar bilan o'rnatgan aloqalari, savdo-sotiq va kasblar; takyaning shahardagi qurilish va o'zgarishlarga qo'shgan hissasi; takyalarning ular tashkil etilgan muhitga ta'siri, demografik o'zgarishlar; O'rta Osiyolik sayohatchilar misolida milliylikni anglash, tashkil etilgan uyushmalar/jamiyatlar; shaharga kelish, qolish va sayohat qilish qoidalari, shaharga moslashish va moslasha olmaslik; ta'lim olganlar, harbiy/frontga ketganlar va hokazolar kabi ko'plab mavzular ushbu daftarlar doirasida o'rganilishi mumkin bo'lgan tadqiqot mavzularidir.

Shu jihatdan “O'zbeklar takyasi” daftarlari ilgari qo'llanilgan tadqiqotlar bilan bir qatorda yuqorida tilga olingan mavzular mazmunida ham fanga katta hissa qo'shadi. Bundan tashqari, Istanbuldagi boshqa takyalarning mehmon va darvesh profillari bilan taqqoslash ham yangi savollarni keltirib chiqaradi. Bu esa dargohlar o'rtasidagi demografik o'xshashlik va farqlarni ham, takyalar orqali shaharga kelayotgan jamoalarning xususiyatlarini ham aniqlash imkonini beradi. Ushbu tadqiqotlarning barchasi nafaqat shaharni bu muhim institutining yangi vazifalarini ochib beradi, balki takyalarni tushunish va qayta talqin qilish uchun ham yo'l ochadi. Takya, inson va shahar o'rtasidagi aloqani qayta tahlil qilish ko'p jihatdan foydali bo'lmay qolmaydi.

Adabiyotlar

Arxiv manbalari

Sultantepe Özbekler Dergâhı Misafir Defteri.

Sultantepe Özbekler Dergâhı Nüfus Defteri.

Sultantepe Özbekler Dergâhı Resmî Misafir Defteri.

BOA, Osmanlı Arşivi. *Dahiliye Nezareti Mebani-i Emiriye-Hapishaneler Müdüriyeti Müteferrik Evrakı [DH.MB.HPS.M]*, № 9/73.

Boshqa manbalar

Hamid Algar. *Tariqat and Tariq: Central Asian Naqshbandîs on the Roads to the Haramayn. Central Asian Pilgrims: Hajj Routes and Pious Visits Between Central Asia and the Hijaz*. muharrir: ALEXandre Papas – Thomas VVelsford – Thierry Zarcone. – Berlin: De Gruyter, 2011. – S. 21–135.

Resul Ay. Anadolu ve Rumeli’de Derviş Seyahatleri ve Kırsal Toplum için Gördüğü İşlevler (13–15. Yüzyıllar). *Ötekilerin Peşinde: Ahmet Yaşar Ocak’a Armağan*. – İstanbul: Timaş Yayınları, 2015. – S. 303–314.

Lâle Can. Connecting People: A Central Asian Sufî Network in Turn of the Century. // *Modern Asian Studies*. – № 46/2. – 2012. – S. 373–401.

Semih Ceyhan. Estantished Sufî Orders. *Sufî Institutions*. ed. Alexander Papas. – Boston–Leiden: Brill, 2022. – S. 385–404.

Halim Baki Kunter. Tarsus’taki Türkistan Zaviyelerinin Vakfiyeleri. /*Vakıflar Dergisi* 4. – 1965. – S. 31–50.

Mustafa Kütükçü. Rusya’da Haccın Tarihi Serüveni. //*Karadeniz (Black Sea-Черное Море)*. – № 3/12. – 2011. – S. 178–190.

Yusuf Sarımay. Türkistanlı Hacıların Ziyaret Merkezi Olarak İstanbul. /*Bilig* 88. – 2019. – S. 1–18.

Oğuzhan Şahin. Biyografik Metinlerde Yüceltme imgesi: İlmî Seyahatler. *Uluslararası VIII. Klâsik Türk Edebiyatı Sempozyumu Kitapçığı*. – Diyarbakır: D.V. Kültür Sanat Yayınları, 2014. – S. 386–399.

Esra Duran Turay. Sufilerin Hac Yolculuğu //*Turkish Studies-Comparative Religious Studies*. – № 14/1. – 2019. – S. 97–140.

**LUTF ILA MA'MUR, NAZZORASI MASRUR:
“SULTONTEPA O'ZBEKLAR TAKYASI”DAGI
PESHTOQ BITIKLARI¹**



O'mer Ko'chyigit

Marmara universiteti

fan doktori,

ORCID: 0000-0002-7592-6946,

E-mail: omer.kocyigit@marmara.edu.tr

ANNOTATSIYA: Sultontepa O'zbeklar takyasi haqida ko'plab tadqiqotlar mavjud. Biroq bu tadqiqotlarda peshtoq yozuvlari batafsil tadqiq qilinmagan, qolaversa takya qabrstonidagi qabr toshlarini har tomonlama o'rganish hali ham amalga oshirilmagan.

Qabr toshlari mustasno qilib olingan ushbu tadqiqotda O'zbeklar takyasi binolari va qabrston qismidagi peshtoq yozuvlariga e'tibor qaratilgan. Bu bitiklar dargohda shayxlik qilgan, takya uchun xayriya ishlarini amalga oshirgan, undagi qabrston hududida dafn etilgan shaxslar, ularning oila va qarindoshlik aloqalari haqida e'tiborli ma'lumotlar berishi bilan muhimdir. Ba'zan arxiv hujjatlarida topib bo'lmaydigan ma'lumotlar bitiklarda berilgan.

Ushbu maqolada peshtoq bitiklari takyaning tarixi, uning xronologiyasi hisobga olingan holda tadqiq qilinadi va bitiklarda tilga olingan shaxslar bilan takyaning aloqasi ochib beriladi. Shuningdek, bitiklarda tez-tez uchrab turadigan ismlar, ayniqsa,

¹ O'zbeklar takyasidagi beshta peshtoq bitigini **Jemal Atabosh** bilan birga o'qidik. Bu matnlar soddalashtirilgan shaklda lavhalarga yozilgan va peshtoqlar ostiga osilgan. Men undan o'qishdagi yordami uchun minnatdorman. Yozuvlardagi qiyin ibora va ifodalarni o'qishimga yordam bergan ustozlarim **Gunay Kut** va **Sadi Kujurga** ham tashakkur izhor etaman.

takyaning shayxlari va quruvchi homiylari bilan bir qatorda bitiklarning shoirlariga ham to'xtalib o'tiladi, she'rlarning aruz vazni va sana bildiruvchi ta'rix qaydlari ham ko'rib chiqiladi. Xususan, bitiklarning shoirlari Oqib, Laylo Xonim, Tirnoqchizoda Mehmed Said Zevar, Ra'fatlarining ijodiy йўли ҳақида ма'lumot beriladi.

Maqolada bitiklarning yozilish sabablari bilan birga bitiklarni nega aynan bu shoirlar yozgani bo'yicha mushohada qilingan. Ba'zan bitiklar shoirlar saroyga taqdim etgan she'rlardan, gohida esa takya ahli afzal ko'rishi natijasida tanlangan. Asosiysi bitiklardagi ma'lumotlar boshqa manbalardagi ma'lumotlar bilan solishtirilishi orqali bitiklarning tarixiy manba sifatidagi ahamiyatini namoyon etadi.

Maqola takyadagi to'qqizta peshtoq yozuvining matnlari va suratlari bilan birgalikda taqdim etilgan bo'lib, takyaning peshtoq bitiklari katalogi sifatida ilmiy muomalaga kiritildi.

Umuman, ushbu tadqiqot takya qabristonidagi qabr toshlari uchun old tadqiqot bo'lib xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

KALIT SO'ZLAR: O'zbeklar takyasi, Naqshbandiya tariqati, peshtoq, Oqib, Laylo Xonim, Tirnoqchizoda Mehmed Said Zevar, Ra'fat.

LUTFİLE MÂMUR, NEZZÂRESİ MESRUR: KİTABELERİYLE SULTANTEPE ÖZBEKLER TEKKESİ¹

Ömer Koçyiğit

Dr. Öğr. Üyesi,

Marmara universiteti

ÖZET: Sultantepe Özbekler Tekkesi ile ilgili çok sayıda çalışma bulunmaktadır. Ancak bu çalışmalar arasında kitabelerin detaylı incelemesi yapılmamış, tekkeye ait haziredeki mezar taşlarının kapsamlı bir incelemesi henüz gerçekleştirilmemiştir.

Bu çalışmada mezar taşları hariç, Özbekler Tekkesine ait binalarda ve hazirede yer alan türbelerde bulunan kitabeler ele alınmıştır. Bu kitabeler, tekkede şeyhlik yapmış, türbe için hayır işleri yapmış kişilerle birlikte türbede defnedilmiş olanlar, onların aile ve akrabalık bağları hakkında bilgiler vermesi bakımından önemlidir. Bazen arşiv belgelerinde bulunamayan bilgiler kitabelerde yer alır.

Bu yazıda, tekkenin tarihi, kronolojisi ışığında kitabeler incelenmekte ve tekke ile kitabelerde adı geçen kişiler arasındaki bağlantı ortaya konulmaktadır. Ayrıca kitabelerde sıkça geçen isimler, özellikle tekkenin şeyhleri ve maddi açıdan destekleyicileri ile kitabelerin şairleri üzerinde durulmakta, şiirlerdeki tarih kayıtlarından bahsedilmektedir. Özellikle kitabelerin şairleri olan Âkib, Leyla Hanım, Tırnakçızâde Mehmed Said Ziver ve Re'fet hakkında bilgi verilmektedir.

¹ Özbekler Tekkesinde bulunan beş kitabeyi **Cemal Atabaş** ile beraber okumuştuk. Bu metinler sadeleştirilmiş hâlleriyle birlikte levhalara yazılarak kitabelerin altına asılmıştır. Çalışmadaki yardımlarından dolayı kendisine teşekkür borçluyum. Ayrıca kitabelerdeki bazı zor ibareleri okumada yardımcı olan **Günay Kut** ve **Sadi Kucur** hocalarıma teşekkür ederim.

Makalede, söz konusu kitabelerin yazılış nedenleri ve şairlerin neden aynen bu şairler tarafından yazıldığı ele alınmaktadır. Bazen şairler tarafından saraya sunulan şairlerden, bazen de tekke ehlinin tercihleriyle seçilen şairlerden kitabeler oluşmuştur. Önemli olan yazıtlardaki bilgilerin diğer tarihî kaynaklardan alınan bilgilerle karşılaştırılması kitabelerin tarihî önemini ortaya koymaktadır.

Makalede, tekkede bulunan dokuz kitabenin metinleri ve görselleri verilerek kitabelerin katalog şeklinde bilim camiasına sunulması sağlanmaktadır. Genel olarak bu çalışma, tekke haziresindeki mezar taşları için bir ön çalışma niteliği taşıması bakımından önem taşımaktadır.

ANAHTAR KELIMELER: Özbekler Tekkesi, Nakşibendîye tarikati, kitabe, Âkib, Leyla Hanım, Tırnakçızâde Mehmed Said Ziver, Re'fet.

THE PORTALS OF "SULTONTEPA UZBEKLAR TEKKESI"

Ömer Koçyiğit

Dr.,

Marmara University

ABSTRACT: Much research has been conducted on the "Uzbeklar Tekkesi" (The Uzbeks Lodge) in Sultantepe. However, none of these studies have been dedicated to a detailed examination of the inscriptions on the takya's portals. Furthermore, a comprehensive study of the tombstones in the takya cemetery has yet to be conducted.

This study, with the exception of the tombstones, focuses on the inscriptions on the portals of the "Uzbeklar Tekkesi" and the portals in the cemetery part. These inscriptions are important because they provide detailed information about the buried individuals in the cemetery area who were sheikhs in the takya, who were involved in charity for the takya, and their family members and their relatives. Sometimes these descriptions provide information that cannot be found even in archival documents.

This article examines the inscriptions on the portals according to the history of the takya, taking into account chronology and revealing the connection between the takya and the persons mentioned in it. At the same time, attention is paid to those whose names appear frequently on the inscriptions, especially the sheikhs and patrons of the construction of the takya, as well as to the poets who composed the inscriptions, and the poems of the ta'rih, which indicate the date of the events that took place, are examined. In particular, information is given on the creative path of such poets as Oqiba, Lailo Khanum, Tırnokchizade Mehmed Sayyid Zevar, Ra'fat.

The article explores the reasons behind the creation of the inscriptions (epitaphs) and why these particular poets were chosen to compose them. Sometimes the inscriptions were selected from poems sent to the palace by poets, while at other times

they reflected the preferences of the takya's residents. Most importantly, comparing the information contained in these inscriptions with data from other sources highlights the significance of these inscriptions as a historical resource.

The article brings together the texts and images of nine inscriptions on takya portals and introduces it into scholarly circulation as a catalog of inscriptions on takya's portals.

Overall, this study is important because it serves as a preliminary study of tombstones in the Takya Cemetery.

KEY WORDS: "Uzbeklar Tekkesi" (The Uzbeks Lodge), Naqshbandi order, portals, Oqiba, Lailo Khanum, Tirnokchizade Mehmed Sayyid Zevar, Ra'fat.

Kirish

“O‘zbeklar takyasi”da bugungi kungacha yetib kelgan beshta peshtoq bitigi bor. Maqbaradagi yozuvlar qo‘shilgach, bu raqam to‘qqiztaga yetadi. Bu to‘qqizta bitikdan tashqari, hozirgi kungacha yetib kelmagan takyaga tegishli bitik bor-yo‘qligi ma’lum emas.

Mavjud bitiklar takyaning qurilishi, ta’mirilanishi kabi voqealar haqida ma’lumot beribgina qolmay, dargohda o‘rnatilgan aloqalar tarmog‘iga oid adabiyotlardagi kamchiliklarni ham to‘ldiradi. Bu yerda, avvalo, bitiklarda nomi tilga olingan shaxslar, so‘ngra bitiklardagi she’rlarning shoirlari haqida bahs yuritiladi.

Peshtoq bitiklarining xronologiyasi va mazmuni

Takyada o‘rnatilish tartibiga ko‘ra to‘qqizta bitikning birinchisi masjid yonidagi devorda joylashgan ikki qatorli she’riy bitikdir. 1182-(1768–1769) yilga tegishli bu bitikda takyaning naqshbandiya tariqatiga aloqadorligi va bu maskan hol ahlidan¹ bo‘lgan kishilar uchun salomatlik uyi ekanligi ta’kidlangan (qarang, Ilova: Katalog, № 1).

Bu bitik yonidagi ikkinchi bitik uzun she’rdan iborat. Bu yerda Abdulla afandi 1166- (1752–1753) yilda takyani qurdirgani, uning shayxi Abdulakbar O‘zbekiy bo‘lganligi, dargoh binolarining ko‘pchiligi shu shayx tomonidan qurdirilgani va bu qurilish ishlari Sulton Mustafo davrida boshlanib, tugallangani aytiladi. She’rdagi oxirgi misra o‘chib ketgani uchun uning aniq qaysi yilga mansubligi noma’lum bo‘lsa-da, bitikning o‘rnatilgan sanasi Mustafo III hukmronlik qilgan 1757–1774 yillar oralig‘ida bo‘lganligini tushunish mumkin.

Bu peshtoq bitigi bir mavzuga aniqlik kiritishi bilan ahamiyatlidir. Abdulloh Afandi 1171- (1757–1758) yilda takyada hali shayx bo‘lganligi ma’lum², ammo 1787-yilda vafot etgan Abdulakbar O‘zbekiy³ qachon shayx bo‘lganligi aniq emas. Bitikda Sulton Mustafo davrida Abdulakbar O‘zbekiy takyaning shayxi bo‘lganligi, shuning uchun takyaning 1774-yildan oldin tashkil etilgani tushuniladi.

¹ *hol ahli* – tasavvufiy holatlarni boshdan kechirish orqali bilgan va tatib ko‘rgan mutasavvuf, sufiy ahli.

² Hâfiz Hüseyn Ayvansarâyî. *Hadikatü'l-cevâmi'*. – İstanbul: Matbaa-i Âmire, 1281. – 2/240.

³ Mehmet Nermi Haskan. *Yüzyıllar Boyunca Üsküdar*. – İstanbul: Üsküdar Belediyesi, 2001. – 1/433.

Uskudar tarixiga oid qimmatli asarlar qoldirgan Mehmet Nermi Haskan (1927–2002) takyaning birinchi shayxi Hoji Xoja Abdulkarim afandi, ikkinchi shayxi Xoja Xo'ja Abdulloh afandi, uchinchi shayxi esa Abdulakbar afandi ekanligini aytadi¹. Holbuki Husayn Ayvansaroyiy (vaf. 1201/1787) takyaning 1166-yilda Abdulla Posho tomonidan qurilganini va birinchi bo'lib Hoji Xoja nomi bilan mashhur bo'lgan Shayx Abdulloh afandiga topshirilganini aytadi². Zokir Shukriy ham Abdulkarim afandini tilga olmaydi, avval Abdulloh afandini, so'ng esa Abdulakbar afandini yozadi³. Takyadagi peshtoq bitikda avval Abdulloh afandi, keyin esa Abdulakbar afandi zikr qilinadi (Katalog, № 2). Demak, Abdulakbar O'zbekiyning po'stnishin bo'lgan davrida yozilgan bu ma'lumotlar uning takyaning ikkinchi shayxi bo'lganligini tasdiqlaydi.

Xronologik tartibda qaralsa, bu ikki bitikdan keyin takyaning shimoli-sharqida joylashgan maqbaradagi ikkita bitik keladi. Shuning uchun maqbara munosabati bilan takyaga uchinchi va to'rtinchidagi bitiklar qo'yilgan. Bu ikki bitik maqbaraga dafn etilgan Ali Rizo afandi vafoti haqida yozilgan she'rlardan iborat. 1245 (1829–1830) yilga oid bu yozuvlar maqbara eshigi tepasida va chap tomonida joylashgan. Yuqoridagi bitikda shoirning taxallusi berilmagan; she'riy bitikda esa Ali Rizo afandining Hazrati Abu Bakr (r.a.)ning avlodi ekani, vafot etganda yoshi o'n beshda bo'lgani, otasi tirik ekani qayg'uli ifodalar bilan beriladi. Chap tarafdagi to'rtinchi bitik bo'lgan yozuv to'rtlikdan iborat bo'lib, xuddi yuqoridagiga o'xshab, Ali Rizo afandining nasabi Hazrati Abu Bakr (r.a.)ga borib taqalishi va buning belgisi sifatida Savr g'oridagi ilon chaqishidan qolgan iz u kishining ham oyog'ida bo'lgani ta'kidlanadi (Katalog, № 3, 4).

Takyadagi beshinchi peshtoq bitigi Sulton Abdulmajid tomonidan dargohning 1260- (1844–1845) yilda ta'mirlanganligi haqidadir. Ilgari eshik tepasida osiliq turgan bu yozuv bugungi kunda bosh binoda namoyishga qo'yilgan. Besh bayt she'rdan iborat bitikda takyani qayta tiklagani uchun hukmdorni madh etuvchi iboralar bor (Katalog, № 5).

Oltinchi bitik 1265-yil 23-sha'bonga (1849-yil 14-iyul) to'g'ri keladi va suv chashmasining ustida joylashgan. Bitikda takyaning yettinchi va sakkizinchi shayxlari bo'lgan marhum Shayx Rajab va uning katta o'g'li Shayx Sodiq afandining ruhlari uchun fotiha so'ralgan. Shayx Rajab afandi 1816-yilda, Sodiq afandi esa 1846-yilda vafot etgani uchun⁴ bu yozuv Rajab afandining ikkinchi o'g'li Abdurrazzoq afandining shayxligidan keyingi davrida takyaga qo'yilganini anglash mumkin (Katalog, № 6).

Yettinchi bitik suv chashmasining yuqori chap tomonida joylashgan yozuv bo'lib, Durrinav Boshqadin⁵ tomonidan 1289-yilning jumod-ul-avval oyida (1872-yil iyul–avgust) chashmaning suv yo'llari ta'mirlangani haqidadir. She'riy matnida Durrinav

¹ Haskan. *Yüzyıllar Boyunca Üsküdar*. – 1 / 434.

² Ayvansarâyî. *Hadîkatü'l-cevâmi'*. – 2/240.

³ Zâkir Şükrî Efendi. *Die Istanbuler derwisch-konvente und ihre scheiche: (Mecmu'a-i Tekaya)*, haz. Mehmet Serhan Tayşi. – Berlin: Klaus Schwarz Verlag, 1980. – S. 76.

⁴ Haskan. *Yüzyıllar Boyunca Üsküdar*. – 1/434.

⁵ *Boshqadin* – Usmonli davlatida sultonning bosh turmush o'rtog'iga berilgan nom.

Boshqadinning saxovatligi ta'kidlanib, takyaga qilgan xizmati maqtalgan (Katalog, № 7).

Takyaning sakkizinchi bitigi maqbara old tomonidagi mavjud uchta bitikning o'ng tomonidagisidir. To'rt bayt she'rdan iborat bitikda Husayn Avni Poshoning o'g'li Ahmad Fuad Bey maqbarani 1309- (1891–1892) yili ta'mirlanganligi qayd etilgan (Katalog, № 8).

Takyadagi oxirgi bitik esa maqbaraning yon devoridagi deraza tepasida joylashgan. Dunyoning o'tkinchiligi ta'kidlangan bir bayt bilan birga "Ey aql egalari, ibrat oling!" ma'nosidagi Hashr surasining 2-oyati yozilgan. Bitikda biror sana mavjud bo'lmagani uchun xronologik tartibda u boshqa bitiklardan keyin berildi (Katalog, № 9).

Bitiklarda tilga olingan shaxslar

"O'zbeklar takyasi" peshtoqlaridagi bitiklarda nomlari tilga olingan shaxslar orasida birinchi bo'lib e'tiborni tortadigan guruh bu takya shayxlaridir. Bitiklarda jami to'rtta shayx qayd etilgan.

Takyaning birinchi shayxi Abdulloh afandining nomi 2-raqamli bitikda keltirilgan, ammo ikkinchi shayx Shayx Abdulakbar O'zbekiy afandi haqida batafsilroq ma'lumotlar mavjud. Bitikda uning Samarqandda tug'ilgani va Shoh Sayyid Ne'matullohi Valiy (vaf. 834/1431) avlodidan ekani qayd etilgan. Bunga asosan, Shayx Abdulakbar O'zbekiyning Ismoil bin Ja'fari Sodiqga tutashuvchi sayyidlar oilasiga mansub ekani ko'rinadi. Qolaversa, tasavvuf tarixi nuqtai nazaridan, takyaning tariqat an'analari doirasida Ne'matullohiyya bilan aloqasi ham tadqiq qilishga arziydigan mavzudir¹. Yuqorida tilga olingan Muhammad Abdulakbar O'zbekiyning qabri takya qabristonida bo'lib, vafoti 1202-yil safar oyidir (1787-yil noyabr). Otasining ismi esa Sa'dulloh sifatida qayd etilgan².

Bundan tashqari, takya shayxlarining nomlari tilga olingan yana bir bitik suv chashmasidagi 6-raqamli bitikdir. Bitik qurilishidan oldin vafot etgan Shayx Mehmed Rajab afandi va uning o'g'li Shayx Mehmed Sodiq afandi marhum sifatida alohida zikr qilinib, ular uchun duolar so'raladi.

Bitiklarda sultonlarning nomlari ham bor. Sulton Mustafo III davrida bitilgani anglash mumkin bo'lgan 2-raqamli bitikda sultonga duo bor.

Maqbaradan o'rin olgan 8-raqamli bitik ham xuddi shunday. Bu yerda davr hukmdori Sulton Abdulhamid II – "Hadimu'l-Haramayn" deb zikr qilingan. Ammo 5-raqamli bitikda davr hukmdori Sulton Abdulmajidning nomi boshqa sabab bilan tilga olingan. Zero "O'zbeklar takyasi" 1844-yilda sulton tomonidan yangilanganligi sababli, uning ta'mirlanishi haqidagi she'r sultonning tamg'asi bilan birga o'yib yozilgan.

¹ Shoh Ne'matullohi Valiy va Ne'matullohiyya haqida batafsil ma'lumot uchun qarang: Mahmud Erol Kılıç. Ni'metullâh-ı Velî. *Türkiye Diyanet Vakfı İslâm Ansiklopedisi*. – İstanbul: TDV Yayınları, 2007. – 33/133–135.

² Haskan. *Yüzyıllar Boyunca Üsküdar*. – 1/432.

Bitiklarda tilga olingan yana bir saroy arbobi Durrinav Boshqadindir. U Sulton Abdulazizning bosh xotini, sulton taxtga o'tirishiga qadar yagona xotini va shahzoda Yusuf Izzaddinining onasi edi. 7-raqamli bitikda Durrinav Boshqadinning takya suv chashmasini va uning suv yo'llarini ta'mirlaganini anglash mumkin. Chashmadagi bitikda ta'mirlash ishlari Sulton Abdulaziz taxtda bo'lgan davr 1872-yilda amalga oshirilganligini ko'rsatadi. 1895-yilda oltmish yoshida vafot etgan va Sulton Mahmud maqbarasiga dafn etilgan Durrinavning hayoti haqida ma'lumotlar juda cheklangan¹. Takyaga qilgan ushbu xizmatining tafsilotlari ham bitikda yozilgan satrlar bilan cheklangan.

Maqbaradagi bitiklarda boshqa manbalarda uchramaydigan ma'lumotlar bor. 3- va 4- sonli bitiklardan ma'lum bo'lishicha, o'n besh yoshida vafot etgan Ali Rizo afandi takya yonidagi maqbaraga dafn etilgan. Bitikda uning Hazrati Abu Bakr (r.a.)ning avlodlaridan ekanligi yozilgan.

Boshqa tomondan, maqbaraning o'ng tomonidagi 8-raqamli yozuvda Husayn Avni Poshoning nomi tilga olingan bo'lib, maqbarani uning o'g'li Mir Ahmad Fuad ta'mirlagani qayd etilgan. Uskudarda ko'plab obodonchilik ishlarini olib borgan Husayn Avni Poshoning Turunch va Kavsar ismli ikki kanizagi takya qabristoniga dafn etilgan². Husayn Avni Poshoning oilasi takya bilan yaqin aloqada bo'lgan deb o'ylash mumkin, chunki uning o'g'li bu yerdagi maqbarani qurdirgan. Maqbarani ta'mirlagan Ahmad Fuad Bey bundan tashqari Karajaahmad maqbarasini ham qayta tiklagan³.

Bu bitiklar dargohda shayxlik qilgan, takya uchun xayriya ishlarini amalga oshirgan, undagi qabriston hududida dafn etilgan shaxslar, ularning oila va qarindoshlik aloqalari, hatto ajdodlari haqida e'tiborli ma'lumotlar berishi bilan muhimdir. Ba'zan arxiv hujjatlarida topib bo'lmaydigan ma'lumotlar bitiklar orasida beriladi. Ta'mirlash-qurilish faoliyati va takya uchun ko'rsatiladigan xizmatlar haqida batafsil ma'lumotni bitiklardan bilib olish mumkin. Biroq takya bilan aloqada bo'lgan guruhlar bular bilan cheklanmaydi. Qayd etilgan guruhlardan tashqari yana bir guruh kishilar borki, ular she'rlarni yozgan shoirlardir.

Bitiklarning shoirlari

Bitiklardagi shoirlar takya bilan aloqada bo'lgan va hech bo'lmaganda qalami bilan "O'zbeklar takyasi" haqida ta'rix⁴ bitgan shaxslar bo'lgani uchun alohida to'xtalib o'tishga arziydi. Zero suv chashmasidagi 6-raqamli bitikdan tashqari barcha bitiklar she'r qilib yozilgan. Bu she'rlarning to'rttasida taxalluslar qo'llangani uchun shoirlarini aniqlash mumkin. Biroq bir taxallusning turli shoirlar tomonidan qo'llanganligi

¹ Necdet Sakaoğlu. *Bu Mülkün Kadın Sultanları: Valide Sultanlar, Hatunlar, Hasekiler, Kadınefendiler, Sultanefendiler*. – İstanbul: Oğlak Yayıncılık, 2008. – S. 468 ; Mustafa Çağatay Uluçay. *Padişahların Kadınları ve Kızları*. – Ankara: TTK Yayınları, 1980. – S. 162–163.

² Haskan. *Yüzyıllar Boyunca Üsküdar*. – 1 / 441.

³ Haskan. *Yüzyıllar Boyunca Üsküdar*. – 2 / 578.

⁴ ta'rix – arabchadan "yuz bergan" ma'nosini anglatadi, taniqli kishilarning tug'ilishi va vafoti, turli binolarning qurilishi, kitoblar ta'lifi va boshqa muhim voqea-hodisalar vaqtini anglatuvchi she'r.

ehtimoli ikki bitikning shoirini topishda qiyinchilik tug'dirdi, bir bitikning esa shoirini aniqlashning imkoni bo'lmadi. Bitiklarning shoirlari xronologik tartibda quyidagicha:

Oqib. Masjid yonidagi devorga osilgan 2-raqamli bitikda 12 baytdan iborat she'r bor. Bu she'rning oxirgi misrasi ko'rinmaydi, ko'rinib turgan oxirgi baytda "Oqibi abdi kamina so'ylayub bu mufradi" degan misra bor. Ibrohim Haqqi Ko'nyali (1896–1984)¹ va Nermi Haskan² bu satrdagi birinchi so'zni "oqibat" deb o'qigan, ammo diqqat bilan qaralsa, te harfi yo'qligi ko'rinadi. Shuning uchun birinchi so'z "Oqib" bo'lishi kerak. Bu yerda Oqib shoirning taxallusi bo'lib ko'rinsa-da, uning kimligini aniq topib bo'lmadi. Taxminan XVII–XVIII asrlarda yashagan Oqib taxallusli shoir M. Seyfettin O'zegen kolleksiyasidagi bir qo'lyozma asosida ma'lum bo'lsa-da, takyadagi bitik uning qo'lyozma majmuasiga kiritilmagan³.

Laylo Xonim. XIX asrning mashhur shoirlaridan biri Laylo Xonim (vaf. 1264/1847) bitiklardagi she'r mualliflaridan biridir. Maqbaradagi 4-raqamli bitikda "Harfi javhardor ila Laylo dedi tarixini" misrasi mavjud bo'lib, unda shoironing taxallusi aniqlanadi. Qoziaskar⁴ Moralizoda Hamid afandining qizi va Kechejizoda Izzet Mullaning jiyani Laylo Xonim asli Mavlaviyya⁵ tariqatidan edi va 1847-yilda vafot etganida Galata Mavlaviyxonasidagi qabristonga dafn etilgan⁶. Uning devoni dastlab Buloqda bosilib, so'ngra turli joy va zamonlarda qo'shimchalar bilan qayta nashr etilgan⁷.

Laylo Xonim devonida zikr etilgan 4-raqamli bitik mavjud emas. Bitikdagi she'rda Ali Rizo afandining Hazrati Abu Bakr (r.a.) avlodidan ekanligini ta'kidlagan Laylo Xonimning devonida Hazrati Abu Bakr (r.a.) va boshqa xalifalarni madh etuvchi she'rlari bor. "İdenler Hazret-i Bû Bekr'i inkâr / Cemâlin görmesinler enbiyânın" (*Hazrati Abu Bakrni inkor qiluvchilar anbiyoning jamolini ko'rmasin*) misrasi shulardan biridir⁸. Qolaversa, ko'p sayohat qilgan Laylo Xonimning devonida Uskudar haqida she'r bo'lmasa-da, Beykoz haqida she'r bor⁹. Biroq, Laylo Xonim maqbaradagi Ali Rizo afandini qaysi munosabat bilan tanigani, "O'zbeklar takyasi" bilan qanday aloqada bo'lgani aniqlanmadi.

Tirnoqchizoda Mehmed Said Zavar. 5-raqamli bitikning shoiri Tirnoqchizoda Zavar Beydir. Sulton Abdulmajid imzosi tushirilgan peshlavhada shoir "Zavari Tirnoqchizoda so'yladi tarixini" misrasida o'z ismini tilga olgan. Uning nafaqat Zavar taxallusi, balki Tirnoqchizoda unvonini ham qo'llaganligi Zavar Beyning kimligini

¹ İbrahim Hakki Konyalı. *Âbideleri ve Kitabeleri ile Üsküdar Tarihi*. – İstanbul: Üsküdar Belediyesi, 2021. – 1/332.

² Haskan. *Yüzyıllar Boyunca Üsküdar*. – 1 / 432.

³ Ahmet İçli. Akib ve Şiirleri. // *Karadeniz*. – № 36. – 2017. – S. 302–327.

⁴ *qoziaskar* – Usmonli davlatida saltanat devoni kengashining a'zosi, sud va ta'lim tashkiloti uchun mas'ul bo'lgan shaxsga berilgan unvon.

⁵ *Mavlaviylik, Mavlaviyya* – Mavlono Jaloliddin Rumiya (vafoti 672/1273) nisbat berilgan tasavvuf tariqati.

⁶ İsmail Ünver. Leyla Hanım. *Türkiye Diyanet Vakfı İslâm Ansiklopedisi*. – Ankara: TDV Yayınları, 2003. – 27 / 157.

⁷ Leylâ Hanım. *Divân-ı Leylâ Hanım*. – Bulak: Bulak Matbaası, 1260.; Leylâ Hanım. *Divân-ı Leylâ Hanım* – İstanbul: Şirket-i İrâniyye Destgâhı, 1299.

⁸ *Leylâ Hanım Divanı*. haz. Mehmet Arslan. – İstanbul: Kitabevi Yayınları, 2003. – S. 275.

⁹ Arslan. *Leylâ Hanım Divanı*. – S. 285–286.

aniqlashni osonlashtiradi. Chunki manbalarda Zevar taxallusi bilan tanilgan 7 ta shoir bor¹.

Tirnoqchizoda Mehmed Said Zevar Bey, 1812-yili Uskudarda tugʻilgan boʻlib, Sayyid Mustafo Beyning oʻgʻli. Otasi Quddus qozisi boʻlganida u bilan birga borgan Zevar Bey Istanbulga qaytganidan soʻng toʻqqiz yil davomida Orif Hikmat Beydan (vaf. 1275/1859 yil) adabiyot tahsili olgan. Shundan soʻng, otasining Makka va Madina qoziligi davrida 1842-yilgacha Hijozda boʻlgan Zevar Bey, noiblik vazifasini bajargan, 1847-yilda esa Qoramursal qozisi boʻlgan². U takyadagi bitikni ham shu davrda, 1844-yilda yozgan.

Keyinchalik shayxulislom mavqeigacha koʻtarilgan Orif Hikmat Bey bu bitik yozilgan paytda Rumeli qoziaskari edi³. Zevar Bey bilan Orif Hikmat Beyning yaqinligi uzoq yillar davom etdi. Zevar Bey Orif Hikmat Beyning devonini toʻplab nashr ettirdi va asar oxirida 1859-yil vafotiga bagʻishlab taʼrix sheʼri yozdi. Bu yerda Zevar Bey Vaqflarni taftish qiluvchi majlisning aʼzosi sifatida tanishtiriladi⁴.

Tirnoqchizoda Zevarning bir sheʼriy majmuasi bor. 1252- (1836–1837) yilga tegishli bu majmua “Oʻzbeklar takyasi”dagi peshlavhadan sakkiz yil avval yozilgan⁵. Tirnoqchizodaning devoni ham bor. Oʻzi Naqshbandiya-Xolidiya tariqatiga mansub boʻlgan Zevar Beyning devonida ham Uskudar, ham turli takyalar haqida sheʼrlar bor. Bunga Partav Posho tomonidan Uskudar Salimiyada qurdirilgan Naqshbandiya takyasi uchun yozilgan sheʼr⁶, 1258-yilda Shayx Rumiy afandi takyasini taʼmirlanishi munosabati bilan yozilgan taʼrix,⁷ Salajak bandargohida 1286-yilda qurilgan masjid uchun yozilgan taʼrix sheʼri⁸ va Uskudarni madh etuvchi toʻrtligi⁹ misol boʻla oladi. Devonida xalvatiya shayxlaridan Nasuhiyzoda Shayx Shamsiddin afandi vafot etgani munosabati bilan yozilgan taʼrix sheʼri bor boʻlib¹⁰, bu oʻn bir baytlik sheʼrning birinchi va oxirgi baytlari Uskudar Nasuhiy takyasida dafn etilgan Shamsiddin afandining qabrtoshida yozilgan¹¹. Shoir, shuningdek, shayxulislom Orif Hikmat Bey haqida ham koʻplab taʼrix sheʼrlari yozib qoldirgan¹². Qolaversa Kastamoʻnudagi suv chashmasi bitigi kabi vazifasi doirasida borgan shaharlarida ham sheʼrlar yozgan¹³.

¹ Mûcahit Kaçar. İntihal mi Mahlas Değişikliği mi? Zihni ve Ziver Divanları Üzerinde Bir İnceleme. // *Turkish Studies: International Periodical for the Languages, Literature and History of Turkish or Turkic*. 5/5. – 2010. – S. 1536–1542.

² Hakan Yekbaş. Tırnakçı-zade Mehmed Saʼid Ziver Bey ve Mensur Şitâiyyesi. // *Divan Edebiyatı Araştırmaları Dergisi*. – № 3. – 2009. – S. 147–184.

³ Mustafa L. Bilge. Ârif Hikmet Bey, Şeyhülislam. *Türkiye Diyanet Vakfı İslâm Ansiklopedisi*. – İstanbul: TDV Yayınları. – № 3. – 1991. – S. 365–366.

⁴ Ârif Hikmet Bey. *Divân-ı Ârif Hikmet*. – İstanbul: Matbaa-i Âmire, 1283. – S. 268.

⁵ Tırnakçızâde Ziver Bey. *Şiir Mecmuası*. – İstanbul: İstanbul Üniversitesi Nadir Eserler Kütüphanesi, Türkçe Yazmalar, 1284.

⁶ Tırnakçızâde Ziver Bey. *Divân*. – İstanbul: İstanbul Üniversitesi Nadir Eserler Kütüphanesi, Türkçe Yazmalar, 1242. – 5b-6a.

⁷ Tırnakçızâde, *Divân*. Türkçe Yazmalar, 1242. – 9a.

⁸ Tırnakçızâde, *Divân*. Türkçe Yazmalar, 1242. – 15b.

⁹ Tırnakçızâde, *Divân*. Türkçe Yazmalar, 1242. – 26b.

¹⁰ Tırnakçızâde, *Divân*. Türkçe Yazmalar, 1242. – 3b-4a.

¹¹ Haskan. *Yüzyıllar Boyunca Üsküdar*. – 1 / 294.

¹² Tırnakçızâde, *Divân*. Türkçe Yazmalar, 1242. – 9b; 14a-14b.

¹³ Tırnakçızâde, *Divân*. Türkçe Yazmalar, 1242. – 4a.

Tirnoqchizoda Zevar Bey o'z devoniga "O'zbeklar takyasi"dagi baytlarini kiritmagan. Boshqa tomondan, Zevar taxallusi keng tarqalganligi sababli, bu devonning Tirnoqchizodaga tegishli yoki tegishli emasligi uning bir she'riga asoslanib, aniqlangan. Zero u deyarli barcha she'rlarida faqat Zevar taxallusini ishlatgan. Tirnoqchizoda ismini 1259-yili Orif Hikmat Bey tomonidan qurdirilgan suv chashmasiga yozgan she'rida ishlatgani ko'rinadi. Unda "Bandasi Tirnoqchizoda Zevar" degan ibora bor¹. Bu sana "O'zbeklar takyasi"dagi bitikdan bir yil avvalga tegishli. Boshqa she'rlarida Tirnoqchizoda ismini qo'llashni afzal ko'rmagan Zevarning nega devoniga takyadagi she'rini kiritmagani aniq emas. Shu bilan birga bitik Orif Hikmat Bey tomonidan Tirnoqchizoda Zevarga qilingan taklif bilan yozilganmi, yo'qmi bu ham qiziq masala.

Ra'fat. Bitiklarda taxallusi yozilgan so'nggi shoir 8-raqamli bitikdagi "Düşdü bâ-avn-i Xuda Ra'fat bu tarix-i latif" bandida tilga olingan Ra'fatdir. Usmonlilarning oxirgi davrida Ra'fat taxallusi bilan bir necha shoirlar bo'lgan. Jumladan, 1289- (1872–1873) yilda nashr etilgan bir devonda shoir "hozirda o'rta maktablarda fors tili o'qituvchisi" sulaymoniyalik al-Hoj Muhammad Ra'fat afandi deb tanishtirilgan². "O'zbeklar takyasi"dagi 8-raqamli bitik 1309- (1891–1892) yilga tegishli bo'lib, uning shoiri diyarbakirlik Tayyazoda Ibrohim Ra'fat afandidir. 1865-yili Buxoriy muallimi bo'lgan Ra'fat afandi Uskudarda Atik Ali Poshoga Mavlononing "Masnaviy", Sa'diyning "Guliston" va Hofizning "Devon"idan dars bergan. Uning nazmiy mavludnomasi bor bo'lib, ko'p marta nashr etilgan. Ali Amiriy (1857–1924 yillar) bu asarning oddiy mavludnoma ekanini, she'rlari ta'rix she'ri, tug'ilish va o'lim qaydlari kabi she'rlardan iboratligini aytadi. She'rlarini Uskudarning turli joylarida uning uchratish mumkin, masalan, Mirzazoda masjidi ichidagi peshlavha unga tegishli. Uzoq yillar Uskudarda yashagan Ra'fat afandi shu yerda vafot etgan va Karajaahmetda dafn etilgan³.

Bitiklarni nega aynan bu shoirlar yozgan?

Peshtoq bitiklarining tayyorlanishi uzun jarayon bo'lganligini taxmin qilish mumkin. Shoir qalamiga mansub she'r xattot tomonidan bitiladi, tosh ustasi matnni toshga o'yib yozgandan so'ng, lavha peshtoqqa o'rnatilgan. Biroq matnning shoirini aniqlash yoki ko'p sonli she'rlar orasida bittasini bitik sifatida tanlash ham muhim masaladir.

Arxiv hujjatlarida sultonlarga taqdim etilgan she'rlarning namunalari ko'p. Sulton Abdulmajidning "O'zbeklar takyasi"ni ta'mirlashi bilan bog'liq 5-raqamli bitik bitilgan yillarda Zevar taxallusi bilan yozilgan ko'plab she'rlar saroyga taqdim etilgan ko'rinadi. Shoir Zevarning takyadagi bitik bilan ayni yilda yozgan Sulton Abdulmajidga qasidasi⁴, Abdulmajidning qizi Jamila Sultonning tug'ilgan sanasiga

¹ Tirnakçızâde, *Divân*. Türkçe Yazmalar, 1242. – 8b-9a.

² Süleymaniyeli Hâc Mehmed Re'fet. *Mecmu a-i Eşâr-ı Re'fet*. 1289, 3.

³ Haskan. *Yüzyıllar Boyunca Üsküdar*. – 2 / 530.

⁴ Osmanlı Arşivi (BOA), *Topkapı Sarayı Müzesi Arşivi Evrakı [TS.MA.e]*, № 369 / 4 (1260).

yozgan ta'rix she'ri¹, yangi yil tabriklari bilan sultonni madh etgan uchta she'ri², Tanzimoti xayriya³ni madh etgan she'ri⁴ takyadagi peshlavha bilan bir xil davrlarda sultonga taqdim qilingan. Bundan tashqari Zevarning Chirag'on saroyining orqasidagi masjid uchun yozgan she'ri⁵ va 1265-yilda Fayzi Boriy kemasining bandargohga tushirilishiga yozgan ta'rix she'ri⁶ kabi ko'plab she'rlarini arxivda uchratish mumkin. Bu yerda Zevar sifatida tilga olingan shaxsning Tirnaqchizoda Zevar ekanligiga ishora yo'q, hatto uning Ahmad Zevar Poshoga tegishli bo'lishi ehtimoli ko'proq⁷. Lekin bu misollar shoirlar saroyga taqdim etgan she'rlar peshtoq bitigi sifatida qo'llanilishi uchun muhim bo'lgani jihatidan bu yerda keltirildi. Masalan, Zevar Poshoning Fotih masjididagi politsiya idorasining qurilishi va buning "chiroyli inshoot" ekanligi haqida yozgan she'ri binoning kirish qismiga bitik sifatida osib qo'yilishiga qaror qilingan⁸. "O'zbeklar takyasi"dagi 5-raqamli bitik ham xuddi shunday qaror bilan o'yilgan, deyish mumkin.

Saroydan kelgan qarordan tashqari, takya a'zolari tomonidan tanlangan bitiklar ham mavjud. Bu borada takya qabristonidagi bir qabr toshining hikoyasi muhim ma'lumotlarni beradi. Bu qabr toshi 1904-yilda vafot etgan Shayx Edhem afandiga, yozuvi esa Rizo Tavfiq (Bo'lukboshi) Beyga tegishli. Mashhur yozuvchi Xalide Adib xonim yashagan uy takyaga yaqin bo'lib, Rizo Tavfiq bey haftada ikki marta ularning uyiga kelib, adabiyotdan dars berardi. Hatto shu munosabat bilan Xalide xonimning otasi Edib Bey bir kuni Rizo Tavfiqni Shayx Edhem afandi bilan tanishtiradi. Edhem afandi vafot etgach, Edib bey Rizo Tavfiqqa telegramma yo'llab, vaziyatdan xabar berib, uning ko'p do'stlari shayxning o'limiga bitik yozganliklarini aytadi va undan ham she'r yozishni so'raydi. Uzunroq she'r yozgan Rizo Tavfiq bu she'rni uch kundan keyin Edib Beyga olib boradi va uning she'ri tanlangan holda Edhem afandi qabr toshiga o'yib yoziladi⁹.

Bu misollar takyada peshtoq bitiklarining yozilishi, tanlanishi va joylanishi haqida bizga muhim ma'lumotlarni beradi. Ba'zan bitiklar shoirlar saroyga taqdim etgan she'rlardan tanlansa, gohida esa takya ahli afzal ko'rishi natijasida tanlangan. Biroq shoirlarning tashabbuslarini, ularga tushayotgan takliflarni e'tibordan chetda qoldirmaslik kerak. Devonlardagi ta'rix she'rlari tegishli muassasada bitik sifatida mavjud bo'lmasa, shoir bu ta'rixni peshtoq bitigi maqsadida yozganini, ammo uning

¹ BOA, *TS. MA.e*, № 368 / 10, Jild № 1-8 (1259). 8- raqamli hujjatda shoir Zevarga oid ta'rix mavjud.

² BOA, *TS.MA.e*, № 369 / 5 (1260).

³ *Tanzimoti xayriya* – "Xayrli nizomga solish, kelishish" ma'nosini bildiruvchi ushbu termin Usmonli hukmdori Sulton Abdulmajid tomonidan imzolangan fuqarolik islohoti dasturi va uning amalida bo'lgan davrini anglatadi.

⁴ BOA, *TS.MA.e*, № 369 / 3 (1259).

⁵ BOA, *TS.MA.e*, № 369 / 21 (1265).

⁶ BOA, *TS.MA.e*, № 369 / 20 (1265).

⁷ Zevar Posho haqida batafsil ma'lumot uchun qarang: Haşan Aksoy. Ziver Paşa. *Türkiye Diyanet Vakfı İslâm Ansiklopedisi*. – İstanbul: TDV Yayınları, 2013. – 44 / 474-475; *Ziver ve Divanı*, haz. Haşan Kaplan. – İstanbul: DBY Yayınları, 2019.

⁸ BOA, *İrade Dahiliye [I.DH]*, 1286 / 101207. Hujjatda sana ko'rsatilmagan, lekin katalogda 1260-yil yozilgan. Fotihdagi politsiya bo'limining Zevar Posho yozgan bitigida 1254-yil deb yozilgan. Qarang: Database for Ottoman Unscriptions: Osmanlı Kitabeler Projesi, Fatih Müftülüğü-Karakol.

⁹ Haskan. *Yüzyıllar Boyunca Üsküdar*. – 1 / 436.

qabul qilinmaganini taxmin qilsa bo'ladi. Ammo "O'zbeklar takyasi"dagi bitiklar muallifi bo'lgan shoirlar bu she'rlarni devonlariga kiritmaganlar.

Peshtoq bitiklaridagi ta'rixlar

Peshlavhalarning sakkiztasi nazmda, 1, 2, 4, 5, 7, 8 va 9 sonli bitiklar esa "foilotun / foilotun / foilotun / foilun", 3-raqamli bitik esa "muftailun, muftailun, foilun" vaznida yozilgan.

2, 3, 4, 5 va 8-sonli bitiklarda ta'rix tushirilgan. 2-raqamli bitikda mo'jam ta'rix¹ (javhar, javohir) tushirilgani aytiladi, lekin oxirgi qatori ko'rilmagani uchun uni o'qib bo'lmaydi. "Oqibi abdi kamina so'ylayub bu mufradi" iborasidan ma'lum bo'lishicha, bitikda she'r sanasini bildiruvchi yakuniy baytdan iborat oxirgi qator bor bo'lishi kerakligini anglash mumkin. Bitikning bu shaklda tugallanganligi haqidagi ikkinchi, kamroq ehtimolli variant ko'rib chiqilsa, "Oqib" bilan boshlangan va ikkinchi qatorini "O'ldu harfi javhariysila anga ta'rix tom" deb o'qish mumkin bo'lgan baytning oxirgi misrasi ekanligini, bu misra javhariy ta'rix bilan hisoblanganda 1523-yil bo'lib chiqqanini ko'ramiz. Biroq, shuni ta'kidlash kerakki, oxirgi so'zda bitta nuqta bor (ikkinchi nuqta yemirilgan bo'lishi mumkin). Unday bo'lsa misra "O'ldu harfi javhariysila anga ta'rix nom" deb o'qish mumkin va bu holda javhariy ta'rix bilan 1173-yilga to'g'ri keladi. Biroq, aniq sanani ilgari surish qiyin. Agar mavjud bo'lsa, bitikning pastki qatorlarini ko'rish kerak.

3-raqamli bitik ta'miyali ta'rix² bo'lib, oxirgi misrasidagi "Oh" so'zi muqobilidagi 6 raqami olib tashlansa, 1245-yilni beradi: "*Âh çikup gitdi bu târîhdir, Ali Rızâ cây-ı cinân âh âh*". (Oh, chiqib ketdi bu ta'rixdur, Ali Rizo joyi jannat oh, oh).

4-raqamli bitikda mo'jam ta'rix tushirilgan, biroq nuqtali harflar qo'shilsa, 1246 soni chiqadi. Ammo bitikda 1245 soni raqamlar bilan yozilgan: "*Harf-i cevherdâr ile Leylâ dedi târihini, Genç iken kıldı Ali Rızâ Efendi adni câ*". (Harfi javhardor ila Laylo dedi ta'rixini, Yosh turib Ali Rizo afandi jannatni joy qildi).

5-raqamli bitik tom ta'rixga³ ega va 1260-yilni bildiradi: "*Zîver-i Tırnakçızâde söyledi târihini, Kıldı hâkân-ı cihân ihya bu vâlâ dergehi*" (Zevari Tirnaqchizoda so'yladi ta'rixini, Jahonning xoqoni bu oliy dargohni obod qildi).

8-raqamli bitik ta'miyali ta'rixga ega bo'lib, *bo* harfining qiymati bo'lgan 2 soni ayrilganda 1309 raqamini beradi: "*Düşdü bâ-avn-i Hudâ Re'fet bu târîh-i latif, Eyledi i'mâr bu akdes türbeyi Ahmed Fuâd*" (Bu latif ta'rixni Xudoning madadi bilan Ra'fat yozdi, Bu qutlug' maqbarani Ahmad Fuod bunyod ayladi).

¹ *mo'jam ta'rix* – abjad hisobida bu matndagi nuqtali harflarnigina hisoblash bilan ma'lum bo'lgan sanani bildiradi.

² *ta'miyali ta'rix* – harflarning abjad hisobidagi raqamli qiymatlari yig'indisi kerakli sanani bermagan hollarda, natijaga qo'shilishi yoki ayirilishi kerak bo'lgan raqam oldingi qatorda aniq yoki bilvosita ko'rsatiladigan ta'rix she'ri

³ *tom ta'rix* – Hisoblanganda aniq sanasi kelib chiqadigan ta'rix.

Xulosa

“Sultontepa O‘zbeklar takyasi” binolari va maqbarasidagi to‘qqizta bitikni tadqiq etuvchi mazkur maqola takya tarixini yana-da chuqurroq o‘rganishga xizmat qiluvchi qabristondagi qabr toshlari bo‘yicha tadqiqotlarning boshlanishi hisoblanadi. Takya bitiklarining qurilgan davri xronologik tartibda keltirilib, bitikda tilga olingan nomlar, shayxlar, homiylar va shoirlarning tarjimai hollari orqali ularning takya bilan aloqalari muhokama qilindi. Ushbu bitiklarni yozilish sabablari matnlardagi ma’lumotlar bilan solishtirilishi bitiklar – tarixiy manba bo‘la olishini ko‘rsatadi.

Durrinav Boshqadin afandining suv chashmasida va Ahmad Fuad Beyning maqbarada amalga oshirgan obodonlik ishlari, bitikning shoirlari Tirnaqchizoda Zevar, Laylo xonim va Ra’fat Beyning takya bilan aloqalari boshqa manbalarda uchramaydigan, peshtoq bitiklarida ko‘riladigan ma’lumotlardir. Shu bilan bir qatorda 2-sonli bitikda keltirilgan ma’lumotlar takya va uning birinchi shayxlariga oid chalkashliklarga oydinlik kiritadi.

